

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI

Oliy ta'larning normativ huquqiy asoslari hamda
tizimda korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining
oldini olish

MODUL BO'YICHA

O'QUV-USLUBIY MAJMUA



TASHKENT 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH
TARMOQ MARKAZI**

**OLIY TA'LIMNING NORMATIV HUQUQIY ASOSLARI HAMDA
TIZIMDA KORRUPSIYA VA MANFAATLAR TO'QNASHUVINING
OLDINI OLİSH MODULI BO'ICHA
(Barcha yo'nalishlar uchun)**

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Toshkent – 2025

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 485-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar: A.X.Xayitov

Taqrizchi: s.f.f.d. Abdurazakova Kamolaxon Yusupovna

O‘quv-uslubiy majmua Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(29 ” noyabr 2024-yildagi 4 -sonli bayonoma)

MUNDARIJA

- I. ISHCHI DASTUR**
- II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL
O'QITISH METODLARI**
- III. NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**
- IV. AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**
- V. GLOSSARIY**
- VI. ADABIYOTLAR RO'YXATI**

I. ISHCHI DASTUR

I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

Hozirgi vaqtida ta'limni rivojlantirishning jahon an'analari ta'sirida oliy ta'limga bo'lgan munosabatni o'zgartirish jarayonlari jadal ravishda davom etmoqda. Ta'lim har qanday mamlakatda inson kapitalini rivojlantirish orqali barqaror taraqqiyotni ta'minlaydigan muhim omildir. Jahon ta'lim maydonida raqobat kuchayib borayotgan bir sharoitda dunyo OTMlari oldida juda katta jiddiy va o'z yechimini kutayotgan vazifalar turibdi. Ular nafaqat o'quv va ilmiy jarayonlarni tashkil etishda, balki innovatsiyalarni yaratish, iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatish, jahondagi asosiy muammolarni xal etishda sog'lom raqobat muxitini vujudga kelishiga zamin yaratmoqda. Bu esa dunyo mamlakatlarining yetakchi oliy ta'lim muassasalari tomonidan strategik rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini aniq belgilab olish, strategik ahamiyatga ega bo'lgan normativ-huquqiy va meyoriy-uslubiy xujjatlarini takomillashtirish, ta'lim tashkilotlarini rivojlantirishning uzoq muddatli dastur va konsepsiyalarni ishlab chiqish va oliy ta'lim tizimida o'z yechimini kutayotgan muammolarni bartaraf etish masalasini kun tartibiga qo'ymoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 8-oktabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi"ga ko'ra mamlakatimizning oliy ta'lim sohasiida islohotlarni amalga oshirish, insonlarning dunyoqarashini o'zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Bunda yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta'lim va tarbiya berish tizimi islohatlar talablari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlarini rejalashtirish va tashkil etishda: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta'limga oid farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda Oliy ta'lim fan va innovatsiya vazirligining buyruqlari, oliy ta'limda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida qabul qilingan normativ hujjatlar amalda qo'llanilmoqda. Dastur doirasida berilayotgan mavzular oliy ta'lim muassasalarida qo'llaniladigan oliy ta'limning normativ-huquqiy asoslarini har tomonlama nazariy va amaliy jihatdan o'rganish va tahlil etishni dolzarbligidan dalolat beradi.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini oliy ta'limning normativ-huquqiy hamda korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishning huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy asoslari bo'yicha bilimlarini takomillashtirish, normativ-huquqiy hujjatlarni qo'llashdagi muammolarni aniqlash,

tahlil etish, shuningdek, ularda oliy ta’limning normativ-huquqiy xujatlari to‘g‘risida ko‘nikma va malakalarni yangilash hisoblanadi.

Modulning vazifalari:

- oliy ta’limning normativ-huquqiy hujjati sifatida qonun hujjatlarini tahlil etish;
- oliy ta’limning normativ-huquqiy hujjati sifatida qonunosti hujjatlarini tahlil etish;
- tinglovchilarda normativ-huquqiy hujjatlarni amalda qo‘llash ko‘nikmasi va malakalarini shakllantirish;
- oliy ta’limda korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimining hujjatlari mazmun mohiyatini nazariy va amaliy jihatdan o‘zlashtirish;
- oliy ta’limga tegishli bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va tatbiq etish jarayonlarini tahlil etish;
- pedagog kadrlarda normativ-huquqiy hujjatlarga amal qilish va ularni ijrosini ta’minlash madaniyatini shakllantirish.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

“Oliy ta’limning normativ huquqiy asoslari hamda tizimda korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- oliy ta’lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmunini;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta’lim tizimiga oid farmonlari, qarorlarini;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy ta’lim tizimiga tegishli qarorlarini;
- Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining ta’lim jarayonlarini rejalashtirish va tashkil etishga oid buyruqlarini;
- Davlat ta’lim standartlari, ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o‘quv rejalar, fan dasturlari va ularga qo‘yiladigan talablarni, o‘quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullarini;
- oliy ta’lim tizimida korrupsiya va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashish vazifalari, mazmun-mohiyati, yuzaga kelish sabablari, ijtimoiy-huquqiy omillarini ***bilishi*** lozim.

Tinglovchi:

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy ta’lim tizimiga tegishli qarorlari asosida ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;

- Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga oid buyruqlari, Davlat ta’lim standartlari, ta’lim yo‘nalishlarining va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o‘quv rejalar va fan dasturlarini takomillashtirish;
- o‘quv yuklamalarni rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish;
- O‘zbekiston Respublikasida ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining mazmun-mohiyati va ahamiyatini ochib berish;
- oliy ta’limda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish vazifalarini amalga oshirish;
- korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularni majburiy baholash, korrupsiya xavfi yuqori hisoblangan lavozimlar ro‘yhatini shakllantirish, xavflar darajasini pasaytirish chora tadbirlarini amalga oshirish tartibidan samarali foydalanish **ko‘nikma va malakalariga** ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining buyruqlari asosida ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
- Davlat ta’lim standartlari, malaka talablari, o‘quv rejalar va fan dasturlar asosida fanning ishchi dasturini ishlab chiqish, amal qilish va ularni ijrosini ta’minlash;
- OTMlarning lokal hujjatlari (Ustav, Ichki tartib qoidalar) asoslarini o‘zlashtirish;
- Davlat ta’lim standartlari, Malaka talablari, o‘quv rejalar va fan dasturlar asosida fanning ishchi dasturini ishlab chiqish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimining huquqiy asoslarini shakllantirishda xalqaro tajribaning ahamiyatini yoritib berish;
- oliy ta’lim tizimida manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilganlik holatlarini aniqlash, manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan sohalarni oldini olish va bartaraf etish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish, fuqarolarni ishga qabul qilish jarayonlarini nazoratga olinishini ta’minlash (nomzodlarni tekshirish tartibi), ushbu sohada qo‘llanishi lozim bo‘lgan xorij tajribasidan foydalanish **kompetensiyalariga** ega bo‘lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Oliy ta’limning normativ huquqiy asoslari hamda tizimda korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish” moduli ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalardan;

o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, blits-so‘rovlardan, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash va boshqa interfaol ta’lim metodlarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Oliy ta’limning normativ huquqiy asoslari hamda tizimda korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish” modul mazmuni o‘quv rejadagi “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslari” o‘quv moduli bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning meyoriy-huquqiy hujjatlar, oliy ta’limda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish bo‘yicha kasbiy tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagи o‘rnи

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ta’lim va tarbiya jarayonlarini normativ-huquqiy asoslari, korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimining huquqiy asoslarini o‘rganish, ularni tahlil etish, amalda qo‘llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

MODUL BO‘YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzularи	Auditoriya o‘quv yuklamasi		
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg‘ulot
1.	Oliy ta’lim sohasiga oid qonun hujjatlarining umumiy tavsifi.	4	2	2
2.	Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyruqlari.	4	2	2
3.	Ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o‘quv rejalarini va fan dasturlarini ishlab chiqish amaliyotini takomillashtirish mexanizmlari.	2		2
4.	Oliy ta’limda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish vazifalari va huquqiy omillari.	2	2	
5.	Oliy ta’limda korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimining huquqiy asoslari hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasini pasaytirishning chora-tadbirlari.	2		2
Jami:		14	6	8

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Oliy ta’lim sohasiga oid qonun hujjatlarining umumiy tavsifi. (2 soat).

Oliy ta’lim sohasiga oid qonun hujjatlarining umumiy tavsifi. Oliy ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ - huquqiy xujjatlardan tushunchasi. Normativ-huquqiy xujjatlarning turlari. Normativ huquqiy xujjatlarga qo‘yiladigan talablar. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. Ta’lim jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish. Ta’lim to‘g‘risidagi qonun xujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik.

2-mavzu: Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyruqlari. (2 soat).

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyruqlari. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga oid buyruqlari. Davlat ta’lim standartlari, ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablar, o‘quv rejalar, fan dasturlari va ularga qo‘yiladigan talablar. O‘quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullari. OTMlarning lokal hujjatlari (Ustav, Ichki tartib qoidalar).

3-mavzu: Oliy ta’limda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish vazifalari va huquqiy omillari. (2 soat)

Oliy ta’lim tizimida korrupsiya va korrupsiyaga oid huquqbazarliklarga qarshi kurashish vazifalari, mazmun-mohiyati, yuzaga kelish sabablari, ijtimoiy-huquqiy omillari. Oliy ta’lim tizimida manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilganlik holatlarining ko‘rinishi, manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan sohalar, ularni oldini olish va bartaraf etish uchun qo‘llanilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlarning mazmun-mohiyati, fuqarolarni ishga qabul qilish jarayonlarini nazoratga olinishini ta’minalash (nomzodlarni tekshirish tartibi), ushbu sohada qo‘llanishi lozim bo‘lgan xorij tajribasi.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Oliy ta’lim sohasiga oid qonunosti hujjatlari va ularning turlari. (2 soat).

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi va uning mohiyati. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta’lim tizimiga oid farmonlari va qarorlari. Oliy ta’lim sohasiga oid qonunosti hujjatlari va ularning turlari. Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minalash bo‘yicha qo‘sishma chora-tadbirlar. Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari.

2-mavzu: Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyruqlari. (2 soat)

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyruqlari. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga oid buyruqlari. Davlat ta’lim standartlari, ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o‘quv rejalar, fan dasturlari va ularga qo‘yiladigan talablar. O‘quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullari. OTMlarning lokal xujjatlari (Ustav, Ichki tartib qoidalar).

**3-mavzu: Ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining
Malaka talablari, o‘quv rejalarini va fan dasturlarini ishlab chiqish amaliyotini
takomillashtirish mexanizmlari. (2 soat)**

Meyoriy uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish amaliyotini takomillashtirish mexanizmlari. Ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o‘quv rejalarini va fan dasturlarini ishlab chiqish. Xorijiy tajribalar asosida Malaka talablari, o‘quv rejalarini va fan dasturlarini takomillashtirish.

**4-mavzu: Oliy ta’limda korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimining
huquqiy asoslari hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasini pasaytirishning
chora-tadbirlari. (2 soat).**

Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimining huquqiy asoslarni shakllantirishda xalqaro tajribaning ahamiyati, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularni majburiy baholash, korrupsiya xavfi yuqori hisoblangan lavozimlar ro‘yhatini shakllantirish, xavflar darajasini pasaytirish chora tadbirlarini amalga oshirish tartibi.

O‘QITISH SHAKLLARI

-Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

-ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, motivatsiyani rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);

-davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);

-bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

“KWHL” методи

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va biliimlarni tizimlashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo'yicha qo'yidagi jadvalda berilgan savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

Know – nimalarni bilaman?

Want – nimani bilishni xohlayman?

How - qanday bilib olsam bo'ladi?

Learn - nimani o'rganib oldim?.

“KWHL” metodi	
- <i>Nimalarni bilaman:</i> -	<i>Nimalarni bilishni xohlayman, nimalarni bilishim kerak:</i>
3. Qanday qilib bilib va topib olaman: -	<i>Nimalarni bilib oldim:</i>

“W1H” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va biliimlarni tizimlashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo'yicha qo'yidagi jadvalda berilgan oltita savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

What?	Nima? (ta'rifi, mazmuni, nima uchun ishlataladi)	
Where?	Qayerda (joylashgan, qayerdan olish mumkin)?	
What kind?	Qanday? (parametrlari, turlari mavjud)	
When?	Qachon? (ishlatiladi)	
Why?	Nima uchun? (ishlatiladi)	
How?	Qanday qilib? (yaratiladi, saqlanadi, to'ldiriladi, tahrirlash mumkin)	

“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	• кучли томонлари
W – (weakness)	• заиф, кучсиз томонлари
O – (opportunity)	• имкониятлари
T – (threat)	• хавфлар

SWOT -тахлили

Strengths	Weakness
Opportunities	Threats

- **S-кучли томони**
- **W- кучсиз томони**

- **O- имконият**
- **T- тўсиқлар**

Keys-stadi” metodi

«Keys-stadi» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo’llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin.

“Keys metodi”ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment”lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.



Test

-

Muammoli vaziyat

Tushuncha tahlili (simptom)

Amaliy vazifa

“SCAMPER” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod muammolarni bartaraf etish bo'yicha yangi innovatsion g'oyalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan. SCAMPER "tez yugurish" degan ma'noni anglatadi. SCAMPER tushunchasi kengaytmasi (7 ta)ning har biridan 7 qatordan va 3 ustundan iborat jadval yaratish talab etiladi.

SCAMPER



Ta'lim tizimini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish

SCAMPER savollari	SCAMPER savollari (yangi g‘oyani ishlab chiqish)	Ta'lim tizimini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish
S	Nima bilan almashtirish mumkin?	
C	Nima bilan birlashtirish mumkin?	
A	Nimaga moslashtirish kerak?	
M	Qanday yaxshilash mumkin?	
P	Nimalarni o‘zgartirish mumkin? (shakl, tur, belgi, rang va boshqalar)	
E	Yana qanday holda qo‘llash mumkin	
R	Nimani qayta tiklash mumkin?	

III. NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-MA'RUAZ. OLIY TA'LIM SOHASIGA OID QONUN HUJJATLARINING UMUMIY TAVSIFI MA'RUZANING ASOSIY MAQSADI:

“Oliy ta’limning normativ huquqiy asoslari hamda tizimda korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish” modulining 1-mavzusini yoritishga mo‘ljallangan rejadagi Oliy ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tushunchasi. Normativ-huquqiy hujjatlar tushunchasi va turlari. Normativ-huquqiy hujjatlarga qo‘yilgan talablar O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi(30.04.2023). O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni(23.09.2023). Ta’lim jarayoni ishtirokchilarining ijtimoiy ximoya qilish masalalari. Oliy ta’limni boshqarishda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining vakolatlari. Maxsus vakolatli davlat organlarining vakolatlari. Maxalliy davlat xokimiyyati organlarining vakolatlari. Ta’lim to‘g‘risidagi qonun xujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik. Ma’ruza jarayonida mavzuga doir muammoli masalalar yuzasidan savol-javoblar o‘tkaziladi, prezintatsiya qilinadi va qiyosiy tahlil qilinadi, muammoli masalalar bo‘yicha tarqatma materiallardan foydalilanadi.

Ma’ruza natijasida tinglovchi:

- ma’ruza yuzasidan yangi tegishli tushuncha, bilim, ko‘nikma va tajribaga ega bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ladi;
- ma’ruza bo‘yicha tegishli misollar va masalalar ustida ishslash, o‘z munosabatini bildirish, tegishli moddiy va protsessual qonun normalarini qo‘llay olish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi;
- o‘z javobini asoslash, tanqidiy fikrlash, opponentni eshitish ko‘nikma va qobiliyatini shakllantirishga erishiladi;
- Prezintatsiya orali tasavvur, mushohada va qiyosiy tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Mavzu bo‘yicha dars olib borish metodikasi:

- ✓ Ma’ruzani o‘tish jarayonida texnologik xaritada ko‘rsatilgan axborot-kommunikativ va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanilishi nazarda tutiladi;
- ✓ Ma’ruza mavzusining dolzarbliji, o‘rganilganlik darjasи, bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar mazmuni haqida tushuncha beriladi;
- ✓ Mavzuga oid milliy va xalqaro normativ hujjatlar bilan tanishtiriladi va tahlil qilinadi;
- ✓ Reja asosida slaydlar yordamida Oliy ta’lim jarayonlarini tashkil etishning qonunchilik normalarini huquqiy tartibi tushuntiriladi;
- ✓ Qonunchilik hujjatlari o‘rganiladi va tahlil qilinadi;

- ✓ Munozarali (nazariy) savollar o'rta ga tashlanadi va ularga baho beriladi;
- ✓ Muammoli masalalar tarqatiladi va ularning yechimi eshitiladi;
- ✓ Zaruriyat tug'ilganda, masala va savollar uyga topshiriq sifatida beriladi;
- ✓ Asosiy tushunchalar, savol-javoblar umumlashtirilib, ma'ruzaga yakun yasaladi.

Tayanch tushunchalar:

➤ **Oliy ta'limgan Oliy ta'limgan** bakalavriat ta'limgan yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi.

➤ **Oliy ta'limgandan keyingi ta'limgani oliy ta'limgan** va ilmiy tashkilotlarda olish mumkin.

➤ **Bakalavriat oliy ta'limgan** yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan, o'qish davomiyligi kamida uch yil bo'lgan tayanch oliy ta'limgandir.

➤ **Boshlang'ich ta'limgan umumiyoq o'rta ta'limgan** olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgandir. Maktabning birinchi sinfiga bolalar olti-yetti yoshidan qabul qilinadi.

➤ **Davlat akkreditatsiyasi** - davlat ta'limgan muassasalari va tashkilotlari, shuningdek nodavlat ta'limgan tashkilotlari (bundan buyon matnda ta'limgan tashkilotlari deb yuritiladi) faoliyatining davlat ta'limgan standartlari va davlat ta'limgan talablariga hamda o'quv dasturlariga muvofiqligining davlat tomonidan e'tirof etilishi hamda ularning bitiruvchilariga ma'lumot to'g'risidagi hujjatlarni topshirish huquqining taqdim etilishidan iborat jarayon.

➤ **Davlat ta'limgan muassasasi** - davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo'lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta'limgan standartlariga va davlat ta'limgan talablariga muvofiq ta'limgan beradigan muassasa.

➤ **Davlat ta'limgan standartlari** - davlat tomonidan ta'limgan mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui.

➤ **Davlat ta'limgan talablari** - ta'limgan tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta'limgan oluvchilarining jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo'yiladigan majburiy talablar.

➤ **Dual ta'limgan ta'limgan** oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, ularning nazariy qismi ta'limgan tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta'limgan oluvchining ish joyida amalga oshiriladi.

➤ **Inklyuziv ta'limgan alohida ta'limgan** ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'limgan oluvchilar uchun ta'limgan tashkilotlarida ta'limgan olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan.

➤ **Islohot** (fr. reforme, lot.-reformare, ing.reform, rus, reforma-yangilanish, yaxshilash, o'zgarish, tuzatish, qayta qurishlar, davlatning muhim ishlari idagi

o‘zgarishlar. Islohat biror sohada turli ravishda o‘tkaziladigan o‘zgartirishdir (Yuridik ensiklopediya. T., “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriri. 2001 y. 202-bet.).

➤ **Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash** kasb bilimlari va ko‘nikmalarini chuqurlashtirish hamda yangilashni ta’minlaydi.

➤ **Kodeks** (lot. “Sodex” - qonunlar to‘plami) – ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasini tartibga soluvchi, ustuvor huquq normalarini o‘zida mujassamlashtirgan va tizimlashtirilgan huquqiy akt - qonun bo‘lib, unda huquq tarmog‘ining barcha normalari mantiqan mutanosiblashtiriladi (masalan, fuqarolik kodeksi, oila kodeksi, jinoyat kodeksi va b.).

➤ **Konstitutsiya** - (lotin. concitutio - o‘rnatish, tuzilish) – moddiy ma’noda avvalo inson va fuqaro huquqlari va erkinliklarini e’lon qiluvchi va kafolatlovchi, shuningdek ijtimoiy tuzum, boshqaruv shakli va davlat tuzilishi, hokimiyat markaziy va mahalliy organlarini tashkil etish asoslarini, ularning vakolatlari va o‘zaro munosabatlarini, davlat ramzlari va poytaxtini belgilaydigan qonun hujjati, hujjatlar yoki konstitutsiyaviy odatlar majmui.

➤ **Konstitutsiyaviy qonun** – normativ-huquqiy hujjatlar tizimida o‘zining yuridik kuchi va ahamiyatiga ko‘ra konstitutsiyadan keyin turadigan qonun shakli. Konstitutsiyaviy qonunlar konstitutsiyada ko‘rsatilgan masalalar yuzasidan qabul qilinadi.

➤ **Magistratura** aniq mutaxassislik bo‘yicha bakalavriat negizida kamida ikki yil davom etadigan oliy ta’limdir.

➤ **Magistratura tegishli bakalavriat** negizidagi aniq mutaxassislik bo‘yicha o‘qish davomiyligi kamida bir yil bo‘lgan oliy ta’limdir.

➤ **Maktabgacha ta’lim** va tarbiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiyoq o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan ta’lim turidir

➤ **Malaka** - shaxsning kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma’lumot to‘g‘risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko‘nikmalar darajasi.

➤ **Modul** tarbiyalash, o‘qitishga o‘rnatilgan maqsadlar va natijalarga nisbatan muayyan mantiqiy tugallanganlikka ega bo‘lgan o‘quv fan (kursi) yoki o‘quv fanlari (kurslari) qismlarining majmuasi.

➤ **Mutaxassislik** - malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi.

➤ **Nodavlat ta’lim tashkiloti** - davlat ta’lim standartlari, davlat ta’lim talablari va o‘quv dasturlariga muvofiq ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziya asosida yoki xabardor qilish tartibida ta’lim xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxs.

➤ **Normativ-huquqiy hujjat tushunchasi**-normativ-huquqiy hujjat qonunchilikka muvofiq qabul qilingan, umummajburiy davlat ko'rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir.

➤ **Normativ-huquqiy hujjatlar tushunchasi** –qonunda belgilangan shaklda qabul qilingan, umummajburiy davlat ko'rsatmalari sifatida qonun hujjatlari normalarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjat normativ-huquqiy hujjat deb hisoblanadi.

➤ **Professional ta'lim** egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha quyidagi darajalarni o'z ichiga oladi:

➤ **Tarbiya** - aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon.

➤ **Ta'lim** - ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon.

➤ **Ta'lim kampusi** - yagona hududda birlashtirilgan o'quv binolarini, ilmiytadqiqot institutlarini (markazlarini), ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining vaqtincha yashash joylarini, laboratoriyalarni, axborot-resurs markazlarini (kutubxonalarni), sport inshootlarini, umumiyl ovqatlanish obyektlarini o'z ichiga olgan binolar hamda inshootlar majmuidan iborat bo'lgan, o'quv jarayoni, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yuqori samaradorligini ta'minlaydigan ta'lim-tarbiya muhiti.

➤ **Ta'lim tashkilotlari attestatsiyasi** - ta'lim tashkilotlarining faoliyatini baholash, davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari hamda o'quv dasturlariga muvofiq kadrlar tayyorlash mazmuni, darjasni va sifatini aniqlash bo'yicha davlat nazoratining asosiy shakli.

➤ **Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari** - ta'lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari.

➤ **Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim** umumta'lim o'quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan.

➤ **Farmoyish** vakolatli davlat organlari yoki mansabdor shaxslar tomonidan kechiktirib bo'lmaydigan va tezda bajarilishi lozim bo'lgan masalalar bo'yicha qabul qilinadigan normativ hujjat.

➤ **Farmon** O'zbekiston Respublikasi davlat boshlig'i tomonidan turmushda, hayotda, xalq xo'jaligida, iqtisodiyotda, ta'limda, ishlab chiqarishda va boshqa sohalarda juda katta o'zgarishlarga olib keladigan o'ta muhim masalalarni tartibga

solish va mustahkamlash yuzasidan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari asosida hamda ularni ijro etish uchun qabul qilinadigan normativ hujjat.

➤ **Eksternat tartibidagi ta’lim** olish o‘quv dasturlarini mustaqil ravishda o‘zlashtirishni o‘z ichiga olib, uning yakunlari bo‘yicha ta’lim oluvchilardan davlat ta’lim muassasalarida yakuniy va davlat attestatsiyalaridan o‘tishni talab etadi.

Ma’ruzaning asosiy masalalari:

Oliy ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar deganda (tushunchasi) ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida qonunchilikka muvofiq qabul qilingan, umummajburiy davlat ko‘rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o‘zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatlar yig‘indisidir.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahririni qabul qilish hamda shu orqali sohada qonuniylikni ta’minlashning eng samarali mexanizmlarini yaratish, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning qonunlarga, sotsial-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy islohotlar ehtiyojiga mos bo‘lishini ta’minlash zarurligi har tomonlama asoslab berilgan. O‘tgan davrda ana shu talablar asosida Qonun yangi tahrirda “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonuni (20.04.2021) qabul qilingan.

Ushbu Qonunning mazmun-mohiyatini, unga kiritilgan o‘zgartish va qo‘sishmchalarni jamoatchilikka yetkazish, norma ijodkorligi faoliyatida vujudga keladigan muammolarga yechim topish, shu bo‘yicha tegishli tavsiyalar ishlab chiqish masalalari alohida axamiyatga ega. Yangi tahrirdagi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonun oldingisidan hajmi va mazmuni jihatidan ham tubdan farq qiladi. Unga nafaqat yangi moddalar kiritilgan, balki bugungi kun talablari asosida ko‘plab qoidalar bilan to‘ldirildi va boyitildi. Ayni chog‘da normativ-huquqiy hujjatlar loyihamonini ishlab chiqish jarayoniga bo‘lgan talab kuchaytirildi. Xususan, normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlashda ishlab chiquvchiga qonun hujjatlarining holatini, ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasini huquqiy jihatdan tartibga solishga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan nuqson hamda ziddiyatlarni aniqlash majburiyati yuklatilmoqda. Qonun ijodkorligi jarayonida ushbu hujjat qator normalar bilan to‘ldirildi. Normativ-huquqiy hujjat loyihasi yuzasidan xalqaro hujjatlar va chet mamlakatlar qonun hujjatlarini puxta o‘rganish orqali tahliliy hamda qiyosiy jadvallar va tegishli xalqaro tajribani O‘zbekiston Respublikasi sharoitida qo‘llash maqbulligi to‘g‘risidagi normalar shular jumlasidandir.

Normativ-huquqiy hujjatlarning turlari aniqlashtirildi. Unga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, Oliy Majlis palatalari qarorlari, Prezident farmonlari, qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarining buyruqlari, qarorlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlari normativ-huquqiy hujjatlar hisoblanadi.

Qonunda yana bir yangi jihat shundaki, unga normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlashni rejalashtirish, tayyorlash tartibi va ularni ekspertizadan o‘tkazishga bag‘ishlangan alohida bob kiritildi. Unda normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qiluvchi organlar qonun hujjatlari normalarini takomillashtirish maqsadida bunday hujjat loyihalarini tayyorlashning rejalarini ishlab chiqishi hamda tasdiqlashi mumkinligi to‘g‘risidagi qoidalar o‘z ifodasini topgan.

Umuman, normativ-huquqiy hujjatlarni uch asos – yuridik kuchi, amal qilish sohasi va ularni nashr etuvchi subyektlar bo‘yicha tasniflash maqsadga muvofiq.

Yuridik kuchi bo‘yicha oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan qonun hujjatlari hamda – qonunlarga asoslangan va ularga zid kelmaydigan hujjatlar – qonunosti hujjatlari alohida ajratib ko‘rsatiladi. Qonunlardan tashqari, mutlaq barcha normativ hujjatlar qonunosti hujjatlari hisoblanadi.

Normativ-huquqiy hujjatlarni nashr etuvchi (qabul qiluvchi) subyektlar bo‘yicha. Ular referendum, davlat hokimiyati organlari, Prezident, boshqaruv organlari, davlat va nodavlat tashkilotlari mansabдор shaxslarining hujjatlariga bo‘linadi. Qonun hujjatlari – davlat hokimiyati va boshqaruvning yuqori organlari tomonidan nashr etilgan normativ-huquqiy hujjatlar yig‘indisi, to‘plamidir.

Shu o‘rinda ko‘pincha istisnosiz barcha normativ hujjatlar, shu jumladan, idoraviy hamda hokimiyat mahalliy organlari hujjatlarini ham qonun hujjatlariga aloqador deb hisoblashlarini qayd etib o‘tish joiz.

“Qonun” so‘zini ko‘pincha davlat majburlov kuchi bilan ta’milanadigan umummajburiy qoidani belgilash uchun qo‘llashadi.

Biroq qat’iy yuridik ma’noda qonun – alohida, faqat o‘zigagina xos bo‘lgan belgi-alomatlarga ega huquqiy hujjatdir.

Bu belgi-alomatlar nimalardan iborat?

Birinchidan, qonun davlat hokimiyati maxsus faoliyatining mahsuli sifatida yaratiladi. Shuning uchun ham qonun O‘zbekiston oliy davlat vakillik organi – Oliy Majlis hujjati hisoblanadi. Butun aholi vakillari qabul qiladigan qonunlar eng ko‘p darajada xalq manfaatlarini ifodalashi bois birlamchi mohiyatga ega hujjatlar bo‘lib, qonunlarning butun tizimi uchun asos ekanligi shundan kelib chiqadi.

Ikkinchidan, qonunlar eng muhim ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Qonunlar va eng avvalo, Konstitutsiya vositasida konstitutsiyaviy tuzum asoslari, fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari, davlat tuzilishi, davlat hokimiyati hamda boshqaruv funksiyalari va hokazolar mustahkamlanadi. Ta’lim va ijtimoiy hayotning boshqa muhim yo‘nalishlari qonunlar bilan belgilanadi. Hozirgi vaqtida

respublikamizda qonunning roli ortib bormoqda. “Ulug‘ bobokalonimiz Amir Temur “Qayerda qonun hukmronlik qilsa, shu yerda erkinlik bo‘ladi” degan so‘zlarni tarix sahifalariga zarhal harflar bilan yozdirgan edi”.

Uchinchidan, qonunlar – maxsus tartibda qabul qilingan hujjatlar bo‘lib, oliy yuridik kuchga ega. Qonunlarni qabul qilish tartibi Konstitutsiya va oliy vakillik organlari reglamentlari bilan belgilanadi.

Qonunlarning oliy yuridik kuchi davlatdagi boshqa barcha normativ hujjatlar qonunlar asosida, ularga muvofiq ravishda chiqarilishi va bu qonunlarga zid kelishi mumkin emasligida ifodalanadi. Qonun – maxsus tartib asosida qonun chiqaruvchi hokimiyat organi tomonidan qabul qilinadigan, eng muhim ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan hamda oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatdir.

O‘zbekiston Respublikasida qabul qilinayotgan qonunlarni quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

Ahamiyati va yuridik kuchi bo‘yicha – konstitutsiyaviy, joriy va oddiy qonunlar turlari farqlanadi. Konstitutsiyaviy qonunlar davlat va jamiyat qurilishining tub asoslarini, shaxs va tashkilotlarning huquqiy maqomini belgilab beradi. Bular, shuningdek, amaldagi Konstitutsiyaga o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kirituvchi qonunlardir. Konstitutsiyaviy qonunlar asosida normativ-huquqiy hujjatlar butun tizimi tarkib topadi va aniqlashtiriladi. Konstitutsiya boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, shu jumladan, qonunlarga nisbatan oliy yuridik kuchga ega.

Boshqa barcha qonunlar – oddiy qonunlar bo‘lib, ular deputatlarning ko‘pchiligi ovoz bergen taqdirda, qabul qilingan hisoblanadi.

Qonunlar yana tartibga solish ko‘lami va obyekti bo‘yicha ham farqlanadi. Umumiy qonunlar (masalan, kodekslar) ijtimoiy munosabatlarning butun bir sohasiga bag‘ishlanadi. Maxsus qonunlar (masalan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun) ijtimoiy munosabatlarning ancha tor doirasini tartibga solishga xizmat qiladi.

Normativ-huquqiy hujjatning amal qilishi – undan ko‘zda tutilgan yuridik oqibatlar natijasidir. Normativ-huquqiy hujjatning amal qilishi, ya’ni uning «umri» uch mezon bilan - zamon, makon va shaxslar doirasi bilan belgilanadi.

1) A. Normativ-huquqiy hujjatning zamonda amal qilishi. U normativ-huquqiy hujjatning kuchga kirgan vaqtidan to o‘z kuchini yo‘qotguncha bo‘lgan vaqt mobaynida davom etadi.

2) Normativ-huquqiy hujjat kuchga kirishining (amalga kiritilishining) quyidagi tartibi mavjud:

3) hujjatning kuchga kirish vaqtি ko‘pincha unga tegishli hujjatda – kuchga kiritish haqidagi qarorda ko‘rsatiladi;

4) normativ-huquqiy hujjat e’lon qilingan kunidan kuchga kiradi;

5) normativ-huquqiy hujjat bosqichma-bosqich kuchga kiritiladi. Bunda mazkur bosqichlar yo muddatlar bilan yoki muayyan sharoitlarning yuzaga kelishi bilan bogʼliq boʼladi;

6) normativ-huquqiy hujjat qabul qilingan vaqtidan boshlab kuchga kiradi, bu haqda shu hujjatning oʼzida, shuningdek, uni kuchga kiritish haqidagi qarorda aytilishi mumkin;

7) normativ-huquqiy hujjat imzolangan vaqtidan boshlab kuchga kiradi, bu haqda shu hujjatning oʼzida aytilgan boʼladi. Mazkur tartib Prezident, Vazirlar Mahkamasi hujjatlari uchun xosdir. Masalan, Respublikamiz Prezidentining koʼpchilik farmonlari “Ushbu Farmon imzo qoʼyilgan vaqtidan boshlab kuchga kiradi”, degan band bilan yakunlanadi.

Normativ-huquqiy hujjat quyidagi tartibda oʼz kuchini yoʼqotadi: qabul qilingan muddati tugashi bilan; nazarda tutib qabul qilingan sharoit oʼzgarganda (masalan, yangi tahrirdagi Konstitutsiya 2023 yili (30 aprel) qabul qilinishi bilan eski tahrirdagi Oʼzbekiston Konstitutsiyasi oʼz kuchini yoʼqotdi); ushbu hujjatning boshqa bir hujjat bilan bekor qilinishi natijasida.

B. Normativ-huquqiy hujjatning makonda amal qilishi. Davlat suverenitetiga muvofiq, normativ-huquqiy hujjatlari, mamlakatimiz havo boʼshligʼini ham qoʼshib hisoblaganda, uning butun hududida amal qiladi. Umuman, dengiz, daryo, havo va kosmik kemalar (stansiyalar) davlat hududiga tenglashtiriladi.

V. Normativ-huquqiy hujjatlarning shaxslar (shaxslar doirasi) boʼyicha amal qilishi. Oʼzbekiston Respublikasining umumiyligi xususiyatga ega normativ-huquqiy hujjatlari respublikamizda istiqomat qiluvchi barcha shaxslar – davlatimiz fuqarolari, muhajirlar va fuqaroligi boʼlgan shaxslarga daxldordir.

Maxsus normativ-huquqiy hujjatlari faqat muayyan fuqarolarga nisbatangina amal qiladi. Masalan, harbiy qonunlar faqat harbiy xizmatchilargagina tegishlidir.

Ayni paytda davlatimiz normativ-huquqiy hujjatlari chet ellardagi fuqarolarimiz uchun ham amal qiladi. Chunonchi, chet elda jinoyat sodir qilgan Oʼzbekiston fuqarosi bizning qonunlarimiz boʼyicha javob beradi. Bu tamoyil fuqaro hozir boʼlgan mamlakat qonunlari oldida uning masʼuliyatini istisno etmaydi, albatta.

Diplomatik daxlsizlik huquqiga ega boʼlgan shaxslar Oʼzbekiston normativ-huquqiy hujjatlari amal qilish doirasiga kirmaydilar (va shunga binoan yuridik javobgarlikka ham tortilmaydilar). Bular – vakolatxonalar rahbarlari va vakolatxona diplomatik jamoasi aʼzolari, xalqaro muzokaralar, uchrashuvlar va anjumanlar delegatsiyalari rahbarlari va aʼzolaridir.

Bunday shaxslarning huquqiy maqomlari xalqaro huquq normalari bilan belgilanadi.

Ushbu Qonunning asosiy vazifalari normativ-huquqiy hujjatlar tushunchasini, turlarini, oʼzaro nisbatini aniqlashdan, normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash

tartibiga va ularning mazmuniga qo‘yiladigan asosiy talablarni belgilashdan, shuningdek ularning ijrosi tashkil etilishini ta’minlashdan iborat.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar insonning sha’ni, qadr-qimmati, huquq va erkinliklari bundan buyon barcha sohalarda ustuvor ahamiyat kasb etishini qat’iy qoidaga aylantirish, bir so‘z bilan aytganda, “**Inson qadri uchun**” g‘oyasini hamda bugungi islohotlarning bosh tamoyili bo‘lgan “**Inson – jamiyat – davlat**” degan yondashuvni yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasining mazmun-mohiyatiga chuqur singdirilgan. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Konstitutsiyaviy komissiya a’zolari bilan uchrashuvdagi nutqida “Bosh maqsadimiz – har bir yurtdoshimiz ushbu hujjatni mening Konstitutsiyam deb faxrlanadigan mukammal darajaga olib chiqishdir”, deb ta’kidlagan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Yangi tahriri, O‘zR 30.04.2023 y. referendumda qabul qilingan, O‘zR 01.05.2023 y. O‘RQ-837-son Konstitutsiyaviy Qonuniga muvofiq tasdiqlangan)ning 44, 50, 51, 57, 77, 79, 115-moddalarida ta’limga oid normalar belgilangan.

Shu ma’noda, referendumga chiqarilishidan oldin loyiha misli ko‘rilmagan hajmda **jamoatchilikning keng qatlamlari** tomonidan sinchkovlik bilan muhokamadan o‘tkazilganligi, buning natijasida **220 mingdan ortiq takliflar** kelib tushganligi, yangi tahrirdagi Konstitutsiya tom ma’noda xalq Konstitutsiyasi ekanligidan dalolat beradi.

Ijtimoiy davlat har bir inson uchun farovon turmush darjasи, xususan, sifatli ta’lim, kafolatli tibbiy xizmat, munosib mehnat sharoiti va adolatli ish haqi, pensiya va nafaqalar, ijtimoiy yordam va xizmatlar tizimi yaratilgan, uy-joyli bo‘lish sharoiti mavjud bo‘lgan, ijtimoiy tafovutlar yumshatilgan, muvozanatlashgan, **hech bir fuqaro o‘z muammolari bilan yolg‘iz qolmaydigan adolatli davlatdir**.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 20-iyunda Konstitutsiyaviy komissiya a’zolari bilan uchrashuvda “Asosiy qonunimizda “O‘zbekiston – ijtimoiy davlat” degan tamoyilni mustahkamlashni taklif etaman. Chunki “inson qadri” tushunchasi “ijtimoiy davlat” tushunchasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu g‘oyaning tub negizida ham avvalo inson qadrini ulug‘lash, insonga xizmat qilishdek oljanob maqsad mujassamdir”, deb ta’kidlagan edi.

Shu bois yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 1-moddasida “**O‘zbekiston – ijtimoiy davlat**” tamoyili mustahkamlanmoqda.

Konstitutsiyada **davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatları** билан bog‘liq normalar **3 barobarga** ko‘paytirilib, ijtimoiy davlat modelini amalga oshirish mexanizmlari belgilanmoqda.

Birinchidan, Konstitutsiyamizda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarini uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha davlatning majburiyatlari, mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorini belgilashda insonning munosib yashashini ta'minlash hisobga olinishi alohida belgilanmoqda.

Ikkinchidan, davlat fuqarolarning bandligini ta'minlash, ishsizlikdan himoya qilish, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha majburiyatlari Konstitutsiya normasi darajasida mustahkamlanmoqda.

Uchinchidan, fuqarolarning kafolatlangan tibbiy yordamga bo'lgan huquqlari belgilanmoqda va davlatning ta'limning barcha shakllariga g'amxo'rlik qilishi, inklyuziv ta'limni ta'minlashi, o'qituvchining maqomiga oid normalar mustahkamlanmoqda.

To'rtinchidan, ijtimoiy davlatning asosiy vazifasi sifatida barcha uchun teng imkoniyatlar, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga oid yangi qoidalar o'rnatilmoqda. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining ijtimoiy davlat tamoyilini amalga oshirishga qaratilgan yangi vazifa va vakolatlari belgilanmoqda. Umuman olganda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasida davlatning ijtimoiy majburiyatlari uch baravardan ortiqqa ko'paymoqda.

Ijtimoiy davlat prinsiplari **Germaniya, Fransiya, Ispaniya, Xorvatiya, Turkiya** va boshqa bir qator davlatlar konstitutsiyalarida mustahkamlangan.

O'zbekistonni ijtimoiy davlat deb belgilash – ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy xizmatlar va jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni yumshatish, ayniqsa, ijtimoiy himoyalananmagan yoki ehtiyojmand qatlamni qo'llab-quvvatlash orqali ularga munosib turmush sharoitini yaratishga xizmat qiladi.

ЎЗБЕКИСТОН – ИЖТИМОЙ ДАВЛАТ ДЕБ БЕЛГИЛАНМОҚДА



Таълимга эътибор ва кафолатлар кенгайтирилмоқда

Таълим ва илм-фанга оид нормалар қарийб **2 баробарга** ошмоқда

Давлат олийгоҳларида давлат ҳисобидан ўқиш белгиланади

Грантлар сони **2 баравар** кўпайиб, **40 мингтага** етди. Шундан, магистратура учун – **5 баравар** кўпайди

Бепул бошланғич профессионал таълим берилади

Бепул умумий ўрта таълим ва бошланғич профессионал таълим кафолатланмоқда

Инклюзив таълим Конституцияга киритилади

Ногиронлиги бор болажонларимизга ўз тенгдошлари билан бир хил таълим олиши учун барча шароитлар яратилмоқда

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning **50-moddasida fuqarolarning ta’lim olish huquqi** bilan bog‘liq quyidagi mazmundagi normalar mustahkamlanmoqda:

birinchidan, davlat maktabgacha ta’lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi, degan norma belgilanmoqda. Bunda davlat yangi bog‘chalarni qurish, mavjudlarini ta’mirlash, shu jumladan davlat, davlat-xususiy sheriklik va xususiy bog‘chalarni ko‘paytirish, yangi bog‘chalarni tashkil etishga imtiyozlar va subsidiyalar berish, pirovardida bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olishni yuz foizga yetkazish choralarini ko‘radi;

ikkinchidan, umumi o‘rta ta’limning majburiyligi belgilanmoqda. Bu degani maktab yoshidagi har qanday bola albatta maktabda o‘qishi shart hamda bunga to‘sinqinlik qilishga hech kimning, hatto ota-onalarning haqqi yo‘q. Ushbu majburiyat ta’lim oluvchiga ham, ta’lim tashkilotiga ham birdek mas’uliyat yuklaydi;

uchinchidan, maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumi o‘rta ta’lim davlat nazoratidadir, degan norma o‘rnatalmoqda. Oldin faqatgina maktab ishlari davlat nazoratida edi, endilikda esa maktabgacha ta’lim ham davlat nazoratiga o‘tkazilmoqda. Natijada bog‘cha va maktablarda bolalarning xavfsizligi va salomatligi, sanitariya-gigiyena talablariga rioya etilishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tarbiya, ta’limning yuqori sifati va mazmundorligi ta’minlanadi;

to'rtinchidan, ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi, деган insonparvar norma bilan to'ldirilmoqda. Unga ko'ra, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi. Bu shunday nuqsonlarga ega bolalarimizning yakkalanib qolmasligi, jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida shakllanishi va kamol topishi uchun juda muhim;

beshinchidan, davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, **davlat va hnodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi**, deb mustahkamlanmoqda. Bu esa maktabgacha ta'lim-tarbiyadan to'oliy ta'limgacha hamda boshqa ta'lim turlarini, shuningdek, ta'limning kunduzgi, sirtqi, kechki, masofaviy, oilada ta'lim olish, mustaqil ta'lim olish, inklyuziv ta'lim va hokazo shakllarini tashkil etish va faoliyat yuritishiga imkoniyat yaratadi.

Ta'limga oid qoidalar inson huquqlariga oid ko'plab xalqaro hujatlarda hamda **Germaniya, Portugaliya, Bolgariya, Urugvay** kabi davlatlarning konstitutsiyalarida ham belgilab qo'yilgan.

Ta'lim har qanday mamlakatda inson kapitali- ni rivojlantirish orqali barqaror taraqqiyotni ta'- minlaydigan muhim omil- dir. Shu bois yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 50-moddasida **davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'min- lash bo'yicha davlatning majburiyatini** belgilovchi norma mustahkamlanmoqda.

Ta'lim tashkilotlarini, ayniqsa, nodavlat yoki xususiy bog'cha, maktab, universitetlar va boshqa ta'lim tashkilotlarini tashkil etish, faoliyat yuritishi va rivojlanishi uchun davlatning doimiy, har tomonlama qo'llovi muhim o'rinn tutadi. Ijtimoiy davlatda davlatning asosiy funksiyalaridan biri aholining umumiy ilmiy va ma'rifiylik darajasini oshirishga qaratiladi. Bunda ta'lim tashkilotlarining yetarli bo'lishi hamda ta'lim sifati muhim ahamiyatga ega.

Shu ma'noda davlat ta'lim tashkilotlarini rivojlanishi uchun qanchalik sharoit yaratса, nodavlat ta'lim tashkilotlarini ham tashkil etish va faoliyat yuritishi uchun undan kam bo'limgan tashkiliy, huquqiy sharoitlarni yaratish, moddiy ko'mak ko'rsatishi shart. Shu bois xususiy ta'lim tashkilotlariga keng imtiyoz va preferensiyalar taqdim etilib, ushbu soha rivojlantirilmoqda.

Buni quyidagilarda ko'rish mumkin: 2016 yilda **5211** ta maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyat yuritgan bo'lsa, bugungi kunda **6598** ta davlat hamda **22 mingdan ziyor** turli shakllardagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda.

2016 yilda **9719** ta umumta’lim tashkilotlari faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, hozirda ularning soni **10296 taga** yetdi. 2016 yilda **21** ta nodavlat umumta’lim tashkilotlari faoliyat yuritgan bo‘lsa, 2022 yilda ular **334 taga** ko‘paydi.

2016 yilda **77 ta** oliy ta’lim tashkiloti faoliyat yuritgan bo‘lsa, 2023 yilga kelib ularning soni **210 dan** oshdi. Nodavlat ta’limni rivojlantirishga oid qoidalar **Finlyandiya, Vengriya, Koreya Respublikasi** kabi davlatlarning konstitutsiyalarida ham belgilab qo‘yilgan.

Ushbu yangi norma davlat tomonidan nafaqat davlat, shu bilan birga, nodavlat bog‘chalar, maktablar, oliy ta’lim tashkilotlarini tashkil etish, faoliyat yuritishiga sharoit yaratish va kafolatlash kabi vazifalarni amalga oshirishni ta’minlaydi. Muhimi, bolalarni bog‘chalar bilan qamrov darajasi oshadi, xususiy maktab va universitetlar ko‘payishi orqali raqobat muhiti vujudga keladi, pirovardida ta’lim olish imkoniyati kengayib, uning sifatini oshirishga erishiladi.

Yangi O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi tubdan isloh etilmoqda. Jumladan, xususiy oliy o‘quv yurtlari ochilmoqda, xorijiy universitetlar filiallari soni ortmoqda, olis hududlarda ham universitet filiallari tashkil etilmoqda, **41 ta davlat oliy o‘quv yurtlariga** akademik va moliyaviy mustaqillik berildi.

Shuningdek, oliygochlarga qabul so‘nggi olti yilda **5 baravarga** ortib, talabalar soni 1 millionga yetdi. Qamrov esa **9 foizdan 38 foizga** oshdi. Misol uchun, 2016 yilda O‘zbekistonda **77 ta** oliygoh bo‘lgan bo‘lsa, hozirda ularning soni **210 tani** tashkil qilmoqda. Oxirgi olti yilda **grantlar** soni **2 baravar** ko‘payib, **40 mingtaga** yetdi. Shundan, magistratura uchun – **5 baravar** ko‘paydi. Oliy ta’lim tizimi xalqaro standartlar asosida faoliyat yuritishi – uni ma’muriy boshqarishdan tortib o‘quv-uslubiy va ilmiy-tadqiqot jarayonini tashkil etishda akademik erkinlikka ega bo‘lishini taqozo etadi. Shu munosabat bilan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasining 51-moddasida “**Oliy ta’lim tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o‘zini o‘zi boshqarish, tadqiqotlar o‘tkazish va o‘qitish erkinligi huquqiga ega**”, degan qoida belgilanmoqda.

Ta’kidlash lozimki, **O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida** ham oliy ta’lim muassasalarining **akademik va moliyaviy mustaqilligini ta’minlash** oliy ta’limdagi asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Akademik erkinlik – o‘z fikrini erkin bildirish huquqining tarkibiy qismi bo‘lib, oliy ta’lim tashkilotlarida ta’lim berish va ilmiy-tadqiqot o‘tkazish erkinligidir.

Ushbu erkinlik o‘quv jarayonini mustaqil shakllantirish, professor-o‘qituvchilarni dars o‘tish erkinligida, ilmiy-tadqiqot mavzularini mustaqil tanlash va tadqiq etish, uning natijalarini nashr etish va tarqatish, professor-o‘qituvchilar va ilmiy xodimlar akademik erkinligining cheklanmasligida va boshqalarda namoyon bo‘ladi. **O‘zini o‘zi boshqarish – bu oliy ta’lim tashkilotlarida o‘quv jarayonini tashkil etish va ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish, tashkiliy-boshqaruv, moliyaviy va faoliyati bilan bog‘liq boshqa masalalar bo‘yicha qaror qabul qilishdagi mustaqilligi va javobgarligini anglatadi.** Konstitutsiyamizga ushbu normaning kiritilishi oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot faoliyatining rivojlanishiga, professor-o‘qituvchilar va talabalarning o‘quv va ilmiy faoliyati mustaqilligini ta’minlashga, ushbu sohaga tashqi aralashuvni cheklashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining 23.09.2020 y. O‘RQ-637-son "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni (Qonunchilik palatasi tomonidan 19.05.2020 y. qabul qilingan, Senat tomonidan 07.08.2020 y. ma’qullangan).

Ta’lim to‘g‘risidagi Qonunning maqsadi, ta’lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- 1) ta’lim ustuvorligining tan olinishi;
- 2) ta’lim olish shaklini tanlash erkinligi;
- 3) ta’lim sohasida kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi;
- 4) ta’lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta’milanishi;
- 5) ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi;
- 6) ta’lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;
- 7) ta’limning uzlucksizligi va izchilligi;
- 8) o‘n bir yillik ta’limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni bir yil davomida umumiyl o‘rtta ta’limga tayyorlashning majburiyligi;
- 9) davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- 10) o‘quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqlashtirilganligi;
- 11) insonning butun hayoti davomida ta’lim olishi;
- 12) jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;
- 13) ta’lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;
- 14) bilimlilik, qobiliyatlilik va iste’dodning rag‘batlantirilishi;
- 15) ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg‘unligi;
- 16) ta’lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.

Bilim olish huquqi:

Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi.

Ta'lim olish huquqi:

ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish;

ta'lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va o'quv dasturlarini innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda amalga oshirish;

ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi) va ajralmagan holda (sirtqi, kechki, masofaviy) ta'lim olishni tashkil etish;

kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

umumiyl o'rta, o'rta maxsus ta'limni va boshlang'ich professional ta'limni bepul olish;

oilada yoki mustaqil o'qish orqali ta'lim olgan fuqarolarga, shuningdek umumiyl o'rta ta'lim olmagan shaxslarga akkreditatsiyadan o'tgan davlat ta'lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o'tish huquqini berish orqali ta'minlanadi.

Chet ellik fuqarolar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga va qonunchiligiga muvofiq O'zbekiston Respublikasida ta'lim olishga haqlidir.

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashayotgan fuqaroligi bo'limgan shaxslar ta'lim olish uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega.

Ta'lim tizimi:

davlat ta'lim standartlarini, davlat ta'lim talablarini, o'quv rejali va o'quv dasturlarini;

davlat ta'lim standartlarini, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlarini amalga oshiruvchi ta'lim tashkilotlarini;

ta'lim sifatini baholashni amalga oshiruvchi tashkilotlarni;

ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalarni;

ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlarini, shuningdek ularning tasarrufidagi tashkilotlarni o'z ichiga oladi.

Ta'lim tizimi yagona va uzlucksizdir.

Ta'lim turlari quyidagilardan iborat:

- 1) maktabgacha ta'lim va tarbiya;
- 2) umumiyl o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
- 3) professional ta'lim;
- 4) oliy ta'lim;
- 5) oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- 6) kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- 7) mактабдан ташқари та'lim.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiyani tashkil etish tartibi ushbu Qonun, shuningdek "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilanadi.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim o'quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko'nikmalarini o'zlashtirishga qaratilgan.

Umumiy o'rta ta'lim (I-XI sinflar) bosqichlari quyidagilardan iborat:

boshlang'ich ta'lim (I-IV sinflar);

tayanch o'rta ta'lim (V-IX sinflar);

o'rta ta'lim (X-XI sinflar).

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi.

Boshlang'ich ta'lim ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

Tayanch o'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilarga bilim, malaka va ko'nikmalarning zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tayanch o'rta ta'lim doirasida (VII sinfdan so'ng) ta'lim oluvchilarda kasblar bo'yicha birlamchi bilim va ko'nikmalarini shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha choralar amalga oshiriladi.

O'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalar o'zlashtirilishini, shuningdek ta'limning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini ta'minlaydi.

Professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish, shuningdek ta'lim oluvchilarni yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblarga tayyorlash tartibi qonunchilikda belgilanadi.

Umumiy o'rta ta'lim umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida uzluksiz tarzda, majburiy bo'lgan o'n bir yil davomida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqlashtirilgan, kasbxunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim to'lov-shartnoma asosida amalga oshirilishi mumkin.

Iqtidorli va iste'dodli bolalarning qobiliyatini rivojlantirish uchun Prezident, ijod va boshqa ixtisoslashtirilgan maktablar, shuningdek mакtab-internatlar tashkil etilishi mumkin.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta'lim oladi.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining sinflarida (guruhlarida) ta'lim oluvchilar soni o'ttiz besh nafardan oshmasligi kerak.

Professional ta'lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha quyidagi darajalarni o'z ichiga oladi:

- boshlang'ich professional ta'lim;
- o'rta professional ta'lim;
- o'rta maxsus professional ta'lim.

Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

Ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (to'qqiz yillik umumiy o'rta va uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi) olgan fuqarolar ham o'rta professional va o'rta maxsus professional ta'lim olish huquqiga ega.

Kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlar ta'lim oluvchilarning o'zi tanlagan kasbga va mutaxassislikka ega bo'lishini ta'minlaydi.

Fuqarolar shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi professional ta'limni olish huquqiga ega.

Oliy ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi.

Oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlash oliy ta'lim tashkilotlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar, oliy maktablar) amalga oshiriladi. Umumiy o'rta (o'n bir yillik ta'lim), o'rta maxsus (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik o'rta maxsus

ta'limgan, boshlang'ich professional ta'limgan (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik boshlang'ich professional ta'limgan) olgan shaxslar, shuningdek ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (to'qqiz yillik umumiy o'rta va uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi) olgan shaxslar oliy ma'lumot olish huquqiga ega.

Oliy ta'limgan ikki bosqichga - bakalavriat va magistratura bosqichiga ega.

Bakalavriat oliy ta'limgan yo'nalişlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan, o'qish davomiyligi kamida uch yil bo'lgan tayanch oliy ta'lmdir.

Magistratura tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo'yicha o'qish davomiyligi kamida bir yil bo'lgan oliy ta'lmdir.

Magistratura mutaxassisliklarining va ularga muvofiq bo'lgan bakalavriat ta'limgan yo'nalişlarining ro'yxati ta'limgan sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi.

Fuqarolar shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni olish huquqiga ega.

Oliy ta'limgandan keyingi ta'limgani oliy ta'limgan va ilmiy tashkilotlarda olish mumkin.

Oliy ta'limgandan keyingi ta'limgan doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi.

Tayanch doktorantura falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limgandan keyingi ta'limgan shakli hisoblanadi.

Doktorantura fan doktori (Doctor of Science (DSc) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limgandan keyingi ta'limgan shakli hisoblanadi.

Mustaqil izlanuvchilik falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) yoki fan doktori (Doctor of Science (DSc) ilmiy darajalariga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralmagan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limgandan keyingi ta'limgan shakli hisoblanadi.

Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, ilmiy darajalar va ilmiy unvonlar berish tartibi, shuningdek harbiy, tibbiyot va boshqa ta'limgan tashkilotlarida oliy ta'limgandan keyingi ta'limgan olish xususiyatlari qonunchilikda belgilanadi.

Oliy ta'limdan keyingi ta'limning davom etish muddati qonunchilikda belgilanadi.

Kadrlarni qayta tayyorlash tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun qo'shimcha kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning zarur hajmi egallanishini ta'minlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta'minlaydi, kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishiga xizmat qiladi.

Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish shakllari va muddatlari tegishli davlat ta'lim talablari bilan belgilanadi.

Bolalarning ehtiyojlarini qanoatlantirish, bo'sh vaqt va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek tijorat tashkilotlari madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport yo'nalishidagi maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarini tashkil etishi mumkin.

Maktabdan tashqari ta'lim bolalarga uzluksiz ta'lim berishning tarkibiy qismi sifatida ularning iste'dodi va qobiliyatini rivojlantirishga, ma'naviy ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan.

Maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari jumlasiga bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, "Barkamol avlod" bolalar maktablari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, bolalar musiqa va san'at maktablari, studiyalar, axborot-kutubxona hamda sog'lomlashtirish muassasalari kiradi.

Maktabdan tashqari ta'lim berish tartibi ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi.

Tinglovchilining tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar (Uyga vazifa)

1. Oliy ta'limning normativ-huquqiy hujjatlari va ularning mazmun-mohiyatini bilish;
2. Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti, kadrlar tayyorlash tegishli ta'lim yo'nalishi bo'yicha davlat ta'lim standarti, shuningdek, o'qitilayotgan fan bo'yicha o'quv rejalarini va fan dasturlari mazmuni, ahamiyatini tushunish;
3. Oliy ta'lim pedagog kadrlarining kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan malaka talablarini bilish;
4. Oliy ta'limning normativ-huquqiy hujjatlarini tahlil qilish va tegishli xulosalarini shakllantirish;
5. Normativ-huquqiy hujjatlar asosida pedagogik faoliyat va o'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil eta olish;

MUSTAQIL TAYYORLANISH UCHUN MASALAR:

1-masala

Oliy ta'lim jarayonlarini tashkil etishning qonunchilik normalari o'z faoliyat sohangizdan kelib chiqqan holda tizimli tahlil qiling?

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuniyem tahlil qiling(yangi va eski tahriri)?

No	Asosiy yutuqlar nimalardan iborat?	Mavjud muammolar?	Muammolarni bartaraf etish mexanizmi?
1.			
2.			

2-masala

Toshkent shahrida joylashgan OTMlardan birida 2021-2022 o‘quv yilining birinchi semestri bo‘yicha yakuniy nazorat sinovlarining o‘tkazilishi o‘quv jarayoni grafigiga asosan 2021 yilning 19 yanvaridan 31 yanvarigacha belgilangan edi?

Ammo OTM ma’muriyatining buyrug‘i bilan yakuniy nazorat sinovlarini o‘tkazish muddati bir xafta oldinga surildi, ya’ni, 2021 yilning 19 yanvaridan 25 yanvarigacha deb o‘zgartirildi. Barcha kurslarda yakuniy nazoratlar fan bo‘yicha oxirgi darsda yozma o‘tkazildi va professor-o‘qituvchilar tomonidan 2021 yilning 24 yanvar kunigacha tekshirilib yakuniy qaydnomaga va talabalarning sinov daftarchalariga rasmiylashtirib berildi.

OTMdak 2021 yilning 26 yanvaridan boshlab o‘quv yilining ikkinchi semestri bo‘yicha o‘quv jarayoni boshlandi.

Akademik qarzdor talabalarga esa 2021 yilning 26 yanvaridan 31 yanvarigacha qayta o‘zlashtirish va topshirish uchun OTM rektorining buyrug‘i bilan muddat berildi. Ushbu buyruqda OTM professor-o‘qituvchilariga 2021 yilning 26 yanvaridan 31 yanvarigacha akadem qarzdor talabalardan joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarni qayta olish va tegishli xujjatlarga rasmiylashtirish majburiyati belgilab qo‘yildi.

OTM rektorining buyrug‘i bilan 2021 yilning 31 yanvarigacha akadem qarzlarni o‘zlashtirgan barcha talabalarga o‘rnatilgan tartibda stipendiyalar rasmiylashtirildi.

Ushbu yuqorida ko‘rsatilgan masalani tahlil qiling?

2-MA’RUZA MAVZUSI: OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGINING BUYRUQLARINING UMUMIY TAVSIFI

MA’RUZANING NATIJALARI:

Ma’ruzaning asosiy maqsadi:

“Oliy ta’limning normativ huquqiy asoslari hamda tizimda korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish” modulining 2-mavzusini yoritishga mo‘ljallangan rejadagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiya

vazirligining ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga oid buyruqlari. Davlat ta’lim standartlari, ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o‘quv rejalar, fan dasturlari va ularga qo‘yiladigan talablar. O‘quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullari. OTMlarning lokal xujjatlari (Ustav, Ichki tartib qoidalar) masalalar bo‘yicha tarqatma materiallardan foydalaniadi.

Ma’ruza natijasida tinglovchi:

- ma’ruza yuzasidan yangi tegishli tushuncha, bilim, ko‘nikma va tajribaga ega bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ladi;
- ma’ruza bo‘yicha tegishli misollar va masalalar ustida ishlash, o‘z munosabatini bildirish, tegishli moddiy va protsessual qonun normalarini qo‘llay olish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi;
- o‘z javobini asoslash, tanqidiy fikrlash, opponentni eshitish ko‘nikma va qobiliyatini shakllantirishga erishiladi;
- Prezintatsiya orali tasavvur, mushohada va qiyosiy tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

✓ MAVZU BO‘YICHA DARS OLIB BORISH METODIKASI:

- ✓ Ma’ruzani o‘tish jarayonida texnologik xaritada ko‘rsatilgan axborot-kommunikativ va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalaniishi nazarda tutiladi;
- ✓ Ma’ruza mavzusining dolzarbliji, o‘rganilganlik darajasi, bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar mazmuni haqida tushuncha beriladi;
- ✓ Mavzuga oid milliy va xalqaro normativ hujjatlar bilan tanishtiriladi va tahlil qilinadi;
- ✓ Reja asosida slaydlar yordamida Oliy t’lim jarayonlarini tashkil etishning qonunchilik normalarini huquqiy tartibi tushuntiriladi;
- ✓ Qonunchilik hujjatlari o‘rganiladi va tahlil qilinadi;
- ✓ Munozarali (nazariy) savollar o‘rtaga tashlanadi va ularga baho beriladi;
- ✓ Muammoli masalalar tarqatiladi va ularning yechimi eshitiladi;
- ✓ Zaruriyat tug‘ilganda, masala va savollar uyga topshiriq sifatida beriladi;
- ✓ Asosiy tushunchalar, savol-javoblar umumlashtirilib, ma’ruzaga yakun yasaladi.

Tayanch tushunchalar:

- **Oliy ta’lim** Oliy ta’lim bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta’minlaydi.

- **Davlat ta'lim standartlari** - davlat tomonidan ta'limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui.
- **Tashkilot** - professional ta'lim muassasasi bilan dual ta'lim asosida kadrlar tayyorlash bo'yicha shartnoma tuzgan yuridik shaxs.
- **Dual ta'lim dasturi** - professional ta'lim muassasasi va tashkilotda ta'lim oluvchining muayyan kasb yoki mutaxassislik bo'yicha kasbiy faoliyatini va mehnat vazifalarini bajarishiga qaratilgan davlat ta'lim standarti, o'quv rejasi, o'quv dastur (modul)lari, o'quv va ishlab chiqarish amaliyoti dasturlaridan iborat hujjatlar to'plami.
- **Ish joyi** - dual ta'limda ta'lim oluvchiga tashkilotning ichki tartib-qoidalari, tegishli vazifalari hamda ta'lim dasturlariga muvofiq amaliy ko'nikma va malakalarini egallash uchun belgilangan ish o'rni.
- **O'quv-amaliy qism** - dual ta'lim dasturiga muvofiq professional ta'lim muassasasida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar va o'quv amaliyoti.
- **Ustoz** - ta'lim jarayonining ishlab chiqarish bilan bog'liq amaliy qismini o'tkazish uchun tashkilot tomonidan o'quvchi(lar)ga biriktirilgan mas'ul shaxs.
- **Shartnoma** - tashkilot va professional ta'lim muassasasi hamda tashkilot va o'quvchi o'rtasida dual ta'limni amalga oshirish uchun tuzilgan hujjat.
- **Inklyuziv ta'lim** - alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlagan holda beriladigan ta'lim.
- **Masofaviy ta'limni boshqarish tizimi** - ta'lim jarayonini rejalashtirish, boshqarish, amalga oshirish va baholashda qo'llaniladigan dasturiy mahsulot (elektron ta'lim platformasi).
- **Masofaviy ta'lim jarayonining ishtirokchilari** - ta'lim tashkilotining masofaviy ta'lim shakliga qabul qilingan talabalar, professor-o'qituvchilar hamda masofaviy ta'limning tashkiliy-texnik va metodik ta'minotini amalga oshirishga mas'ul shaxslar.
- **Masofaviy ta'lim texnologiyasi** - talabalarga o'quv materiallarining asosiy hajmini yetkazishni, talaba va professor-o'qituvchining o'zaro interfaol harakatini ta'minlab beruvchi, o'quv materialini o'zlashtirish bo'yicha mustaqil ishlashi uchun talabaga imkoniyat taqdim etuvchi axborot-kommunikatsiya va o'qitish texnologiyalari.
- **O'quv kontenti** - o'quv jarayonida talabalarning foydalanishi uchun mo'ljallangan, masofaviy ta'limni boshqarish axborot tizimiga joylashtirilgan o'quv metodik materiallar (o'quv rejali, o'quv dasturlari, ma'ruza matnlari, videodarslar, taqdimotlar, topshiriqlar, imtihon materiallari, o'quv adabiyotlari).
- **O'quvchilar** - inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda tahsil olayotgan sog'lom yoki alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar.

➤ **Davlat ta'limgan talablari** - ta'limgan tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta'limgan oluvchilarining jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo'yiladigan majburiy talablar.

➤ **Modul tarbiyalash**, o'qitishga o'rnatilgan maqsadlar va natijalarga nisbatan muayyan mantiqiy tugallanganlikka ega bo'lgan o'quv fan (kursi) yoki o'quv fanlari (kurslari) qismlarining majmuasi.

➤ **Mutaxassislik** - malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorlarlik turining nomi.

➤ **Professional ta'limgan** egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha quyidagi darajalarni o'z ichiga oladi:

➤ **Ta'limgan kampusi** - yagona hududda birlashtirilgan o'quv binolarini, ilmiy-tadqiqot institutlarini (markazlarini), ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni, ta'limgan-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining vaqtincha yashash joylarini, laboratoriyalarni, axborot-resurs markazlarini (kutubxonalarini), sport inshootlarini, umumiy ovqatlanish obyektlarini o'z ichiga olgan binolar hamda inshootlar majmuidan iborat bo'lgan, o'quv jarayoni, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yuqori samaradorligini ta'minlaydigan ta'limgan-tarbiya muhiti.

Ma'ruzaning asosiy masalalari:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limgan tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi (**2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoniga**) oliy ta'limgan tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'limgan va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'limgan sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagagi PQ-4391-son "Oliy va o'rta maxsus ta'limgan tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan.

Mamlakatimiz oxirgi yillarda bu borada katta tajriba to'pladi – ta'limgan tizimi tubdan o'zgarmoqda. O'tgan olti yilda maktabgacha ta'limgan qamrov 21 foizdan 70 foizga, oliy ta'limgan esa 9 foizdan 38 foizga yetdi. 2030-yilga qadar har bir bolaning bog'chaga qatnashi, maktabni bitirayotgan har ikki o'quvchining biri esa oliygohda o'qishi uchun imkoniyat yaratiladi.

Oliy ta'limgan bilan qamrov va ta'limgan sifatini ta'minlash sohasida:

amaldagi malaka talablari, o'quv reja va dasturlari mazmun jihatidan bitiruvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilmagan, o'quv rejalarida nomutaxassislik fanlari ulushi yuqoriligidcha qolmoqda;

oliy ta'limgan muassasalari va kadrlar buyurtmachilari bilan o'zaro hamkorlikda kadrlar tayyorlash bo'yicha ishlar samarali yo'lga qo'yilmagan, ish beruvchilarining oliy ta'limgan mazmunini shakllantirishdagi ishtiroki yetarli emas;

talabalarda tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko‘nikmalari shakllantirilmagan;

ishlab chiqarish korxonalarida amaliy mashg‘ulotlar samarali tashkil etilmagan, tayyorlanayotgan mutaxassislar malakaviy darajasi mehnat bozorining zamonaviy talablariga yetarlicha javob bermaydi;

professor-o‘qituvchilarning xorijiy tillar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘zlashtirish darajasi pastligi sababli ularning kasbiy mahorati bugungi kun talablaridan ortda qolmoqda;

o‘quv adabiyotlari yetishmovchiligi saqlanib qolib, mavjudlarining aksariyat qismi zamon talablariga javob bermaydi, o‘quv adabiyotlari sifatini yaxshilash, xorijiy adabiyotlardan qo‘srimcha yoki muqobil o‘quv adabiyotlari sifatida foydalanish ishlari yetarli darajada tashkil etilmagan;

oliy ta’lim muassasalarida fan olimpiadalarini o‘tkazishning shaffof mexanizmlari joriy etilmagan, olimpiadalar g‘oliblari bilan ishslash tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilmagan;

iqtidorli yoshlar orasidan oliy ta’lim muassasalariga talabalarni saralab olish mexanizmlari mavjud emas;

pedagog xodimlarning malaka oshirish tizimi samarali tashkil etilmagan, jumladan malaka oshirish muassasalarida o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazish uchun yuqori malakali professor-o‘qituvchilar jalb qilinmagan, malaka oshirishga jalb etishda tinglovchilarning salohiyati inobatga olinmaydi;

oliy ta’limda ma’naviy-axloqiy mazmunni kuchaytirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma’naviy g‘oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yot g‘oya va mafkuralarga qarshi immunitetni mustahkamlash borasidagi ishlarni yanada rivojlantirish zarurati mavjud;

ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyat sohasida:

oliy ta’lim muassasalari ilmiy faoliyati hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollaridan kelib chiqib tashkil etilmagan, tahlillar asosida innovatsion rivojlanishni prognozlashtirish faoliyati yo‘lga qo‘yilmagan;

innovatsion faoliyat, tadqiqot natijalarini amaliyatga keng joriy etish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlari iqtidorli yoshlarni jalb etish natijadorligi yetarli emas, ta’lim, fan va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasi ta’minlanmagan;

oliy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyati atigi 36,4 foizni tashkil etmoqda;

ilmiy-tadqiqot ishlari ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlaridagi mavjud muammolar yechimiga qaratilmagan;

so‘nggi yillarda nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalarga iqtiboslar soni kamaymoqda;

ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanayotgan professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar va yosh olimlar faoliyatini rag‘batlantirishning ta’sirchan mexanizmlari yaratilmagan;

oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash sohasida:

talabalar turar joylari, kutubxona, o‘quv ustaxonalari, laboratoriylar, sport sog‘lomlashtirish va ijtimoiy infratuzilma obyektlari quvvatlari mavjud ehtiyojni qanoatlantirmaydi, ularning aksariyat qismida bugungi kun talablariga javob beradigan moddiy-texnik baza shakllantirilmagan;

oliy ta’lim muassasalarining zamonaviy o‘quv va ilmiy laboratoriylar bilan jihozlanish darajasi yetarli emas, xalqaro standartlarga javob beradigan o‘quv laboratoriya uskunalarining salmog‘i atigi 10 foizni tashkil etadi, shu bilan birga o‘quv jarayoni laboratoriya materiallari (reaktivlar, kimyoviy idish, butlovchi, biologik materiallar va boshqa obyektlar) bilan yetarlicha ta’milanmaydi;

oliy ta’lim muassasalari moliyaviy xarajatlarining asosiy qismi ish haqiga sarflanib, o‘quv va ilmiy laboratoriyalarni yangilashga, bino va inshootlarni ta’mirlashga yetarlicha mablag‘ yo‘naltirilmayapti;

oliy ta’limning jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda raqobatbardoshlikni ta’minalash sohasida:

respublika oliy ta’lim muassasalari xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar reytingining birinchi 1 000 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga, ularning rasmiy veb-saytlari Webometrics xalqaro reytingining 1 000 talik ro‘yxatiga kirmagan;

ta’lim dasturlari va talabalar bilimini baholash tizimi xalqaro standartlarga moslashtirilmagan;

mavjud talabalar turar joylari hamda ijtimoiy infratuzilma obyektlari xorijiy talabalar ehtiyojlariga moslashtirilmagan;

xorijiy fuqarolarni mamlakatimizda ta’lim olishga keng jalb qilish borasidagi targ‘ibot ishlari, jumladan PR-loyihalar (O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari kunlarini tashkil qilish, taqdimotlar o‘tkazish va boshqalar) yetarli darajada tashkil qilinmagan, bu borada interaktiv virtual platforma mavjud emas.

Oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari hisoblanadi:

mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish;

oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish;

sohada sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, uning jozibadorligini oshirish, jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini ta’minlash.

Uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, oliy ta’lim tizimini rivojlantirish quyidagi ustuvor yo‘nalishlar asosida amalga oshiriladi:

oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish;

ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish;

oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish;

ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlar ta’sirchanligini oshirish;

yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish;

oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta’minlash, moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash;

oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish;

korrupsiyaga qarshi kurashish, shaffoflikni ta’minlashning ta’sirchan mexanizmlarini joriy etish;

oliy ta’lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta’minlash.

Oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish bo‘yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

oliy ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalari, shuningdek investitsiyalarni jalb qilgan holda nufuzli xorijiy oliy ta’lim muassasalari filiallari faoliyatini tashkil etish orqali oliy ta’limda raqobat muhitini yaratish;

xalqaro standartlar va milliy an’analalar uyg‘unligida yuqori malakali, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, mustaqil fikrlaydigan, vatanparvar, professional kadrlarni tayyorlovchi, yetakchi ta’lim va ilm-fan markazi - Prezident universitetini tashkil etish;

oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli parametrlarini Investitsiya dasturlari, hududiy va tarmoq dasturlari, vasiylik kengashlari talablari, jahon miqyosidagi texnologik o‘zgarishlarni inobatga olgan holda shakllantirish, ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarini optimallashtirish, bunda STEAM yo‘nalishlarini (aniq fanlar, texnologiya, injiniring, ijodiy san’at va matematika) rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish;

oliy ta’lim muassasalarining quvvati, ilmiy salohiyati va boshqa asosiy ko‘rsatkichlaridan kelib chiqqan holda to‘lov-kontrakt asosidagi qabul parametrlarini

oliy ta'lim muassasasi tomonidan mustaqil belgilash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish;

davlat granti asosida kadrlar tayyorlash parametrlarini bosqichma-bosqich oliy ta'lim muassasalari o'rtaida tanlov o'tkazish yo'li bilan taqsimlash mexanizmlarini joriy etish;

xotin-qizlarning oliy ta'lim olishga bo'lgan huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish, ta'lim olishda gender tengligi tamoyillari ustuvorligini ta'minlash, mahallalar, umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida muntazam ravishda xotin-qizlarni oliy ta'limga keng jalb qilishga yo'naltirilgan keng targ'ibot ishlarini olib borish;

ta'limning uzlusizligiga erishish maqsadida umumiyo o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim dasturlarining uyg'unligi va izchilligini ta'minlash;

oliy ta'lim muassasalarining o'quv rejalarini kredit-modul tizimiga o'tkazish mexanizmlarini ishlab chiqish va ularni bosqichma-bosqich mazkur tizimga o'tkazish;

individual ta'lim trayektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan o'quv rejalar ishlab chiqish orqali talabalar qiziqishlari hamda kadrlar buyurtmachilari ehtiyojlariga muvofiq ta'lim dasturlarini shakllantirish, ularni tasdiqlash bo'yicha oliy ta'lim muassasalariga bosqichma-bosqich akademik mustaqillik berish;

mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish;

talabalar bilimini baholash tizimi texnologiyalarini takomillashtirib borish va xolisonaligini ta'minlash, jumladan baholashning talabalar bilan bevosita aloqasiz shakllarini rivojlantirib borish;

fanlarni o'zlashtirishda talabalar orasida sog'lom raqobatni rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish;

o'quv rejalarida fanlar sonini nomutaxassislik fanlari hisobiga bosqichma-bosqich kamaytirish hamda tutashlikdagi fanlarni tanlov fanlari ro'yxatiga kiritish;

gumanitar va pedagogik yo'nalishlarda kadrlar tayyorlash sifatiga e'tiborni kuchaytirish, pedagogik ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv reja va dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish, mazkur yo'nalishda tahsil olayotgan talabalarda ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish, pedagogik ta'lim infratuzilmasini yaxshilash, hududlardagi barcha umumta'lim maktablariga xorijiy

tillarni o’zlashtirgan, yuqori malakali professional pedagog kadrlarni yetkazib berish;

ilg‘or xorijiy tajribalar asosida oliy ta’lim muassasalariga yuqori malakali pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirib borish;

oliy ta’lim muassasalarida o‘quv-uslubiy faoliyat uchun mas’ul bo‘lgan mutaxassislar malakasini muntazam oshirib borish;

ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha xorijiy tillarda o‘qitiladigan mutaxassislik fanlari salmog‘ini oshirib borish;

magistratura talabalarining yuqori saviyada ilmiy izlanishlar olib borish, pedagogik faoliyat yuritish, boshqaruv, tanqidiy fikrlash va tizimli tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi uchun mazkur ta’lim bosqichi o‘quv reja va dasturlarini muntazam takomillashtirib borish;

o‘quv adabiyotlari sifatini yaxshilash, zamonaviy o‘quv adabiyotlarini yaratish tartibini soddalashtirish, eng yangi xorijiy adabiyotlarni xarid qilish va tarjima qilish ishlarini jadallashtirish, xorijiy adabiyotlardan qo‘srimcha yoki muqobil o‘quv adabiyotlari sifatida foydalanishni kengaytirish, kutubxonalar fondlarini muntazam ravishda yangilab borish;

tanlov asosida aniqlangan va o‘quv adabiyotlariga mualliflik qilayotgan professor-o‘qituvchilarning yillik o‘quv yuklamasini taqsimlash mexanizmini takomillashtirish, bunda ularning umumiyligini yuklamalarida o‘quv adabiyotlarini yaratish uchun ajratilgan vaqtini dars o‘tish yuklamasi vaqtini hisobidan oshirishni nazarda tutish;

imkoniyati cheklangan talabalarga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari turlarini ko‘paytirish va ularning sifatini yaxshilash, ta’limda inklyuziv jarayonlarni rivojlantirish, adaptiv texnologiyalarni joriy etish;

barcha oliy ta’lim muassasalarida dars mashg‘ulotlari bo‘yicha talabalar fikrini o‘rganish (feedback) hamda o‘zaro tashrif (peer review) tizimini rivojlantirish asosida talabalarga ta’lim xizmatlari ko‘rsatish sifatini yaxshilab borish;

fan sohalari bo‘yicha professor-o‘qituvchilarning kasbiy muloqot maydonchalarini yaratish, ta’lim sifatini ta’minlash jarayoniga talabalarni keng jalb etish hamda “tyutorlik” tashkiliy-metodik yordam tizimini joriy etish orqali talabalarning mustaqil ta’lim olish faoliyatini rivojlantirish;

xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, talaba-yoshlarning akademik faoliyati, muammolari va turmush tarzi, o‘quv jarayoni hamda yaratilgan sharoitlar bo‘yicha talabalar fikr-mulohazalarini o‘rganish maqsadida ular o‘rtasida har yili respublika miqyosida milliy so‘rov o‘tkazish;

oliy ta’lim muassasalari, qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o‘quv-pedagogik va ilmiy faoliyat yuritish uchun xorijlik yuqori malakali professor-o‘qituvchilar va mutaxassislar, ta’lim va ilm-fan sohasida faoliyat yuritib, salmoqli

yutuqlarga erishgan, yurt rivojiga hissa qo’shish istagida bo’lgan xorijdagi vatandoshlarni jalg etish, bu borada ularga akademik va infratuzilmaga oid qulayliklar yaratib berish;

yuqori malakali professor-o‘qituvchilar, olimlarni ta’lim jarayoniga jalg qilishning samarali mexanizmlarini yaratish, muayyan ko‘rsatkichlar asosida ularning faoliyatini baholash tizimini rivojlantirish;

oliy ta’lim muassasalarida milliy hamda xalqaro baholash tizimlari sertifikatlariga ega bo’lgan, xorijiy tillarni mukammal o‘zlashtirgan professor-o‘qituvchilar va talabalar ulushini tizimli ravishda oshirib borish;

“El-yurt umidi” jamg‘armasi ko‘magida professor-o‘qituvchilarni xorijiy mamlakatlarda malaka oshirish, stajirovka o‘tash, magistratura va doktoranturada o‘qitish orqali ularning kasbiy mahoratini oshirib borish;

ko‘p yillik mehnat stajiga ega bo’lgan amaliyotchi mutaxassislarni ta’lim jarayoniga keng jalg qilish, professor-o‘qituvchilarning tegishli soha korxona va tashkilotlarida stajirovka o‘tashini tizimli tashkil etish;

ijtimoiy soha va iqtisodiyotning barcha tarmoqlari mutaxassislari uchun uzlusiz malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimlarini joriy etishning meyoriy-huquqiy va o‘quv-metodik asoslarini takomillashtirib borish, bu borada masofaviy ta’lim imkoniyatlaridan keng foydalanish;

oliy ta’lim muassasalarida talabalarning ishdan ajralmagan holda o‘qishini ta’minalash maqsadida sirtqi va kechki ta’lim shakllarida kadrlar tayyorlashni rivojlantirish, bunda raqamli texnologiyalarga asoslangan zamonaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etish;

iqtisodiyotning zamonaviy talablariga muvofiqlikni ta’minalash maqsadida davlat ta’lim standartlarini takomillashtirib borish;

talabalarning ishlab chiqarish, malakaviy va boshqa turdagи amaliyotlarini mazmunli tashkil etish uchun uslubiy bazani ishlab chiqish va rivojlantirib borish;

respublika oliy ta’lim muassasalararo ichki akademik mobillik dasturlarini, o‘zaro tajriba almashish mexanizmlarini amaliyotga tatbiq etish;

xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik doirasida professor-o‘qituvchilar va doktorantlar akademik mobilligi dasturlarini rivojlantirish;

oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishda ichki nazorat va hisobdorlik mexanizmlarini takomillashtirish;

oliy ta’lim muassasalariga qabul jarayonlarida bitiruvchilarning attestatidagi o‘rtacha bahoni inobatga olgan holda, ta’lim yo‘nalishlariga mos bo’lgan fanlardan milliy va xalqaro baholash tizimlari sertifikatlariga ega bo’lgan abituriyentlarni oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish tajribasini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish;

milliy baholash tizimi sertifikatlari taqdim etiladigan fanlar ro‘yxatini kengaytirish, bunday xizmatlar ko‘rsatadigan davlat va nodavlat muassasalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash;

oliy ta’lim muassasalari fan olimpiadalarini o‘tkazish tartibini takomillashtirish, shaffoflikni ta’minlash, baholash mexanizmlarini xalqaro olimpiada va tanlovlardan mezonlariga moslashtirish.

Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish bo‘yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

raqamli iqtisodiyot uchun yuqori malakali muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini tashkil etish;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta’minlash, bu boroda pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo‘srimcha sharoitlar yaratish;

ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, “blended learning”, “flipped classroom” texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta’lim dasturlarini tashkil etish;

ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar, seminarlarni onlayn kuzatish va o‘zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek ularni elektron axborot saqlovchilarga yuklovchi “E-MINBAR” platformasini amaliyotga joriy etish, ta’lim jarayonlarida “bulutli texnologiyalar”dan foydalanish;

masofadan turib foydalanish imkonini beruvchi elektron kutubxona tizimini keng joriy etish, talabalarning oliy ta’lim muassasasida o‘qishni tamomlaganlaridan so‘ng kutubxona fondi, axborot bazalaridan foydalanishini yo‘lga qo‘yish orqali ularning kasbiy malakasini uzluksiz oshirib borish imkoniyatlarini kengaytirish;

milliy elektron ta’lim resurslari yaratilishini jadallashtirish, xorijiy elektron ta’lim resurslarini tarjima qilish ishlarini tashkil etish, ta’lim jarayonida elektron resurslar salmog‘ini bosqichma-bosqich oshirib borish, elektron o‘quv adabiyotlar yaratish, ularni mobil qurilmalarga yuklab olish maqsadida kutubxonalarda QR-kod yordamida elektron resurslar haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratish;

oliy ta’lim muassasasining konferensiya materiallari, bitiruv-malakaviy ishlar, magistrlik va doktorlik dissertatsiyalaridan iborat ilmiy-texnik ma’lumotlar elektron bazasini yaratish, kelgusidagi ilmiy-texnik ma’lumotlar yangiligini ta’minlash maqsadida antiplagiat tizimidan foydalanishni keng joriy etish;

ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarining o‘ziga xosligidan kelib chiqib, ta’lim jarayonida xalqaro miqyosda keng qo‘llaniladigan zamonaviy dasturiy mahsulotlardan foydalanishni rivojlantirish;

oliy ta’lim muassasalaridan olinadigan turli hisobot va ma’lumotlar sonini keskin kamaytirish, ularni tayyorlashning qog’oz shaklidan voz kechish, boshqaruv tizimi va o‘quv jarayonlari, kutubxona va hujjatlar aylanmasini elektronlashtirishni ta’minlovchi “Elektron universitet” platformasiga bosqichma-bosqich o’tish, ta’lim jarayoni ishtirokchilari faoliyati samaradorligini monitoring qilishning elektron tizimini joriy etish;

oliy ta’lim muassasalari pedagog xodimlari, bakalavriat, magistratura talabalari va doktorantlariga oid ma’lumotlarni o‘zida aks ettiruvchi va muntazam yangilanib boruvchi elektron baza (Student Record System) yuritilishini yo‘lga qo‘yish asosida uning milliy tizimini yaratish;

xalqaro moliya tashkilotlari ko‘magida oliy ta’lim sohasidagi o‘quv-uslubiy, meyoriy-huquqiy hujjatlar, statistik ma’lumotlar, shuningdek davlat interaktiv xizmatlari ko‘rsatishga doir ma’lumotlarni o‘zida mujassam etgan va muntazam yangilanib turadigan oliy ta’limning yagona axborot platformasi - "Oliy ta’lim boshqaruvi axborot tizimi"ni ishga tushirish, unda vakant o‘rinlarga o‘tkazilayotgan tanlovlarga oid e’lonlarni hamda arizalarni onlayn qabul qilish imkoniyatlarini nazarda tutish.

Oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish bo‘yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish uzviy bog‘liqligini nazarda tutuvchi “Universitet 3.0” konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish;

xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar ko‘lамини kengaytirish va boshqa budjetdan tashqari mablag‘lar hisobiga oliy ta’lim muassasalari tarkibida texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startap, akselerator markazlarni tashkil etish hamda ularni tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qilish va prognozlashtirish bo‘yicha faoliyat olib borishlarini ta’minlash;

professor-o‘qituvchilar, ilmiy izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalarini tashkil etiladigan texnoparklarda ilmiy va innovatsion faoliyat olib borishlariga erishish;

budjetdan tashqari mablag‘lar hisobiga startap loyihalari asosida tijoratlashtirish salohiyati yuqori bo‘lgan yangi mahsulotlar va texnika-texnologiyalarni yaratish orqali oliy ta’lim muassasalari huzurida ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyatga joriy etish bilan shug‘ullanuvchi “spin-off” va “spin-out” korxonalarini tashkil etish, akademik tadbirkorlikni rivojlantirish;

xalqaro SsiVal axborot-tahlil tizimi yordamida jahondagi ilmiy-tadqiqot natijalarini tahlil qilib borish asosida ilm-fanning ilg‘or yutuqlari bilan uyg‘un rivojlanishini ta’minlash;

nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish faoliyatini qo’llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish;

oliy ta’lim muassasalari ilmiy jurnallarining Scopus, ScienceDirect va boshqa xalqaro ilmiy-texnik ma’lumotlar bazalariga bosqichma-bosqich kiritilishini ta’minlash;

fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, mavjud ilmiy maktablarni saqlab qolish va yangilarini yaratish, ularning kadrlar salohiyatini mustahkamlash, bunda iqtidorli yoshlarning ilm-fanga keng jalb etilishini rag‘batlantirish;

xalqaro ilmiy-texnik ma’lumotlar bazasiga kiruvchi nufuzli ilmiy nashrlarda maqolalar e’lon qilish orqali faoliyatining ilmiy natijalari xalqaro darajada tan olinishini belgilovchi ko’rsatkich “Xirsh” indeksi (h-indeks) yuqori bo’lgan olimlar, professor-o‘qituvchilar hamda yosh ilmiy izlanuvchilarni budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moddiy rag‘batlantirib borish tizimini joriy etish;

oliy ta’lim muassasalarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar sifatini ko’tarish, ularni statistik, texnik va boshqa ma’lumotlar bilan ta’minlash mexanizmlarini yaratish, bu borada tegishli meyoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qilish;

professor-o‘qituvchilar tarkibining ilmiy daraja va unvonlarga ega xodimlar yoshi nuqtai nazaridan optimal nisbatiga erishish;

ilmiy-tadqiqot muassasalari olimlarini ta’lim jarayoni va ilmiy rahbarlikka jalb qilish, magistratura va doktorantura bosqichlaridagi ilmiy ishlarni mazkur ilmiy-tadqiqot muassasalarida olib borilishi hamda himoya qilinishini ta’minlash;

jahon ilmiy tadqiqotlar bozori tendensiyalaridan kelib chiqib, har bir oliy ta’lim muassasasida (fakultet, kafedra va laboratoriylar kesimida) ilmiy tadqiqotlarni tor va fanlar tutashligidagi sohalarga ixtisoslashtirish, ularni ishlab chiqarish va hududiy rivojlanish ehtiyojlariga moslashtirish, qiyosiy ustunlikka ega bo’lgan istiqbolli ilmiy yo‘nalishlarni belgilash, ushbu yo‘nalishlarda yuqori malakali professor-o‘qituvchilar va talabalar salmog‘ini oshirish;

Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi O‘zbekiston-Yaponiya yoshlar innovatsiya markazi, Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi O‘quv-amaliy to‘qimachilik texnoparki hamda Urganch davlat universiteti huzuridagi “Xorazm” innovatsion texnoparkining faoliyati samaradorligini oshirish;

xalqaro moliya institutlarining imtiyozli mablag‘larini keng jalb qilish orqali innovatsion faoliyat infratuzilmasini takomillashtirish maqsadida “Hujayra va molekulyar biotexnologiya”, “Tibbiy genetika”, “Ekofiziologiya”, “Materialshunoslik”, “Energiya tejovchi texnologiyalar, nazorat-o‘lchov va avtomatlashtirilgan tizimlar”, “Qurilish materiallari” hamda “Oziq-ovqat

mahsulotlari va texnologiyasi” yo‘nalishlari bo‘yicha 7 ta oliy ta’lim muassasalararo ilmiy-tadqiqot laboratoriyasini tashkil etish;

O‘zbekiston Milliy universiteti huzurida Nanotexnologiyalarni rivojlantirish markazi, Yarimo‘tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti, Biofizika va biokimyo instituti, Intellektual dasturiy tizimlar ilmiy-amaliy markazida zamonaviy ilmiy-tadqiqotlar amalga oshirilishini ta’minlash va rivojlantirib borish;

ilm-fan sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining tegishli institutlari hamda nufuzli xorijiy oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yetakchi mahalliy oliy ta’lim muassasalarining faol hamkorligini yo‘lga qo‘yish, bunda mentorlik modelidan keng foydalanish;

professor-o‘qituvchilar tomonidan yuritilishi lozim bo‘lgan turli jurnal va o‘quv-uslubiy hujjatlar sonini qat’iy qisqartirish orqali ularning ilmiy faoliyatini jadallashtirish;

ilmiy-tadqiqot ishlarini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlaridagi, shu jumladan hududiy miqyosdagi mavjud muammolarning innovatsion yechimiga qaratish, fanlar tutashligidagi muammolarni keng tadqiq etish;

iqtidorli yoshlarni aniqlash, akademik litseylarga jalb qilish, oliy ta’lim muassasalariga saralab olish, chuqurlashtirilgan ta’lim dasturlari asosida o‘qitish, ularning fan olimpiadalaridagi ishtirokini kengaytirish, ilmiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishini oshirish, "ustoz-shogird" tizimi asosida tegishli sohada yuqori natijalarga erishgan malakali mutaxassislarga biriktirish, bu boradagi ma’lumotlar elektron bazasini yaratish;

oliy ta’lim muassasalarining Yoshlar akademiyasi hamda Fan va texnologiyalar bo‘yicha respublika kengashi bilan hamkorligini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirib borish;

oliy ta’lim muassasalari ilmiy salohiyatini oshirish, maqsadli doktorantura orqali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish;

xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda qo‘shma ilmiy daraja dasturlarini ishlab chiqish;

oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutlari faoliyatini xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, ilmiy kengashlar va himoyalalar tizimini xalqaro tajribaga muvofiqlashtirish;

ilmiy darajalar va unvonlar berish vakolatini bosqichma-bosqich oliy ta’lim muassasalariga berish;

doktoranturaga qabul qilish shartlarini belgilashda oliy ta’lim muassasalariga erkinlik berish, talabgorlarni saralab olishda ularning ilmiy yutuqlariga alohida e’tibor qaratish;

ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlar majlislarini hududlardagi oliy ta’lim muassasalaridan turib onlayn kuzatish platformasini yaratish.

Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirish

Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

talaba-yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyatga tatbiq etish, jumladan talaba-yoshlarni madaniyat va san'at, jismoniy tarbiya va sportga jalg qilish, ularning kompyuter va internet texnologiyalaridan foydalanish savodxonligini oshirish, kitobxonlikni keng targ'ib qilish, talaba-qizlarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish;

oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, yoshlarning intellektual salohiyati, tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalq manfaatlari uchun xizmat qilish tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlod sifatida tarbiyalashga qaratilgan talaba-yoshlarning ma'naviy-axloqiy ongini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish va amaliyatga tatbiq etish;

davlat va jamiyat oldida turgan muhim vazifalarni hal etishda mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, yurtparvar, tashabbuskor, zamonaviy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirgan, insoniy fazilatlarga ega yoshlarni professional kasb egasi sifatida tayyorlash, bu borada yangicha yondashuvlarni talab etadigan ta'lim-tarbiya usullaridan foydalanish;

oliy ta'lim muassasalarida sportni qadriyat sifatida rivojlantirish, talabalar o'rtasida sog'lom turmush tarzini ommalashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish;

yoshlarning qonun hujjatlari mazmun-mohiyatidan xabardorligi, huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish, ularda sog'lom turmush tarziga rioya etish, inson huquqlari, gender tengligi, tinchlikparvarlik va millatlararo totuvlik, vijdon erkinligi, barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analarini hurmat qilish kabi umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy-axloqiy qadriyatlarni kamol toptirish, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faollik, mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish;

imkoniyati cheklangan talabalarning ijtimoiy moslashuvi uchun keng sharoitlar yaratish, inklyuzivlik g'oyalarini targ'ib qilish;

yoshlar tarbiyasida ota-onalar, mahallalar va oliy ta'lim muassasalari hamkorligini tizimli tashkil etish;

oliy ta'lim muassasalarida sotsiologik va pedagogik-psixologik xizmat guruhlari ishini takomillashtirib borish, talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oilani mustahkamlash borasidagi targ'ibot ishlarini kuchaytirish;

talaba-yoshlarni hunar o'rganish, yangi bilim egallah, o'z ustida ishslash, zamonaviy texnologiya yutuqlaridan maqsadli foydalanish, tadbirkorlik

ko'nikmalarini shakllantirishga undash orqali ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish uchun ta'lim muassasalarida shart-sharoitlar yaratish;

talaba-yoshlarni turli axborot xurujlari, yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishi, ular tomonidan ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etilishi holatlarining oldini olish, Vatanimiz istiqboli yo'lida birlashtirish maqsadida ta'lim-tarbiyaning ta'sirchan usullari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda ularning qiziqishini e'tiborga olish va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash;

"Maktab - ma'naviyat va ma'rifat o'chog'i" konsepsiysi doirasida oliy ta'lim muassasalarining umumta'lim maktablari bilan o'quvchi-yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashini shakllantirish, huquqiy savodxonligini oshirish, kasbga yo'naltirish va mustaqil hayotga tayyorlash kabi masalalarda mentorlik modeli asosida hamkorligini rivojlantirish.

Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalg etish borasida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining o'ziga xosligidan kelib chiqib, o'quv rejalarini va dasturlari mazmuni hamda mutaxassislik fanlari bo'yicha soatlar taqsimotini kadrlar buyurtmachilari bilan hamkorlikda fan va texnologiyalarning so'nggi yutuqlari asosida shakllantirish;

bitiruv-malakaviy ishlar, magistrlik va doktorlik dissertatsiyalari mavzularini iqtisodiyotning real sektori, shuningdek hududiy (viloyat, tuman, shahar, mahalla, hududiy obyekt) muammolardan kelib chiqib shakllantirish hamda mavzularni tor qamrovda chuqur tadqiq qilishga o'tish;

oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari aloqalarini mustahkamlash hamda klaster usulida faoliyat yuritishini tashkil etish;

ishlab chiqarish rivojlangan hududlar va iqtisodiy zonalarda oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yo'lga qo'yish;

talabalarning tegishli soha bo'yicha ishlab chiqarish korxonalari va tashkilotlarda ta'lim jarayonidan tashqari vaqtida mehnat faoliyati olib borishlariga shart-sharoit yaratish;

ilmiy-texnik buyurtma va grantlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishda mavjud muammolarga yangicha yechim topish, tajribali amaliyotchilarni o'quv jarayoniga faol jalg qilish, ta'limda ishlab chiqarish infratuzilmasi va amaliy misollardan keng foydalanish kabi yo'nalishlarda oliy ta'lim muassasalarining ishlab chiqarish korxonalari, tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan o'zaro manfaatli hamkorligini ta'minlash;

ishlab chiqarish korxonalarida mutaxassislik kafedralari filiallari, oliy ta'lim muassasalari huzurida ishlab chiqarish korxonalari tarkibiy bo'linmalarini, texnoparklar, biznes inkubatorlar, kovorking markazlari faoliyatini tashkil etish,

texnologiyalar transferini amalga oshirish orqali ta'larning ishlab chiqarish bilan samarali hamkorligini rag'batlantirish;

pedagog xodimlarning ishlab chiqarish jarayonida malaka oshirish tizimini joriy etish, shuningdek ishlab chiqarishda katta tajribaga ega, biroq ilmiy darajasi bo'limgan mutaxassislarni ta'lim jarayoniga, jumladan taklif etilgan va faxriy o'qituvchi sifatida jalb etishning ta'sirchan mexanizmlarini amaliyatga tatbiq etish, bunda ushbu mutaxassislarni muayyan sohadagi stajiga muvofiq tegishli lavozimlarga ishga qabul qilish;

ishlab chiqarish korxonalarida dars mashg'ulotlari va talabalar amaliyotini samarali tashkil etish tartibini takomillashtirish, bunda amaliy ko'nikmalarini tasdiqlovchi sertifikatlar berish tizimini joriy etish;

kadrlar buyurtmachilari murojaati asosida oliy ta'lim muassasalari bazasida ishlab chiqarishdan tajribali amaliyotchilarni jalb etish yo'li bilan maqsadli ta'lim dasturlari, professional malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari, treninglar tashkil etish mexanizmlarini yaratish;

oliy ta'lim muassasalari tuzilmasini isloh qilish asosida faoliyati talabalar amaliyoti va ishga joylashishiga har tomonlama ko'maklashish, potensial ish beruvchilar ro'yxatini shakllantirib borish va hamkorlik qilish, shuningdek avvalgi bitiruvchilar salohiyatidan unumli foydalanishga qaratilgan "Karyera markazlari"ni tashkil etish;

oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining bilim hamda ko'nikmalarini baholovchi markazlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash;

ilmiy tadqiqotlar olib borish, ularning natijalarini tijoratlashtirish kabi masalalarda kadrlar buyurtmachilari, ilmiy-tadqiqot muassasalari va oliy ta'lim muassasalari o'rtaida o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yish, biznes inkubatorlar va vechur moliyalashtirish faoliyatini rivojlantirish, mazkur masalalarda tegishli meyoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirib borish;

doktorlik dissertatsiyalari ilmiy natijalarining amaliyotga tezkor joriy etilishini ta'minlash, yoshlarning ilmiy faoliyatga qiziqishlarini oshirish va rag'batlantirish, ilmiy faoliyat nufuzini ko'tarish maqsadida doktorlik (tayanch doktorlik) ilmiy darajasini beradigan binar (ikkitalik) himoyalar tizimini joriy etish;

fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar tanlovlarida ilmiy natijalarning tijoratlashtirilishi, ularning amaliyotga joriy etilishi muddatidan kelib chiqqan holda grantlar miqdori va davomiyligini belgilash;

vasiylik kengashlari tarkibini kadrlar buyurtmachilari, yirik ish beruvchilar, jamoat arboblari va tegishli sohada katta yutuqlarga erishgan tadbirkorlar hisobidan shakllantirish;

bitiruvchilar malakasining ishlab chiqarish talablariga mos kelishini aniqlash, kadrlar tayyorlashda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar va ularni bartaraf qilish

maqsadida har yili respublika miqyosida kadrlar buyurtmachilari o‘rtasida milliy so‘rovlар o‘tkazish an’anasini yo‘lga qo‘yish.

Oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta’minlash, moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash bo‘yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

oliy ta’lim muassasalarini bosqichma-bosqich o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, mehnatga haq to‘lash tizimini takomillashtirish, moliyalashtirishning samarali va shaffof mexanizmlarini joriy etish;

iqtisodiyot tarmoqlarining kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini inobatga olgan holda, shuningdek istiqbolda oliy ta’lim muassasalarining reytingi va o‘z xarajatlarini qoplash darajasidan kelib chiqib bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari (magistratura mutaxassisliklari) bo‘yicha to‘lov-kontrakt miqdorlarini mustaqil belgilash tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish;

oliy ta’lim muassasalarining ta’lim xizmatlari eksporti va qo‘sishimcha xizmatlar ko‘rsatishga doir faoliyatini rivojlantirish;

qurilish, rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash ishlarini zamon talablari asosida tashkil etish, ushbu jarayonda innovatsion texnologiyalarga asoslangan, resurstejamkor va tez barpo etiladigan konstruksiya va materiallardan foydalanish bo‘yicha ilg‘or texnologiyalar va muhandislik yechimlarini qo‘llash;

oliy ta’lim muassasalarini zamonaviy dasturiy mahsulotlar bilan ta’minlash, o‘quv va ilmiy jarayonlarni o‘quv va laboratoriya uskunalari, shuningdek laboratoriya materiallari (reakтивлар, kimyoviy idish, butlovchi, biologik materiallar va boshqa obyektlar) bilan muntazam ravishda zarur miqdorlarda ta’minlab borishning samarali mexanizmlarini yaratish;

talabalar turar joylari, kutubxona, o‘quv ustaxonalari, laboratoriylar, sport sog‘lomlashtirish va ijtimoiy infratuzilma obyektlariga nisbatan o‘sib borayotgan ehtiyojni o‘z vaqtida ta’minlash va zamon talablari asosida ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;

imkoniyati cheklangan talabalarga oliy ta’lim muassasalari va talabalar turar joylari binolarida qo‘sishimcha sharoitlar yaratish, ular uchun ta’lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar bilan ta’minlash choralarini ko‘rish;

oliy ta’lim muassasalarida xorijiy fuqarolarning istiqomat qilishi va ta’lim olishi bo‘yicha qulay shart-sharoitlar yaratish;

innovatsion kutubxonalarni tashkil etish, ulardagi kitob fondini yangi avlod o‘quv adabiyotlari bilan muntazam boyitish;

oliy ta’lim muassasalarini yuqori tezlikdagi internet bilan uzluksiz ta’minlash, talabalarning mustaqil ta’lim olishi uchun infratuzilma imkoniyatlarini kengaytirish;

talabalar, o‘qituvchilar va yosh tadqiqotchilarning elektron ta’lim resurslari, zamonaviy ilmiy adabiyotlarning elektron kataloglari va ma’lumotlar bazalaridan bepul foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;

aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlaridan bo‘lgan talabalarni moddiy rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash;

oliy ta’lim muassasalarida homiylik va ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirishdan tushgan, maqsadli kapital va boshqa mablag‘lar hisobiga moliyalashtiriladigan endaument jamg‘armalarini (endowment fund) tashkil etish.

Oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruva faoliyatini takomillashtirish

Oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruva faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

a) kadrlar tayyorlash sifati va ko‘lamini inobatga olgan holda oliy ta’lim muassasalarini quyidagi toifalarga ajratish va ularni rivojlantirish strategiyalarini belgilash:

birinchi toifa - flagman universitetlar (O‘zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universiteti);

ikkinchi toifa - ilm-fan va innovatsion markaz funksiyasini bajaruvchi hududiy oliy ta’lim muassasalari;

uchinchchi toifa - sohalar uchun ta’lim va ilmiy tadqiqotlar bo‘yicha tayanch muassasalar rolini bajaruvchi tarmoq oliy ta’lim muassasalari;

b) institut maqomidagi oliy ta’lim muassasalari faoliyati ko‘lamini kengaytirish va institutsional salohiyatini kuchaytirish orqali ularni universitetga aylantirish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish;

v) oliy ta’lim muassasalarini ularning quvvati, ilmiy salohiyati va boshqa asosiy ko‘rsatkichlaridan kelib chiqib bosqichma-bosqich yiriklashtirib borish;

g) tajriba tariqasida davlat ulushining 51 foizdan kam bo‘lmagan qismini saqlab qolgan holda ayrim davlat oliy ta’lim muassasalarini (oliy harbiy ta’lim muassasalari bundan mustasno) davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, ularda korporativ boshqaruva tamoyillarini joriy etish;

d) oliy ta’lim sohasini rivojlantirish bo‘yicha hujjat loyihamalarini ishlab chiqish va muhokama etishda Respublika oliy ta’lim kengashi nufuzi va faolligini oshirish, mas’uliyatini kuchaytirish, oliy ta’lim muassasalarida jamoatchilik nazoratining zamonaviy mexanizmlarini joriy etish;

ye) oliy ta’lim tizimida boshqaruva jarayonlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida optimallashtirish, davlat interaktiv xizmatlari ko‘lamini kengaytirish;

j) oliy ta’lim muassasalarini rivojlantirishda strategik rejalshtirish tamoyillarini joriy etish, bunda vasiylik kengashlari mas’uliyati va rolini oshirish;

z) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi funksiyalarini xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, bunda ta’lim sifatini baholashning yangi mexanizmlarini joriy etish, kadrlar buyurtmachilarini va talabalar o‘rtasida o‘tkazilgan milliy so‘rov natijalarini chuqur tadqiq qilish orqali muammolarni bartaraf etish, davlat va nodavlat ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini ta’sirchan instrumentlar yordamida nazorat qilib borish, bitiruvchilar sifati va ularning ixtisosligi bo‘yicha ishga joylashish masalalariga e’tibor qaratish;

i) ta’lim sifatini nazorat qilish va oliy ta’lim muassasalari reytingini yuritishning nodavlat tizimini yaratish bo‘yicha zarur chora-tadbirlar belgilash;

y) oliy ta’lim muassasalarida ishga qabul qilish va yuqori lavozimlarga tayinlashda oliy ta’lim tizimi rivoji uchun o‘zining munosib hissasini qo‘shuvchi kadrlarni tanlash, ularning faoliyati, professional xususiyatlari, soha oldidagi alohida xizmatlarini adolatli va xolisona baholashni nazarda tutuvchi meritokratiya tamoyillarini qo‘llash, rahbarlik lavozimlariga tayinlashda gender tengligi tamoyillariga qat’iy rioya qilish;

k) oliy ta’lim muassasalari rahbarlik lavozimlariga zaxira kadrlarni shakllantirish, maqsadli o‘qitish va tayyorlash samaradorligini oshirish;

l) oliy ta’lim muassasalari rahbar xodimlarini rotatsiya qilish mexanizmini joriy qilish.

Oliy ta’lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta’minlash

Oliy ta’lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta’minlash bo‘yicha qo‘yidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

respublikadagi kamida 10 ta oliy ta’lim muassasasini xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga, shu jumladan O‘zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga kiritish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, bunda mazkur oliy ta’lim muassasalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish;

oliy ta’lim muassasalarining O‘zbekiston yalpi ichki mahsuloti oshishidagi ishtirokini va mamlakat ijobiy xalqaro imidjini shakllantirishdagi rolini oshirish;

respublika oliy ta’lim tizimini xalqaro ta’lim standartlari bilan uyg‘unlashtirish, ilg‘or xorijiy tajribani chuqur o‘rganish va tahlil qilish asosida ta’lim dasturlarini jahonda tan olingan xalqaro standartlar talablariga moslashtirish bo‘yicha asoslangan takliflar ishlab chiqish;

ta’lim to‘liq xorijiy tillarda olib boriladigan ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari, fakultetlar salmog‘ini oshirib borish;

xorijiy fuqarolarni oliy ta’lim muassasasi tomonidan belgilanadigan tartibda o‘tkaziladigan suhbat asosida magistratura va doktoranturaga qabul qilish bo‘yicha tegishli meyoriy-huquqiy hujjat qabul qilish;

ta’lim xizmatlari eksportini rivojlantirish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar bilan ta’lim sohasida hamkorlikni kengaytirish va ularning meyoriy-huquqiy bazasini takomillashtirib borish;

“Study in Uzbekistan” (“O‘zbekistonda tahsil ol”) loyihasini amalga oshirish, mamlakat ta’lim jozibadorligini targ‘ib qiluvchi maxsus veb-portal yaratish va uni barcha oliy ta’lim muassasalari bo‘yicha bat afsil va ishonchli ma’lumotlar bilan to‘ldirib borish;

ta’limda brendlar, ilmiy an’analar tizimini yaratish asosida oliy ta’lim va oliy ta’lim muassasalari imijini shakllantirish strategiyasi bo‘yicha dastur qabul qilish;

oliy ta’lim muassasalariaro xalqaro fan olimpiadalarini tashkil etish;

xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda qo‘shma ta’lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash faoliyatini kengaytirish, hamkorlikda o‘tkaziladigan ilmiy konferensiylar va seminarlar sonini ko‘paytirish, xalqaro ilmiy va ta’lim loyi halarini amalga oshirish;

rivojlangan xorijiy davlatlar oliy ta’lim muassasalari hamda ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikda xalqaro qo‘shma ilmiy jurnallar, shuningdek ta’lim forumlari, rektorlar konferensiylari va boshqa anjumanlar tashkil etish;

oliy ta’lim muassasalari rasmiy veb-saytlarini Webometrics tashkiloti reyting tizimida egallagan o‘rinlarini yaxshilab borish, shu jumladan oliy ta’lim muassasalari tomonidan yetakchi tashkilotlar va korxonalarda bitiruvchilarning ishga joylashishi haqidagi ma’lumotlar, ta’lim yo‘nalishlari, magistratura mutaxassisliklari, ilmiy-texnik salohiyati, professor-o‘qituvchilar, infratuzilmasi, erishgan yutuqlari kabi asosiy ma’lumotlarni veb-saytlarda muntazam ravishda e’lon qilib borish;

xorijiy mamlakatlarda mahalliy oliy ta’lim muassasalari filiallarini tashkil etish, qo‘shma ta’lim dasturlarini amalga oshirish;

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim olish uchun xorijiy fuqarolarni jalb etish bo‘yicha mahalliy va xorijiy agentliklar tomonidan konsalting xizmatlari ko‘rsatilishining meyoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;

respublika oliy ta’lim tizimining xalqaro imijini yaratishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, xorijiy mamlakatlardagi elchixonalar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, zamonaviy PR-loyihalarni amalga oshirish;

oliy ta’lim sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida xalqaro moliya instituti, yetakchi xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarni mustahkamlash, bu

borada mamlakat ta'lim tizimi manfaatlariga mos keluvchi innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash.

Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirishda quyidagi natijalarga erishish nazarda tutilmoqda:

oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalarini, shu jumladan nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalarini filiallari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta'lim bilan qamrov darajasining 50 foizdan yuqori bo'lishi ta'minlanadi, sohada raqobat muhiti yaratiladi;

O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarining flagmaniga aylantiriladi;

respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasi xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalarini ro'yxatiga, shu jumladan O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetining birinchi 500 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalarini ro'yxatiga kirishiga erishiladi;

oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkaziladi;

xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlari joriy etiladi, jumladan o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tiladi;

oliy ta'lim mazmuni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tariladi, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'mini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimi yo'lga qo'yiladi;

oliy ta'lim muassasalarining akademik mustaqilligi ta'minlanadi;

oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi "Universitet 3.0" konsepsiysi bosqichma-bosqich joriy etiladi;

xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar ko'lmini kengaytirish va boshqa budjetdan tashqari mablag'lar hisobiga oliy ta'lim muassasalarida texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startap, akselerator markazlari tashkil etiladi hamda ular tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq etuvchi va prognozlashtiruvchi ilmiy-amaliy muassasalar darajasiga olib chiqiladi;

oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, ilmiy izlanuvchilari, doktorantlari, bakalavriat va magistratura talabalarining yuqori impakt-faktorga ega nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etishi, maqolalarga iqtiboslik ko‘rsatkichlari oshishi, shuningdek respublika ilmiy jurnallari xalqaro ilmiy-texnik ma’lumotlar bazasiga bosqichma-bosqich kiritilishi ta’minlanadi;

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi Markaziy Osiyoda xalqaro ta’lim dasturlarini amalga oshiruvchi “xab”ga aylantiriladi;

oliy ta’limning investitsiyaviy jozibadorligi oshiriladi, xorijiy ta’lim va ilm-fan texnologiyalari jalb etiladi;

talaba-yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘srimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbus asosida rivojlantiriladi;

oliy ta’lim muassasalari infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasi, shu jumladan xalqaro moliya institutlarining imtiyozli mablag‘larini keng jalb qilish hisobiga yaxshilanadi, ularni bosqichma-bosqich o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkaziladi va moliyaviy barqarorligi ta’minlanadi;

ta’limning ishlab chiqarish korxonalari va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorligi yo‘lga qo‘yiladi;

aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, shu jumladan imkoniyati cheklangan shaxslarning oliy ta’lim bilan qamrov darajasi oshiriladi, ular uchun infratuzilmaga oid sharoitlar yaxshilanadi.

Oliy ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchilar tarkibining o‘quv yuklamasi hamda o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va “ustoz-shogird” ishlarini belgilash Qoidalari (AV tomonidan 08.10.2018 y. 3076-son bilan ro‘yxatga olingan Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 10.09.2018 y. 20-2018-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan)

Oliy ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchilar tarkibi (bundan buyon matnda professor-o‘qituvchilar deb yuritiladi) mehnatini normalashtirish har o‘quv yili uchun professor-o‘qituvchilar va kafedra mudiri tomonidan tuziladigan hamda prorektorlar bilan kelishilgan holda o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor (fakultet dekani) tomonidan tasdiqlanadigan o‘quv yili bo‘yicha shaxsiy ish rejalariga asoslanadi.

Professor-o‘qituvchilarning o‘quv yili bo‘yicha shaxsiy ish rejasi tarkibiga o‘quv yuklamasi hamda o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va “ustoz-shogird” ishlarining turlari kiritiladi. Ish turlari professor-o‘qituvchilarning o‘quv yili bo‘yicha shaxsiy ish rejalarida to‘liq va aniq aks ettirilishi kerak. Joriy o‘quv yili yakunida faqat mazkur o‘quv yili davomida amalga oshirilgan ishlar hisobga olinadi.

O‘quv yili davomida bajarilgan qo‘srimcha ish turlari professor-o‘qituvchilarning yillik shaxsiy ish rejalariga kiritib borilishi mumkin.

Professor-o'qituvchilarning shaxsiy ish rejasi tarkibiga kiritiladigan o'quv yuklamasi hamda o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va "ustoz-shogird" ishlari:

to'liq shtatda faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilar uchun professor-o'qituvchilarning lavozimlariga qo'yilgan malaka talablari asosida;

to'liq shtatda bo'limgan va o'rindosh sifatida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilar uchun ularning stavkalariga muvofiq tarzda professor-o'qituvchilarning lavozimlariga qo'yilgan malaka talablari asosida;

shuningdek, mehnatga haq to'lashning soatbay shartlari asosida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilarning o'quv yuklamasi shakllantiriladi.

Professor-o'qituvchilarning o'quv yili bo'yicha shaxsiy ish rejasining bajarilishi muntazam ravishda kafedra mudiri, har semestr yakunida fakultet dekani, dekan o'rinosarlari, fakultet tuzilmasi bo'limgan oliy ta'lim muassasalarida o'quv bo'limi (o'quv-uslubiy boshqarma) va tegishli yo'nalishlar bo'yicha prorektorlar tomonidan nazorat qilib boriladi.

Professor-o'qituvchilarning o'quv yuklamasini hisoblash

Professor-o'qituvchilarning (madaniyat va san'at yo'nalishlari o'quv mashg'ulotlarida ishtiroy etadigan konsertmeysterlarning) o'quv yili bo'yicha shaxsiy ish rejasiga kiritilgan, uning asosiy qismi bo'lgan o'quv yuklamasining soatlardagi hajmi nazarda tutilgan Oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilarining o'quv yuklamasi hajmini hisoblashning vaqt meyorlarida belgilangan ish turlaridan kelib chiqib, professor-o'qituvchilarning lavozimlariga qo'yilgan malaka talablari asosida hisoblanadi.

Professor-o'qituvchilarning egallab turgan lavozimlari bo'yicha o'quv yuklamasi hajmi fakultet dekani (kafedra mudiri)ning taklifiga muvofiq oliy ta'lim muassasasining Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

O'quv yuklamasi bo'yicha hisoblangan soatlar hajmi oliy ta'lim muassasasining shtat birliklari sonini hamda professor-o'qituvchilarning oylik maoshlarini belgilash uchun asos bo'lmaydi.

Shtat birliklari professor-o'qituvchilarning talabalar soniga nisbati bo'yicha, oylik maoshi esa xarajatlar smetasi bo'yicha tegishli normativ-huquqiy hujjatlar asosida belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 11-martdagи 133-soni qarori bilan tasdiqlangan Ijodiy ta'tillar berish tartibi hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan normalarga muvofiq olib borilayotgan ilmiy-metodik va ilmiy-tadqiqot ishlarini rag'batlantirish maqsadida professor-o'qituvchilarning o'quv ishlari yuklamasi hajmi kafedra yig'ilishining taklifiga asosan oliy ta'lim muassasasi kengashining qarori bilan o'zgartirilishi mumkin. Bunda professor-o'qituvchilarning tegishli o'quv yuklamasining muayyan qismi

kafedraning boshqa professor-o‘qituvchilarining o‘quv yuklamasiga qo‘srimcha ravishda taqsimlanadi.

Ma’ruza mashg‘ulotlari ilmiy unvon va ilmiy darajaga ega bo‘lgan professor-o‘qituvchilar tomonidan o‘tkaziladi. Zarur hollarda (ma’ruza mashg‘ulotlari hajmi ko‘p bo‘lganda yoki professor, dotsent va katta o‘qituvchilar yetarli bo‘lmaganda) oliv ta’lim muassasasi Kengashining qaroriga asosan kamida 3 yillik ilmiy-pedagogik ish stajiga ega bo‘lgan, biroq ilmiy unvon va ilmiy darajasi bo‘lмаган o‘qituvchilarga bir o‘quv yilida 250 soatgacha hajmda ma’ruza mashg‘ulotlarini o‘tishga ruxsat beriladi.

Professor-o‘qituvchilarning o‘quv (ma’ruza, amaliy (yakka), seminar va laboratoriya) soatlari hajmi 400 soatdan kam bo‘lmasligi tavsiya etiladi. Kafedraga sohaning yetakchi mutaxassislari (akademiklar va professorlar) jalb etilganda, ushbu o‘quv soatlari hajmiga oliv ta’lim muassasasi Kengashi qaroriga muvofiq o‘zgartirish kiritish mumkin.

Professor-o‘qituvchilarning o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va “ustoz-shogird” ishlarini belgilash. Professor-o‘qituvchilar faoliyatining o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va “ustoz-shogird” ishlari bo‘yicha soatlar hajmi hisoblanmaydigan ish turlari mazkur Qoidalarning 2-ilovasida nazarda tutilgan Oliy ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchilarining o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va “ustoz-shogird” ishlari turlaridan kelib chiqib, professor-o‘qituvchilarning lavozimlariga qo‘yilgan malaka talablari asosida belgilanadi.

Professor-o‘qituvchilarning o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va “ustoz-shogird” ishlari hajmi mazkur ish turlarini bajarish zaruriyatidan kelib chiqib, professor-o‘qituvchilarning lavozimlariga qo‘yilgan malaka talablari fakultet dekani (kafedra mudiri)ning taklifiga muvofiq oliv ta’lim muassasasi Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Professor-o‘qituvchilarning ilmiy-pedagogik, ijodiy mahoratini uzluksiz oshirib borish, talabalarda chuqur nazariy bilim, amaliy va kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirish, ilm-fanga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otish, ularga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, har tomonlama yetuk mutaxassis tayyorlashni nazarda tutgan holda kafedra mudiri o‘qitishni ilg‘or pedagogik va kompyuter texnologiyalari, yangi avlod o‘quv adabiyotlari asosida tashkil etish hamda o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va “ustoz-shogird” ishlar bo‘yicha aniq topshiriqlarni belgilaydi.

3-MARUZA:OLIY TA'LIMDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH HAMDA MANFAATLAR TO'QNASHUVINI OLDINI OLISH VAZIFALARI VA HUQUQIY OMILLARI.

Korrupsiyaga qarshi kurashish va shaffoflikni ta'minlashning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish

Korrupsiyaga qarshi kurashish va shaffoflikni ta'minlashning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

oliy ta'lim sohasida "Korrupsiyasiz soha" loyihasini izchil davom ettirish, korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga barham berish;

oliy ta'lim muassasalarini tajribali, halol, pok vijdonli, mas'uliyatli professor-o'qituvchi va xodimlardan shakllantirib, ularning vazifalarini aniq belgilab berish;

oliy ta'lim muassasalarining jamiyat oldidagi hisobdorligi va ta'lim sifatini ta'minlashdagi mas'uliyatini oshirish, keng jamoatchilikni shaffoflik va xolislik tamoyillari asosida ta'lim xizmatlari sifati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan xabardor qilib borish;

professor-o'qituvchilar bilan talabalar o'rtasidagi byurokratik omillarni bartaraf etish, baholash mezonlaridagi shaffoflikni kuchaytirish, talabalar bilimini baholashdaadolatni ta'minlash;

abituriyentlar va magistraturada ta'lim olish uchun talabgorlar hujjatlarini qabul qilish, barcha kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazish, ularning bilimini baholash, o'qishni ko'chirish yoki qayta tiklash jarayonlarida suiiste'molchilik holatlarining oldini olish, bu borada jamoatchilik kengashlarining rolini oshirish, shaffoflikni ta'minlash;

professor-o'qituvchilarning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash, ushbu kasb jozibadorligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish;

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda oliy ta'lim muassasalari faoliyatining ochiqligini ta'minlash, fuqarolik jamiyati institutlari bilan aloqalarini mustahkamlash, jamoatchilikka axborot taqdim etishning tezkor va zamonaviy shakllarini joriy etish;

malaka oshirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini tayyorlash va amaliyotga tatbiq etish, nazorat-monitoring, xodimlarni ishga qabul qilish va lavozimga tayinlash, oliy ta'lim muassasalari faoliyatini o'rganish va tizimdagi boshqa jarayonlarda shaffoflikni ta'minlash;

professor-o'qituvchilarning o'quv yuklamalarini optimallashtirish, kasbiy faoliyatga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish asosida oliy ta'lim tizimi xodimlarining mehnat unumdarligini oshirish;

oliy ta'lim tizimida pedagog kadrlarni ishga qabul qilish, lavozimlarga tanlov o'tkazishdaadolat va ochiqlikni ta'minlash, o'quv yili yakunlari bo'yicha pedagog

kadrlar faoliyatiga baho berish, bu borada jamoatchilik nazoratining yangi va samarali mexanizmlarini amaliyotga joriy etish;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning amaldagi meyoriy-huquqiy hujjatlariga riosa qilinishi, xarajatlar smetalarini shakllantirish tartibiga amal qilish va ichki moliyaviy taftish ishlarini takomillashtirish, ushbu jarayonda korrupsiyaga oid holatlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etilishini ta’minlash;

oliy ta'lim tizimida kadrlar zaxirasini shakllantirish, odob-axloq normalariga riosa etilishini ta’minlash masalalarini tartibga soluvchi meyoriy-huquqiy hujjatlar loyihibarini ishlab chiqish va joriy etish.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlar – davlat hokimiysi organlari faoliyat olib borishi, davlat xizmatchilarining faoliyati jarayonida yuzaga keladigan, korrupsiyaga oid huquqbazarlikni sodir etish vaziyatini yaratadigan hamda ular natijasida noxush oqibatlar keltirib chiqaradigan holatlar, omillar va harakatlar.

Korrupsiya xavf-xatarlarini idoraviy xaritasi – davlat organi, uning hududiy tuzilmalarida va idoraviy mansub tashkilotlarda korrupsiya xavf-xatarlarini baholash natijasiga ko‘ra tuziladigan hamda davlat xizmatchilarining soha faoliyati, lavozimlari va ularning korrupsiya xavf-xatarlariga ko‘proq moyil bo‘lgan funksiya (vakolat)larining umumiy ro‘yxati, shuningdek ular bo‘yicha minimallashtirish bo‘yicha choralarini o‘z ichiga oladigan hujjat.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarini baholash – davlat organining amalga oshirayotgan funksiyalari (vakolatlari)ni tahlil qilish va korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etilishiga sharoit yaratishi mumkin bo‘lgan korrupsiya xavf-xatarlarini aniqlash hamda ularni minimallashtirishga qaratilgan samarali va natijali chora-tadbirlarni ishlab chiqish bo‘yicha faoliyat.

Korrupsiyaga qarshi komplaens nazorat (compliance control) tizimi - davlat organlari va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlar, qonun va boshqa me’yoriy huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etuvchi, korrupsiya xavf-xatarlari, manfaatlar to‘qnashuvini o‘z vaqtida aniqlash va chek qo‘yish, qonun buzilish va korrupsiyaga oid huquqbazarliklar haqida xabar berishni o‘zida mujassam etgan profilaktik tizim.

ISO 37001:2016 «Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimlari – Foydalanish uchun talablar va tavsiyalar» xalqaro standarti tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashning samarali tizimini yaratishning xalqaro usullarini o‘zida jamlagan, korrupsiyaga qarshi mukammal boshqaruv tizimini yo‘lga qo‘yishga xizmat qiladigan xalqaro standartdir.

ISO 37001:2016 korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimini ishlab chiqish, joriy etish, qo‘llab-quvvatlash, tahlil qilish va takomillashtirish uchun talablarni va rahbariy ko‘rsatmalarni belgilaydi.

Mavzuning maqsadi: Korrupsiyaga qarshi kurash borasida institutsional, tashkiliy-huquqiy va idoraviy tizimlar rivojlanishi to‘g‘risida bilimlarga ega bo‘lish

Mavzudan kutilayotgan natijalar:

Mavzuni o‘zlashtirganidan so‘ng tinglovchi quyidagi bilimlarga ega bo‘ladi:

Korrupsiyaga qarshi kurash borasida nazorat tizimlari shakllanishi.

Parlament nazorati va uning sub’ektlari, Parlament nazorati shakllari

Prokuratura organlari faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish tartibi.

Jamoatchilik nazorati va uning sub’ektlari, asosiy prinsiplari, jamoatchilik nazoratining shakllari.

Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida prokuror, davlat moliyaviy, ma’muriy, tadbirkorlik sub’ektlarini himoya etish sohasida nazorat tizimlari.

O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida bilimlarga ega bo‘ladi.

Mavzuni o‘zlashtirganidan so‘ng tinglovchi quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi:

“Parlament nazorati to‘g‘risida”gi 2016-yil 11-apreldagi Qonuni,

“Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi 2018-yil 12-apreldagi Qonuni,

“O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalariiga o‘zgartish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5843-son Farmoni,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2020-yil 29-iyundagi Farmoni PF-6013-son Farmoni talablari va b. xujjalari talablarini qo‘llash.

Yangi O‘zbekistonning yangilangan siyosati ham aynan inson qadr-qimmatini oliy darajaga ko‘tarish, jamiyatda adolat va qonun ustuvorligini so‘zsiz ta’minalash kabi yuksak g‘oyalarga tayanmoqda.

Biroq, afsuski, bu yo‘ldagi islohotlar natijadorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan, taraqqiyotga to‘siq bo‘layotgan bir qator omillar, illatlar saqlanib qolmoqda.

Hech shubhasiz, ulardan biri va eng xavflisi korrupsiyadir.

Bu illat avvalo, xalqimizning davlat va islohotlarga ishonchini so‘ndirishi, jamiyatda norozilik kayfiyatini kuchaytirishi bilan ham g‘oyat xatarlidir.

Shu bois, istiqlol yillarida mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida qator ishlar amalga oshirildi.

O‘zbekistonning 2008 yilda BMTning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasiga va boshqa xalqaro hujjatlarga qo‘silganligi bu borada amalga oshirilgan birinchi qadam bo‘ldi.

Muhtaram Prezidentimiz tashabbuslari bilan qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun va alohida Davlat dasturida esa navbatdagi vazifalar belgilab olindi.

Qonunda ilk bor korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi tushunchalariga ta’rif berildi. Shuningdek, Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha vakolatlari organlar hamda ularning maqomi aniq belgilab qo‘yildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni muvofiqlashtirish uchun Bosh prokuror rahbarligida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi tashkil etildi.

2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi o‘zining tub mohiyati bilan aynan korrupsiyani tag-tomiri bilan yo‘q qilishga qaratilgan tarixiy hujjat bo‘ldi.

Unda barcha sohalarda korrupsiyaga barham berish, uning ildiz otishiga sharoit yaratayotgan sabablarni bartaraf etishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar bayon qilindi.

2019 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmon bilan 2019 – 2020 yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ikkinchi Davlat dasturi tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6013-sod Farmoni, 2020-yil 29-iyundagi O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi № PQ-4761-sod Qarori asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligi tashkil etildi.

Agentlik korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa nodavlat sektor vakillarining

birgalikdagi samarali faoliyatini ta'minlash, shuningdek, mazkur sohadagi xalqaro hamkorlik uchun mas'ul bo'lgan maxsus vakolatlari davlat organi hisoblanadi. Agentlik o'z faoliyatini qonuniylik, xolislik, hisobdorlik, ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida boshqa davlat organlari, tashkilotlar va ularning mansabdon shaxslaridan mustaqil ravishda amalga oshiradi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo'ysunadi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari oldida hisobdordir.

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muhim tashkiliy-huquqiy mexanizmlar amalga oshirilishi, davlat organlarining ochiq va shaffof faoliyat yuritishi, qulay biznes muhiti, ustuvor xalqaro reytinglardagi O'zbekiston Respublikasining o'rmini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida xalqaro maydonda ijobjiy ko'rsatkichlarga bosqichma-bosqich erishilmoqda.

Shu bilan birga, tahlillar korrupsiyaga qarshi kurashishning zamonaviy preventiv usullarini har bir davlat organi amaliyotiga joriy qilish, ushbu sohada ular faoliyatining ochiqligi va hisobdorligini ta'minlash hamda amalga oshirilayotgan choralarining samaradorligini oshirishda mas'uliyatsizlik va rasmiyatçilik holatlariga yo'l qo'yilayotganligi kuzatilmoqda.

Davlat organlarida o'z vazifa va funksiyalarini amalga oshirishda yuzaga keladigan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni majburiy baholash bo'yicha yagona yondashuvni ta'minlash, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni monitoring qilish va baholash tizimini yanada takomillashtirish, ularning o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida davlat organlari faoliyatiga amalga oshirilayotgan funksiyalar (vakolatlar)ni korrupsiyaviy xavf-xatarlarga moyilligi nuqtai nazardan tahlil qilish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining shart-sharoitlari va sabablarini o'rganish hamda ularni minimallashtirish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni ko'rish bo'yicha korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash joriy etilmoqda.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uchun ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish jarayoni barcha manfaatdor taraflar (tegishli davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ekspertlar va boshqalar bilan yaqin hamkorlikda bo'lgan tashkilotlar) ishtirokida va ularning fikrlarini inobatga olgan holda amalga oshiradi.

Davlat organlari va tashkilotlarida hisobdorlik va oshkorlik darajasini oshirish uchun korrupsiyaviy xavf-xatarlarning idoraviy xaritasi hamda har yillik korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy dasturlari tegishli davlat organlarining rasmiy veb-saytlaridagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish" alohida bo'limida majburiy tartibda e'lon qiladi.

Davlat organlarida korrupsiya xavf-xatarlarini baholash:

Davlat organlarida korrupsiya xavf-xatarlarini baholash tizimi O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 27-maydagi PF-5729-son, hamda “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-son Farmonlariga muvofiq davlat organlarida o‘z vazifa va funksiyalarini amalga oshirishda yuzaga keladigan korrupsiyaviy xavf-xatarlarini majburiy baholash tartibini belgilaydi.

Davlat organlarida korrupsiya xavf-xatarlarini baholashdan maqsad o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishda yuzaga keladigan, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga sharoit yaratadigan holatlar, omillar va harakatlarni aniqlash hamda ularni minimallashtirish bo‘yicha samarali va natijali chora-tadbirlarni ishlab chiqishdan iborat.

Davlat organlari tomonidan korrupsiya xavf-xatarlarini baholash tizimini ishlab chiqish, tasdiqlash va amalga oshirishni o‘z ichiga oladi:

**davlat xizmatchilarining faoliyat sohasi va lavozimlarini, shuningdek,
ularning korrupsiya xavf-xatarlariga ko‘proq moyil bo‘lgan funksiya
(vakolat)lari** va ularni minimallashtirish choralarini o‘z ichiga oladigan korrupsiya xavf-xatarlarining idoraviy xaritasi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlar, **mas’ul shaxslar**, amalga oshirish muddatlari, moliyaviy va boshqa resurslarni o‘z ichiga oluvchi korrupsiyaga qarshi kurashishning idoraviy dasturlarni nazarda tutadi.

Davlat organlarida korrupsiya xavf-xatarlarini baholash tizimida asosiy tushunchalar:

korrupsiyaviy xavf-xatarlar – davlat hokimiysi organlari faoliyat olib borishi, davlat xizmatchilarining faoliyati jarayonida yuzaga keladigan, korrupsiyaga oid huquqbuzarlikni sodir etish vaziyatini yaratadigan hamda ular natijasida noxush oqibatlar keltirib chiqaradigan holatlar, omillar va harakatlar;

korrupsiya xavf-xatarlarini idoraviy xaritasi – davlat organi, uning hududiy tuzilmalarida va idoraviy mansub tashkilotlarda korrupsiya xavf-xatarlarini baholash natijasiga ko‘ra tuziladigan hamda davlat xizmatchilarining soha faoliyati, lavozimlari va ularning korrupsiya xavf-xatarlariga ko‘proq moyil bo‘lgan funksiya (vakolat)larining umumiy ro‘yxati, shuningdek ular bo‘yicha minimallashtirish bo‘yicha choralarini o‘z ichiga oladigan hujjat;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarini baholash – davlat organining amalga oshirayotgan funksiyalari (vakolatlari)ni tahlil qilish va korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etilishiga sharoit yaratishi mumkin bo‘lgan korrupsiya xavf-xatarlarini aniqlash hamda ularni minimallashtirishga qaratilgan samarali va natijali chora-tadbirlarni ishlab chiqish bo‘yicha faoliyat;

idoraviy muvofiqlashtiruvchi - davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar amalga oshirilishini yuritishga mas’ul bo‘lgan shaxs.

Korrupsiyaning paydo bo‘lishi uchun zarur shartlar mavjud bo‘lgan davlat organi faoliyatida korrupsiya xavfini yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan funksiyalar ro‘yxatini aniqlash, bu erda quyidagi funksiyalar majburiy baholanishi kerak:

- boshqaruv va nazorat - davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari, yuridik shaxslari va fuqarolari tomonidan Konstitutsiya, konstitutsiyaviy qonunlar, qonunlar va boshqa majburiy xulq-atvor qoidalarining boshqa normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan normalarning bajarilishini nazorat qilish va nazorat qilish bo‘yicha harakatlarni amalga oshirish (nazorat ob’ektlari - inspeksiyalar, auditorlik bo‘limlari va boshqa ayrim sohalarda boshqaruv va nazoratni amalga oshirish);

- kommunal va davlat mulkini boshqarish - davlat mulkiga, shu jumladan davlat korxonalari va davlat muassasalariga berilgan mulklarga nisbatan mulkdorning vakolatlarini amalga oshirish, shuningdek ochiq aksiyadorlik jamiyatlarining davlat aksiyalarini boshqarish;

- davlat xizmatlarini ko‘rsatish - davlat organi, davlat budgetdan tashqari jamg‘armasi organi tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki ularga bo‘ysunuvchi davlat muassasalari yoki boshqa tashkilotlar orqali bepul yoki davlat organlari tomonidan tartibga solinadigan narxlarda, ariza beruvchilarning iltimosiga binoan normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan vakolat doirasida;

- litsenziyalash va ro‘yxatdan o‘tkazish. Litsenziyalash funksiyalari deganda davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan ma’lum bir faoliyat turini amalga oshirish uchun ruxsatnomalar (litsenziyalar) va (yoki) yuridik shaxslarga va fuqarolarga aniq harakatlarni (guvohnomalar, litsenziyalar, ruxsatnomalar, akkreditatsiya) berish tushuniladi. Ro‘yxatga olish funksiyalari - sub’ektlarning huquqiy maqomini o‘rnatish, o‘zgartirish yoki bekor qilish faktlarini tasdiqlash maqsadida amalga oshirilgan aktlarni, hujatlarni, huquqlarni, ob’ektlarni ro‘yxatdan o‘tkazishni anglatadi;

- yurisdiksiya - ma’muriy va yuridik javobgarlikni qo‘llash maqsadida amalga oshiriladigan davlat va kommunal xizmatchining funksiyalari (masalan, ma’muriy jarimalar solish);

- norma yaratuvchi - normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish funksiyalari.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlari baholash bosqichlari

- 1. Tayyorlanish bosqichi:** korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baxolash to‘g‘risidagi qarorni qabul qilish, uslubiyot va baxolashni o‘tkazish rejasini belgilash, baxolashga mas’ul bo‘lgan shaxslarni tayinlash, ularni vakolati va majburiyatlarini aniqlashtirish;
- 2. Boshqaruv va biznes jarayonlarini xatlovdan o‘tkazish:** jarayonlarni ko‘rib chiqish;
- 3. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash (identifikatsiya qilish):** eng xavfli korrupsiyaviy xatarlarni aniqlash;
- 4. Korrupsiyaviy xavflarni tahlil qilish:**
 - a) korrupsiyaviy sxemalarni aniqlash;
 - b) korrupsiyaviy lavozimlarni aniqlash.
- 5. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni yuqori, o‘rtacha, past ko‘rsatkichlari bo‘yicha tasniflash;**
- 6. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish;**
- 7. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baxolash natijalarini rasmiylashtirish, kelishish va tasdiqlash.**

Davlat xizmatchilarining korrupsiya xavf-xatarlariga ko‘proq moyil bo‘lgan faoliyat sohasi va lavozimlari hamda ularning funksiya (vakolat)lari ro‘yxatini shakllantirish masalalari

Davlat organlari funksiya (vakolat)larini amalga oshirishda korrupsiyaga oid huquqbazarliklar sodir etilishiga ko‘maklashadigan holatlar, omillar va harakatlar haqidagi ma’lumot quyidagi ichki va tashqi ma’lumotlardan to‘planadi:

davlat organi va davlat xizmatchilarining tegishli faoliyati sohasini tartibga soladigan hamda funksiya (vakolat)larini belgilab beradigan normativ-huquqiy va lokal hujjatlar (davlat organi to‘g‘risidagi nizom, ma’muriy reglamentlar, yuqori turuvchi davlat organlarining bayonnomasi qarorlari va topshiriqlari, lavozim yo‘riqnomalari, buyruqlar va boshqalar);

ichki tekshiruvlar, jumladan, xizmat tekshiruvlari materiallari, davlat xizmatchisi (xodimi)ning korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etishga moyilligiga oid faktlar to‘g‘risidagi xabarlar;

manfaatdor taraflar, davlat xizmatlaridan foydalanuvchilar, ekspertlar, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa manfaatdor shaxslarning so'rovi, jumladan, sotsiologik tadqiqotlar natijalari;

davlat organi faoliyati sohasidagi huquqbazarliklar to'g'risidagi statistik ma'lumotlar;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari, xalqaro va xorijiy ekspertlar ma'lumotlari, fuqarolik jamiyati institutlari va OAVning korruptsiyaviy huquqbazarliklar haqidagi yoki davlat xizmatchisi tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya qilmaganligi holatlari to'g'risidagi ma'lumotlardan iborat bo'lgan xabarları;

davlat xizmatchisi tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya qilmaganligi holatlari to'g'risidagi anonim ma'lumotlardan iborat bo'lgan xabarları; huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan taqdim etilgan materiallar, jumladan, prokuror ta'sir choralari hujjatlari, jinoyat ishlari bo'yicha materiallar.

Davlat hokimiyati organlari faoliyat olib borishi jarayonida yuzaga keladigan holatlari, omillar va harakatlar shaxsiy manfaat yoki boshqa shaxslar manfaati yo'lida moddiy yoki nomoddiy naf olish, xuddi shunday ham mansabdor shaxslar, ham uchinchi shaxslar uchun noqonuniy ravishda moddiy naf berish bilan ifodalanadigan mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish faktlari uchun sharoit yaratadigan holat predmeti bo'yicha o'r ganiladi.

Korrupsiya xavf-xatarlarini baholash jarayonida amalga oshirilishida korruptsiyaviy sxemalardan foydalaniladigan va noqonuniy naf beradigan har bir funksiya, tartib-taomil va vakolatlarni tahlil qilish zarur.

Davlat xizmatchilarining funksiya (vakolat)lar bo'yicha tegishli axborotlar va ma'lumotlarni tahlil qilish, shuningdek aniqlangan korruption omillar asosida ularni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan korrupsiya xavf-xatarlar darajasi ko'rsatgan holda korrupsiya xavf-xatarlariga ko'proq moyil bo'lgan funksiya (vakolat)lar (keyingi o'rnlarda – korrupsiaviy xavfli funksiyalar) ro'yxati tuziladi.

Korrupsiyaviy xavfli funksiyalar ro'yxatini belgilashda quyidagi **funksiya (vakolat)larga alohida e'tibor qaratilishi lozim:**

davlat xizmatlarini ko'rsatish, shu jumladan, litsenziya, ruxsat berish, ro'yxatga olish tartib-taomillarini amalga oshirish;

qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish;

davlat mulkini boshqarish, tasarruf etish va begonalashtirish;

davlat xaridlarini amalga oshirish, pulli asosda tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotib olish;

budjet va budjetdan tashqari mablag‘larni taqsimlash to‘g‘risida qaror qabul qilishga tayyorgarlik ko‘rish va qaror qabul qilish;

ishga qabul qilish, xodimlarni tanlash va joylashtirish, rag‘batlantirish, qo‘llab-quvvatlash yoki intizomiy javobgarlikka tortish haqida qaror qabul qilishga tayyorgarlik ko‘rish va qaror qabul qilish;

preferensiya va imtiyozlar berish;

mukofotlash, taqdirlash, yuqori lavozimga tavsiya etish, rahnamolik qilish;

soliqlar, yig‘imlar, bojxona bojlarini kamaytirish, ularni to‘lashdan ozod qilish yoki kechiktirish yoki to‘langan summani qaytarish bo‘yicha qaror qabul qilishga tayyorgarlik ko‘rish va qaror qabul qilish;

ijtimoiy nafaqalarni tayinlash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish;

davlat ekspertizasini o‘tkazish va xulosalar berish;

sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish, ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risida ishlar qo‘zg‘atish va ularni ko‘rib chiqish;

tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshirish;

xizmat siriga ega bo‘lish; moddiy-texnik resurslarni saqlash va taqsimlash.

Korrupsiya xavf-xatarlari darajasi va korrupsiyaviy xavfli funksiyalar ro‘yxatini aniqlashda bir paytning o‘zida lavozim majburiyatlariga ko‘rsatilgan funksiyalarni amalga oshirish bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rish va qarorlar qabul qilish kiramidan davlat xizmatchilarining doirasi belgilanadi. Shundan kelib chiqib, korrupsiyaviy xulq-atvorni tavsiflovchi belgilarni hisobga olib, davlat xizmatchilarining korrupsiyaviy xavf-xatarga ko‘proq moyil bo‘lgan lavozimlari ro‘yxati tuziladi.

Quyidagi harakatlar mansabdar shaxsning rasmiy vakolatlarini amalga oshirishda buzuq xatti-harakatlarini tavsiflovchi belgilar bo‘lib xizmat qilishi mumkin:

- fuqarolarning yoki yuridik shaxslarning huquqlarini amalga oshirish bilan bog‘liq qarorlarni qabul qilishda, masalani jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan favqulodda asosda hal qilishda belgilangan muddatlardan oshib ketishda (rasmiy rasmiyatçilik) asossiz kechikish;

- mansabdar shaxs yoki uning qarindoshlarining moddiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq shaxsiy masalalarni hal qilishda o‘zlarining rasmiy vakolatlaridan foydalanish;

- davlat xizmatiga kirish uchun qonunda nazarda tutilmagan afzallikkarni (protekcionizm, nepotizm) ta’minlash;

- jismoniy shaxslarga, yakka tartibdagi tadbirkorlarga, yuridik shaxslarga davlat xizmatlarini ko'rsatishda ustunlik berish, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda ko'maklashish;

- rasmiy (mehnat) majburiyatlarini bajarish paytida olingan ma'lumotlardan shaxsiy yoki guruh manfaatlarida foydalanish, agar bunday ma'lumotlar rasmiy ravishda tarqatilmasa;

- jismoniy va yuridik shaxslardan taqdim etilishi Qирғизистон Республикаси qonunchiligidagi ko'zda tutilmagan ma'lumotni talab qilish;

- mansabdor shaxslar tomonidan rasmiy (mehnat) majburiyatlarida nazarda tutilgan tadbirlarni tashkil etish, rejalarshirish va amalga oshirishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy, idoraviy, mahalliy hujjatlar talablarining buzilishi;

- rasmiy (mehnat) faoliyatining muhim elementi bo'lgan rasmiy buxgalteriya hisoboti va hisobot hujjatlaridagi qasddan yolg'on ma'lumotlarni buzish, yashirish yoki taqdim etish;

- axborot resurslariga ruxsatsiz kirishga urinish;

- rasmiy (mehnat) vakolatlaridan oshadigan yoki ular bilan bog'liq bo'limgan ma'muriy xarakterdagi harakatlar;

- rasmiy (mehnat) majburiyatlariga muvofiq qaror qabul qilishni talab qiladigan holatlarda harakatsizlik;

- mansabdor shaxs, uning oila a'zolari, yaqin qarindoshlari tomonidan adabiyot, fan, san'at asarlarini yaratgani, ma'ruza va boshqa o'qituvchi faoliyati uchun asossiz ravishda yuqori mukofot olishlari;

- mansabdor shaxs, uning oila a'zolari, uchinchi shaxslar tomonidan asossiz ravishda uzoq muddatli yoki asossiz past stavkalar bilan kreditlar yoki kreditlar olish, shuningdek ushbu shaxslarning bank depozitlari (depozitlari) bo'yicha asossiz yuqori stavkalarni taqdim etish;

- egalari yoki rahbarlik lavozimlari mansabdor shaxslarning qarindoshlari bilan almashtirilgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bilan tez-tez yoki katta miqdordagi tekshiruvlar o'tkazish;

- moliyaviy va xo'jalik operatsiyalarini qonunchiligining aniq (hatto mutaxassis uchun ham) buzilishi bilan amalga oshirish.

Korrupsiya xavf-xatarlarining idoraviy xaritasi va korrupsiyaga qarshi idoraviy dasturlar tuzish va ularni baholash masalalari

Korrupsiya xavf-xatarlarini har yili baholash natijalariga ko'ra ishchi guruh tomonidan 10 yanvargacha bo'lgan muddatda quyidagilar tuziladi:

faoliyat sohasi, davlat xizmatchilarining korrupsiya xavf-xatarlariga ko‘proq moyil bo‘lgan funksiya (vakolat)lari ro‘yxati, korrupsiya xavf-xatarlarining darajasi va ularni kamaytirish choralarini o‘z ichiga oladigan shaklda korrupsiya xavf-xatarlarining idoraviy xaritasi;

Korrupsiya xavf-xatarlarining idoraviy xaritasi

(davlat organining nomi)

Korrupsiya xavf-xatarlariga ko‘proq moyil bo‘lgan bo‘lgan funksiya (vakolat)lar	Ehtimoli mavjud korrupsiviy sxemaning qisqacha tavsifi	Korrupsiya xavf-xatariga ko‘proq moyil bo‘lgan bo‘linma va lavozimlar	Xavf-xatar darajasi (past, o‘rtacha, yuqori)	Korrupsiya xavf-xatarini minimallashtirish (bartaraf qilish) choralar
--	---	--	---	--

I._____

(faoliyat sohasining nomi)

Markaziy apparat darajasi

.				

Hududiy bo‘linmalar darajasi

.				

Idoraviy bo‘ysunuvchi tashkilotlarning darajasi

.				

II._____

<i>(faoliyat sohasining nomi)</i>					
Markaziy apparat darajasi					
.					
.					
Hududiy bo'linmalar darajasi					
.					
.					
Idoraviy bo'ysunuvchi tashkilotlarning darajasi					
.					
.					
....					

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar, mas'ul shaxslar, moliyaviy va boshqa resurslar, amalga oshirish muddatlari belgilangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy dasturlar.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy dastur

_____ yil uchun

(davlat organining nomi)

Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
I. Korrupsiyaga qarshi tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish			
.			

.				
..				

**II. Odob-ahloq qoidalarga rioxqa qilish va manfaatlar to'qnashuvini
hal qilish bo'yicha chora-tadbirlar**

.				
.				
..				

**III. Idoralar faoliyati ochiqligini ta'minlash va fuqarolik jamiyatini
bilan aloqalarni mustahkamlash**

.				
.				
..				

**IV. Xodimlar va aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish,
jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish**

.				
.				
..				

V. Monitoring va tadqiqot ishlarini tashkil qilish

.				
.				
..				

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning idoraviy xaritasi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy dasturlar loyihalarini ekspert baholash uchun fuqarolik jamiyatining manfaatdor institutlarining, OAV vakillarini, jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika/hududiy idoralalararo komissiyalar a'zolarini jalg qilish maqsadga muvofiq.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Milliy/hududiy kengashlar bilan kelishilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarining idoraviy xaritasi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy dasturlar loyihalari davlat organining rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Zaruratga ko'ra, korrupsiya xavf-xatarlarining idoraviy xaritasi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy dasturlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bilan bog'liq masalalar Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralalararo komissiyasini oldindan xabardor qilgan holda davlat organining rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Davlat organlari har yili 10-yanvarga qadar Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika/hududiy idoralalararo komissiyalarga o'tgan kalendar yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy dasturni amalga oshirish natijalari to'g'risida yakuniy hisobot taqdim etadilar.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy dasturning to'liq bajarilishi ustidan ichki idoraviy nazorat davlat organining tashkiliy-kadrlar tuzilmalari yoki ichki xavfsizlikni ta'minlash bo'linmasi tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar amalga oshirilishini monitoring qilish va baholashning asosiy maqsadi – davlat organlarida O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturlarining ijro etilishi, davlat organlari xodimlarining odob-axloq qoidalariga amal qilinishi samaradorligini oshirish, bu borada davlat organlarining mas'uliyatini kuchaytirish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yangi innovatsion uslublarni joriy qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish va amalda tatbiq etishdan iborat.

Davlat boshqaruvi sohasida korrupsianing oldini olishga doir chora-tadbirlar amalga oshirilishini monitoring qilish va baholashda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

Idoralararo komissiya tomonidan davlat boshqaruvi va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining davlat boshqaruvi sohasida korrupsianing oldini olishga doir chora-tadbirlar amalga oshirilishini monitoring qilish va baholash natijalari asosida:

86 balldan 100 ballgacha natija ko'rsatgan davlat organlarining korrupsiyaga qarshi ko'rashish bo'yicha faoliyati "a'lo";

71 balldan 86 ballgacha natija ko'rsatgan davlat organlarining korrupsiyaga qarshi ko'rashish bo'yicha faoliyati "yaxshi";

55 balldan 71 ballgacha natija ko'rsatgan davlat organlarining korrupsiyaga qarshi ko'rashish bo'yicha faoliyati "qoniqarli";

55 balldan past natija ko'rsatgan davlat organlarining korrupsiyaga qarshi ko'rashish bo'yicha faoliyati "qoniqarsiz" deb hisoblanadi.

Milliy kengash tomonidan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga davlat organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyati "a'lo" deb hisoblangan mansabdor shaxslari va xodimlarini rag'batlantirish yoki faoliyati "qoniqarsiz" deb hisoblangan mansabdor shaxslari va xodimlariga nisabatan intizomiy javobgarlikka tortish bo'yicha takliflar kiritiladi;

faoliyati "qoniqarsiz" baholangan davlat organlarining mas'uliyatini oshirish hamda ularga korrupsianing oldini olishga doir chora-tadbirlarni samarali tashkil etishda ko'maklashish bo'yicha tavsiyalar beradi;

davlat organlarining davlat boshqaruvi sohasida korrupsianing oldini olishga doir chora-tadbirlar amalga oshirilishini monitoring qilish va baholash natijalarini ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi;

davlat organlarining davlat boshqaruvi sohasida korrupsianing oldini olishga doir chora-tadbirlar amalga oshirilishini monitoring qilish va baholash natijasi bo'yicha tayyorlangan tahliliy axborotni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalari va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritadi.

Samaradorlik indikatorlari bo'yicha davlat organlari tomonidan Idoralararo komissiyaga axborot tizimi orqali taqdim etiladigan ma'lumotlarning to'g'rilingiga tegishli davlat organlarining rahbarlari mas'ul hisoblanadi.

IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-AMALIY MASHG‘ULOT:OLIY TA’LIM SOHASIGA OID QONUNOSTI HUJJATLARI VA ULARNING TURLARI.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi 2023-yil 11-sentabrdagi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta’lim tizimiga oid farmonlari va qarorlari: O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi. Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘sishma chora-tadbirlar. Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy ta’lim tizimiga oid qarorlari: Magistratura to‘g‘risidagi nizom. Oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish, talabalar o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish tartibi. Oliy ta’lim muassasasida sirtqi (maxsus sirtqi) va kechki (smenali) ta’limni tashkil etish tartibi. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish. Oliy ta’lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi oliy ta’limni olish. Oliy ta’lim tashkilotlarida masofaviy ta’lim shaklini joriy masalalar bo‘yicha tarqatma materiallardan foydalaniladi.

Mavzu bo‘yicha dars olib borish metodikasi:

- ✓ Ma’ruzani o‘tish jarayonida texnologik xaritada ko‘rsatilgan axborot-kommunikativ va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanilishi nazarda tutiladi;
- ✓ Ma’ruza mavzusining dolzarbliji, o‘rganilganlik darajasi, bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar mazmuni haqida tushuncha beriladi;
- ✓ Mavzuga oid milliy va xalqaro normativ hujjatlar bilan tanishtiriladi va tahlil qilinadi;
- ✓ Reja asosida slaydlar yordamida qonunosti normalarini huquqiy tartibi tushuntiriladi;
- ✓ Qonunosti hujjatlari o‘rganiladi va tahlil qilinadi;
- ✓ Munozarali (nazariy) savollar o‘rtaga tashlanadi va ularga baho beriladi;
- ✓ Muammoli masalalar tarqatiladi va ularning yechimi eshitiladi;
- ✓ Zaruriyat tug‘ilganda, masala va savollar uygaga topshiriq sifatida beriladi;
- ✓ Asosiy tushunchalar, savol-javoblar umumlashtirilib, ma’ruzaga yakun yasaladi.

Tayanch tushunchalar:

- **Malaka** - shaxsning kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma’lumot to‘g‘risidagi tegishli hujjat bilan

tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko‘nikmalar darajasi.

➤ **Malaka amaliyoti** — o‘quv jarayonining nazariy bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko‘nikma hosil qilish, o‘quv rejalari va o‘quv dasturlarning ma’lum (yakuniy) qismidagi mavzu bo‘yicha materiallar to‘plash uchun o‘tkaziladigan bir qismi.

➤ **Malaka talablari** — oliy ta’lim tegishli bosqichi bitiruvchisining bilim, ko‘nikma va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar;

➤ **Modul** - tarbiyalash, o‘qitishga o‘rnatilgan maqsadlar va natijalarga nisbatan muayyan mantiqiy tugallanganlikka ega bo‘lgan o‘quv fan (kursi) yoki o‘quv fanlari (kurslari) qismlarining majmuasi.

➤ **Mutaxassislik** - malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi.

➤ **Oliy ma’lumot haqida davlat hujjati (diplom)** — akkreditatsiyadan o‘tgan oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilariga beriladigan va ularning oliy ta’limning o‘quv rejalari va o‘quv dasturlarini bajarganliklarini tasdiqlovchi davlat namunasidagi hujjat. Hujjat uzluksiz ta’limning keyingi bosqichlarida o‘qishni davom ettirish yoki olingan akademik darajaga muvofiq ishlash huquqini beradi.

➤ **Oliy ta’lim muassasasi akkreditatsiyasi** — oliy ta’lim muassasasi faoliyati darajasini davlat ta’lim standartlarining mezon va talablariga javob berishi hamda bitiruvchilar oliy ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlarni berish huquqining davlat tomonidan e’tirof etilishi.

➤ **Oliy ta’lim muassasasi attestatsiyasi** — davlat ta’lim standartlariga muvofiq oliy ta’lim muassasasi faoliyatini baholash va kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatini aniqlash bo‘yicha davlat nazoratining asosiy shakli.

➤ **Oliy ta’limning bakalavriat yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari klassifikatori** O‘zbekiston Respublikasining axborotlarni kodlash va tasniflash yagona tizimining (KTYAT) tarkibiy qismidir. Mazkur davlat standarti O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-sod “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 5 yanvardagi 5-sod “Uzluksiz ta’lim tizimi uchun davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to‘g‘risida”gi qarorlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

➤ **Tajriba orttirish (ishlab chiqarishda, ilmiy-tadqiqot muassasasida, xorijda tajriba orttirish)** — magistratura mutaxassisligi bo‘yicha maqsadli kasbiy ta’lim o‘quv reja va o‘quv dasturlarini o‘zlashtirish, magistratura talabalarida ilmiy-

tadqiqot kompetensiyalarni shakllantirish maqsadida ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini rivojlantirish yo'li orqali magistrarlarni eng yangi ilmiy-texnik rivojlanishdagi yutuqlar hamda iqtisod, fan, mudofaa, texnika, madaniyat va sog'liqni saqlash va boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bazasida ilmiy tadqiqot olib borishi.

- **Ta'lim sifatini nazorat qilish** - o'qitish mazmuni va natijalarining davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiqligini tekshirish.
- **Ta'lim sifatini nazorat qilish** — o'qitish mazmuni va natijalarining davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiqligini tekshirish.
- **Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari** - ta'lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari.
- **O'qitish sifatini nazorat qilish** - talabaning bilim saviyasini tekshirish va uning o'quv dasturini o'zlashtirish darajasini aniqlash.
- **O'qitishning meyoriy muddati** - ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv rejalarini va fanlar dasturi o'zlashtirilishi uchun belgilangan muddat.
- **O'quv dasturi** — ta'lim mazmunini belgilovchi o'quv fanining asosiy mavzulari, mazmuni, o'zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan hujjat.
- **O'quv yili** — oliy ta'lim muassasasida bir ta'lim kursini yakunlashga mo'ljallangan o'quv faoliyati davri. O'quv yili ikki kalendar yil bilan belgilanadi, masalan, 2021/2022 o'quv yili.
- **O'quv reja** — oliy ta'limning muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o'rganishning izchilligi, soatlar va kreditlardagi hajmini ta'lim davrining to'liq muddati uchun belgilaydigan hujjat.
- **O'quv semestri** — oliy ta'lim muassasasida o'quv yilining yarmini tashkil etuvchi o'zaro bog'langan fanlarning ma'lum majmuini o'zlashtirishga mo'ljallangan va ular bo'yicha yakuniy nazorat bilan tugallanadigan qismi. Ayrim hollarda o'quv semestri o'quv yilining uchdan bir qismini tashkil etishi mumkin.
- **O'quv fani** — ta'lim jarayonida muayyan ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklar bo'yicha o'zlashtirilishi zarur bo'lgan tegishli ilmiy, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy sohalardan saralab olingan bilim va ko'nikmalar tizimi.
- **O'quv fanlari bloki** - o'quv rejalarini va fanlar dasturlarining kadrlar tayyorlash jarayonida aniq maqsad va vazifalarga erishish uchun muayyan bilim sohasi yoki faoliyatning o'zlashtirilishini ta'minlaydigan o'quv fanlarini birlashtiruvchi tarkibiy qismi.

- **O'quv yuklama** — o'quv dasturlarni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan akademik soatlar hajmi.
- **Farmoyish** vakolatli davlat organlari yoki mansabдор shaxslar tomonidan kechiktirib bo'lmaydigan va tezda bajarilishi lozim bo'lgan masalalar bo'yicha qabul qilinadigan normativ hujjat.
- **Farmon** O'zbekiston Respublikasi davlat boshlig'i tomonidan turmushda, hayotda, xalq xo'jaligida, iqtisodiyotda, ta'limda, ishlab chiqarishda va boshqa sohalarda juda katta o'zgarishlarga olib keladigan o'ta muhim masalalarni tartibga solish va mustahkamlash yuzasidan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari asosida hamda ularni ijro etish uchun qabul qilinadigan normativ hujjat.
- **Eksternat tartibidagi ta'lim** olish o'quv dasturlarini mustaqil ravishda o'zlashtirishni o'z ichiga olib, uning yakunlari bo'yicha ta'lim oluvchilardan davlat ta'lim muassasalarida yakuniy va davlat attestatsiyalaridan o'tishni talab etadi.
- **Yuridik kuchi bo'yicha** oliy yuridik kuchga ega bo'lgan qonun hujjatlari hamda – qonunlarga asoslangan va ularga zid kelmaydigan hujjatlari – qonunosti hujjatlari alohida ajratib ko'rsatiladi. Qonunlardan tashqari, mutlaq barcha normativ hujjatlari qonunosti hujjatlari hisoblanadi.
- **Yakuniy davlat attestatsiyasi** - bakalavr yoki magistr darajasiga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq holda, ma'lum talab va tartibotlar vositasida bitiruvchi tomonidan oliy ta'lim o'quv reja va dasturlarining bajarilishi sifatini baholash.
- **Yakuniy davlat attestatsiyasi** — bakalavr yoki magistr akademik darajasiga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq holda, ma'lum talab va tartib asosida (fanlar bo'yicha davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi yoki magistrlik dissertatsiyasi himoyasi) bitiruvchi tomonidan oliy ta'lim o'quv reja va o'quv dasturlarining o'zlashtirish darajasi hamda sifatini baholash jarayoni.

Oliy ta'lim sohasiga oid qonunosti normativ huquqiy hujjatlari haqida so'z ketganda, qonun osti normativ huquqiy hujjatlari o'zi nima eganligini ta'kidlash lozim. O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlari to'g'risida"gi Qonunda rasman mustahkamlab qo'yilganidek, O'zbekiston Respublikasida barcha qonunchilik hujjatlari ikki xil ko'rinishda namoyon bo'ladi:

1) Qonunlar 2) Qonun osti hujjatlari

O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarining ikkinchi turi – **bu qonun osti hujjatlaridir**. Qonun asosida tashkil etilgan hamda unga zid bo'lмаган vakolatli organlarning huquq ijodkorligi hujjatlari qonun osti hujjatlari hisoblanadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar, davlat

qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

Qonunosti hujjatlari tushunchasi ularning hammasi uchun umumiy va xosdir. Shuning uchun normativ farmoyishlarni qabul qiluvchi (chiqaruvchi) organlarga bog'liq ravishda qonunosti hujjatlarining quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish odatga aylangan.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari asosida hamda ularni ijro etish uchun **farmonlari va qarorlari** tarzida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari asosida hamda ularni ijro etish uchun qarorlar tarzida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar o'z vakolati doirasida buyruqlar hamda qarorlar tarzida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari asosida hamda ularni ijro etish uchun qabul qilinadi.

Buyruqlar vazirlar tomonidan yoki idora nomidan qarorlar qabul qilish yakka tartibda amalga oshiriladigan idoralar rahbarlari tomonidan qabul qilinadi.

Qarorlar davlat qo'mitalari tomonidan yoki idora nomidan qarorlar qabul qilishni mazkur idoraning kollegial organi amalga oshiradigan idoralar tomonidan qabul qilinadi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari yoki idoralar bilan kelishilgan holda qabul qilinishi mumkin.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar tomonidan qo'shma qarorlar tarzida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi mumkin.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning tarkibiy bo'linmalari hamda hududiy organlari normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilishga haqli emas.

Demak, yuqoridaq ko'rsatilgan davlat hokimiyati organlari ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning qonun osti normativ huquqiy hujjatlarin qabul qilish huquqiga ega hisoblanadi.

Prezident hujjatlari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Konstitutsiyaga va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo'lgan farmonlar va qarorlar chiqaradi. Konstitutsiya Prezidentdan «qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan» farmonlar chiqarishni talab qilmaydi. Aslida Prezidentga o'z farmonlari bilan qonun darajasidagi normalarni o'rnatish huquqi beriladi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan Oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish uchun bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

2023-yil 30-aprelda o'tkazilgan referendumda umumxalq ovoz berish orqali O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi Yangi O'zbekistonni barpo etishning konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq o'tkazilgan prezidentlik saylovi yana bir bor jamiyatimizning siyosiy yetukligi, Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlarni xalqimiz to'liq qo'llab-quvvatlaganidan dalolat bermoqda.

Shu bilan birga, yangilangan konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini takomillashtirish va amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish talab etilmoqda.

Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash maqsadida, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan «O'zbekiston — 2030» strategiyasi tasdiqlandi(O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risidagi 2023-yil 11-sentabrdagi Farmoni).



“ЎЗБЕКИСТОН – 2030” СТРАТЕГИЯСИННИГ УСТУВОР ЙўНАЛИШЛАРИ:

I	ХАР БИР ИНСОНГА ЎЗ САЛОҲИЯТИНИ РЎЁБГА ЧИКАРИШИ УЧУН МУНОСИБ ШАРОИЛЛАРНИ ЯРАТИШ	44 та мақсад
II	БАРҚАРОР ИҚТИСОДИЙ ЎСИШ ОРҚАЛИ АҲОЛИ ФАРОВОНЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ	17 та мақсад
III	СУВ РЕСУРСЛАРИНИ ТЕЖАШ ВА АТРОФ МУҲИТНИ МУХОФАЗА ҚИЛИШ	12 та мақсад
IV	КОНУН УСТУВОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ, ХАЛҚ ХИЗМАТИДАГИ ДАВЛАТ БОШҚАРУВИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ	16 та мақсад
V	“ХАВФСИЗ ВА ТИНЧЛИКСЕVAR ДАВЛАТ” ТАМОЙИЛИГА АСОСЛАНТАН СИЁСАТНИ ИЗЧИЛ ДАВОМ ЭТТИРИШ	11 та мақсад

www.strategy.uz [@dscuzbekistan](#) [@dsc_uzb](#) [@dscuzbekistan](#) [@dscuzbekistan](#) [@dscuzbekistan](#) Development Strategy Center

**I.ХАР БИР ИНСОНГА ЎЗ САЛОҲИЯТИНИ РЎЁБГА
ЧИҚАРИШИ УЧУН МУНОСИБ ШАРОИТЛАРНИ ЯРАТИШ**
устувор йўналишининг асосий самарадорлик кўрсаткичлари



Ахолининг **ўртча**
умр давомийлигини
78 ёшга етказиш;



Тиббий ёрдамга муҳтож
ахолининг **70 фоиз** мурожаат-
ларини **бирламчи бўғиннинг**
ўзида ҳал этишга эришиш;



Болаларни мактабгача таълим ва тайёрлов гурӯхлари билан тўлиқ
қамраб олиш, “**Топ-500**”га кирадиган хорижий университетлар билан
ҳамкорликда камида **50 та** қўшма таълим дастури асосида “**икки
дипломли тизим**”ни жорий этиш;



2026 йилга қадар
камбағалликни 2022 йилга нисбатан
2 Баробарга камайтириш.

www.strategyuz [@dscuzbekistan](#) [@dsc_uzb](#) [@dscuzbekistan](#) [@dscuzbekistan](#) [Development Strategy Center](#)



Strategiya **Germaniya, Fransiya, Koreya tajribalari** асосида yangi usulda
ishlab chiqilgan bo‘lib, uning maqsadlari va samaradorlik ko‘rsatkichlari аholi
tomonidan oson qabul qilib, tushunish uchun qulay shaklda bayon etilgan

HAR BIR INSONGA O‘Z SALOHIYATINI RO‘YOBGA CHIQARISHI UCHUN MUNOSIB SHAROITLARNI YARATISH

Ta’lim tizimi islohotlari

**1. Maktabgacha ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda
bolalarning to‘liq qamrovini ta’minlash.**

2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari

Bolalarni maktabgacha ta’lim va tayyorlov **guruhlari bilan to‘liq qamrab**
olish.

Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini **100 foiz kompyuter sinfi** bilan
ta’minlash orqali tarbiyalanuvchilarda **boshlang‘ich kompyuter savodxonligi**
ко‘nikmalarini shakllantirish.

100 foiz maktabgacha ta’lim tashkilotlarini **toza ichimlik suv va zamonaviy**
sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan ta’minlash.

**2. Umumi o‘rta ta’lim tizimida «Ta’lim uchun qulay muhit» dasturini
amalga oshirish.**

2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari

Olis va chekka hududlarda joylashgan **715 та** umumi o‘rta ta’lim
muassasalari o‘quvchilari uchun bepul avtobuslarni yo‘lga qo‘yish.

Umumiy o'rta ta'lismuassasalarini toza ichimlik suv va zamonaviy sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan to'liq ta'minlash.

3. Umumiy o'rta ta'lismi yangi bosqichga olib chiqish.

2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko'rsatkichlari

700 ga yaqin nomdag'i yangi darsliklar, mashq daftarlari, pedagoglar uchun metodik qo'llanmalar va mobil ilovalar yaratish.

Yangi avlod darsliklari asosida planshetlar uchun **1 000 ta** multimedia dasturlarini yaratish.

Ta'lism tashkilotlariga har yili **500 nafar** «til egalari» bo'lgan xorijiy mutaxassislarni jalg etish.

Barcha umumiy o'rta ta'lismuassasalarida kasb-hunarlargaga o'rgatish kurslarini joriy etish.

Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablarning **ta'lim metodikasini barcha umumiy o'rta ta'lismuassasalarining o'quv jarayonlariga** жорий qilish.

4. Pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilimi va malakasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish

2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko'rsatkichlari

1 000 nafar tarbiyachi va o'qituvchilarni xorijiy mamlakatlarga malaka oshirish va stajirovkaga yuborish.

Maktabgacha ta'lism tashkilotlari va umumiy o'rta ta'lismuassasalari pedagog xodimlarining o'rtacha ish haqini **2 barobar** oshirish.

500 ming nafar maktabgacha ta'lism tashkilotlari va umumiy o'rta ta'lismuassasalari xodimlarining malakasini uzluksiz oshirish.

Ehtiyoj yuqori bo'lgan yo'nalishlar va olis hududlardagi abituriyentlar uchun pedagogik ta'lism yo'nalishlari bo'yicha kadrlarni **to'liq davlat granti asosida tayyorlash** tizimini joriy qilish.

5. Umumiy o'rta ta'lismi rivojlantirish uchun xususiy sektorni keng jalg qilish.

2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko'rsatkichlari

Nodavlat umumiy o'rta ta'lism tashkilotlari sonini **1 000 taga** yetkazish.

Kelgusi besh yilda nodavlat umumiy o'rta ta'lism tashkilotlari faoliyatini yo'lga qo'yish uchun **1 trillion** so'm miqdorida imtiyozli kreditlar ajratish.

2024-yildan boshlab har yili **davlat-xususiy sheriklik asosida kamida 100**

tadan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari qurilishi bo‘yicha shartnomalar tuzish.

Nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o‘quvchilar ulushini **3 barobarga** oshirish.

Davlat-xususiy sheriklik asosida va xalqaro moliya institutlaridan jalg qilinadigan mablag‘lar hisobidan **2 milliard dollarlik umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish** loyihalarini amalga oshirish.

6. Professional ta’lim tizimini rivojlantirish orqali o‘quvchilarni zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga o‘rgatish.

2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari

700 ta professional ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va moddiy-texnika bazasini takomillashtirish.

14 ta hududiy professional tayyorgarlik markazlarini tashkil etish, malaka toifasiga ega bo‘lgan pedagog kadrlar ulushini **50 foizga**, masofaviy ёки аралаш шакllarda tashkil etiladigan malaka oshirish kurslari ulushini **30 foizga** yetkazish.

O‘rta bo‘g‘in mutaxassislarini tayyorlashda davlat grantini **axborot texnologiyalari, qurilish, transport va logistika yo‘nalishlarida 100 foizga** yetkazish.

7. Oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish.

2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari

Yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasini kamida **50 foizga** yetkazish.

Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarini **oliy ma’lumotli** pedagog kadrlar bilan to‘liq ta’minlash.

30 ta oliy ta’lim muassasasining ta’lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazish.

«Top-500»ga kiradigan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda kamida **50 ta** qo‘shma ta’lim dasturi asosida «**ikki diplomli tizim**»ni joriy etish.

10 ta oliy ta’lim muassasasini dunyoning eng nufuzli «**Top-1 000**» oliy ta’lim tashkilotlari reytingiga kiritishga erishish.

Oliy ta’lim muassasalarida **ilmiy tadqiqotlar natijadorligini** oshirish va ilmiy salohiyatni **70 foizga** yetkazish.

8. Oliy ta’lim muassasalari tashkiliy-boshqaruva faoliyatini takomillashtirish, ularning moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash.

2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari

5 ta oliy ta’lim muassasasini milliy tadqiqot oliygohlariga aylantirish.

Qo‘sishimcha **120 ming** o‘rinli o‘quv binolari hamda **150 ming** o‘rinli talabalar turar joylarini qurish.

Kutubxonalarni kamida **1 million** ta zamonaviy adabiyotlar bilan **to‘ldirish** va kutubxona fondini to‘liq raqamlashtirish.

9. Fundamental tadqiqotlarni zamon talablaridan kelib chiqib yangi yo‘nalishlar bilan boyitish.

2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari

Fundamental tadqiqotlarni amalga oshirish uchun **3 trillion** so‘m mablag‘ ajratish.

Fundamental tadqiqot yo‘nalishi bo‘yicha **8 ta** yetakchi xorijiy ilmiy maktablar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.

Til va adabiyot, tarix, arxeologiya, madaniyat va san’at yo‘nalishlaridagi ilmiy dasturlar uchun **2 trillion** so‘m ajratish.

10.Iqtisodiyotning eng tez o‘sib borayotgan yo‘nalishlarida amaliy tadqiqotlarni kuchaytirish, «korxona — oliygoh — ilmiy tashkilot» klaster tizimini joriy etish.

2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari

Amaliy tadqiqotlarga Davlat budgetidan **4 trillion** so‘m mablag‘ yo‘naltirish.

Iqtisodiyot tarmoqlarining «drayver» yo‘nalishlarida **850 turdag‘** innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish.

Amaliy tadqiqotlar natijalari asosida **2,5 mingdan ziyod** yangi ilmiy ishlanmalar yaratish.

Transport va logistika, qishloq xo‘jaligida hosildorlik, energetika, biotexnologiya, geologiya va metallni qayta ishslash, mashinasozlik va elektronika yo‘nalishlarida **8 ta ilmiy ishlab-chiqarish klasterini** tashkil etish.

11. Yosh tadqiqotchilarining ulushini oshirish, ularning ilmiy izlanishlarini qo‘llab-quvvatlash.

2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari

40 yoshgacha bo‘lgan tadqiqotchilarining ulushini kamida **60 foizga** yetkazish, ilmiy tashkilot xodimlarining ish haqini o‘rtacha **2 barobarga** oshirish.

Ilmiy, amaliy, innovatsion va startap loyihalarni moliyalashtirish bo‘yicha yillik tanlovlardan sonini **20 taga** yetkazish.

Stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura, doktorantura hamda maqsadli

doktorantura kvotalari sonini **5 200 taga** yetkazish.

12. Barcha yo'nalishlarda innovatsion faoliyatni keng joriy etish, ilmiy tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash.

2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko'rsatkichlari

O'zbekiston Global Innovatsion Indeksda **Top-50** talik mamlakatlar ro'yxatiga kirishini ta'minlash.

Har bir million aholiga to'g'ri keladigan tadqiqotchilar sonini **2 ming** nafarga yetkazish.

Ichki va tashqi bozorlarda tijoratlashtirish natijasida yaratiladigan yangi innovatsion ishlanmalar sonini **2 baravarga** oshirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida" 2019-yil 27-avgustdagি PF-5789-sон Farmoniga ko'ra, So'nggi yillarda oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarining (keyingi o'rinnlarda — rahbar va pedagog kadrlar) kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari o'quv jarayoniga o'qtishning zamonaviy shakl va texnologiyalari, jumladan masofaviy ta'lim, vebinar texnologiyalari, avtomatlashgan monitoring, elektron portfolio axborot tizimlari joriy etilmoqda.

Shu bilan birga, rahbar va pedagog kadrlar malakasini oshirishning amaldagi tartibi samarasi past bo'lganligi, ko'p resurs sarflashni talab etayotgani hamda zamonaviy talablarga javob bermayotganligi, ushbu jarayonga innovatsion yondashuvlarni joriy etishni hamda kadrlarning kasbiy kompetentligini doimiy rivojlantirish mexanizmlarini qo'llashni talab etmoqda.

Rahbar va pedagog kadrlarning malakasini oshirish tizimini yangi bosqichga ko'tarish, ularning kasbiy malakasini oshirishning zamonaviy shakllarini hamda ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyat natijalarini inobatga oladigan tabaqalashtirilgan va muqobil uzluksiz malaka oshirish tizimini amaliyotga keng joriy etish maqsadida, rahbar va pedagog kadrlarning uzluksiz malakasini oshirish tizimining asosiy vazifalari etib belgilangan:

1) rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy bilimi, ko'nikmalari va mahoratini uzluksiz yangilab borish mexanizmlarini joriy etish, zamonaviy talablarga muvofiq oliy ta'lim sifatini ta'minlash uchun zarur darajada kasbiy tayyorgarlikni oshirish;

2) malaka oshirishning bevosita va kasbiy faoliyatga aloqador bilvosita shakllarini variativ va bir-birini to'ldirish tamoyillari asosida amaliyotga joriy etishini ta'minlash va monitoring olib borish;

3) rahbar va pedagog kadrlarning ilmiy-pedagogik salohiyatidan kelib chiqib

ularning kasbiy ehtiyojlarni qanoatlantirishga yo'naltirilgan uzlusiz malaka oshirishning shakllarini mustaqil tanlash va o'zlashtirish imkoniyatini yaratish;

4) rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini muntazam oshirish asosida ularning ilmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot hamda o'qitilayotgan fanlar bo'yicha innovatsiyalar, shuningdek o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari sohalaridagi ko'nikmalarini rivojlantirish;

5) yuqori samarali zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalar, ilg'or xorijiy tajribani keng joriy etgan holda rahbar va pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha malaka talablari, o'quv rejalarini va dasturlarini doimiy yangilab borish, ularning faoliyatini zarur darajada tashkil etish va samaradorligini ta'minlash;

6) rahbar va pedagog kadrlarda Internet jahon axborot tarmog'i, multimedia tizimlari va masofadan o'qitish usullaridan foydalangan holda, ilg'or pedagogika, axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalarni egallash va ularni o'quv jarayoniga faol tatbiq etish ko'nikmalarini rivojlantirish;

7) rahbar va pedagog kadrlarning chet tilini amaliy o'zlashtirish darajasini oshirish, o'z kasbiy mahoratini, pedagogik va ilmiy faoliyati samaradorligini muttasil oshirib borish imkoniyatlarini yaratish.

- Rahbar va pedagog kadrlarning uzlusiz malaka oshirishi;
- mutaxassislik bo'yicha mustaqil malaka oshirish;
- muqobil malaka oshirish;
- ta'lim dasturlari asosida ixtisoslashtirilgan qayta tayyorlash va malaka oshirish muassasalarida bevosita o'qish shakllarini o'z ichiga oladi.

Bunda, rahbar va pedagog kadrlarga ularning kasbiy, o'quv-metodik va ilmiy-pedagogik faoliyati natijalaridan kelib chiqib, muqobil malaka oshirish yoki ta'lim dasturlari asosida o'qish shakllarini tanlash imkoniyati beriladi.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 y. PF-5847-sون "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar

tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldaggi PQ-4391-son “Oliy va o'rta maxsus ta'limgiz tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan.

Konsepsiya O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limgiz rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalishlari, vazifalari, o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda sohaga oid dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.

Unda quyidagilar nazarda tutilgan(qisqacha):

oliy ta'limgiz sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'limgiz muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta'limgiz bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish;

O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini mamlakatimiz oliy ta'limgiz muassasalarining flagmaniga aylantirish;

respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'limgiz muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta o'rindagi oliy ta'limgiz muassasalari ro'yxatiga, shu jumladan, O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o'rindagi oliy ta'limgiz muassasalari ro'yxatiga kiritish;

oliy ta'limgiz muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish;

xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'larning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan, o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limgizdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limgiz tizimiga bosqichma-bosqich o'tish;

oliy ta'limgiz mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish;

oliy ta'limgiz muassasalarining akademik mustaqilligini ta'minlash;

oliy ta'limgiz muassasalarida ta'limgiz, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi “Universitet 3.0” konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish(“Uchinchi avlod universiteti”, yoki “Universitet 3.0”, esa fan-ta'limgiz bilan bir qatorda innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyati bilan ham shug'ullanadi);

xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar ko'lамини kengaytirish va boshqa budjetdan tashqari mablag'lar hisobiga oliy ta'limga muassasalarida texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startap, akselerator markazlarini tashkil etish hamda ularni tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qiluvchi va prognozlashtiruvchi ilmiy-amaliy muassasalar darajasiga olib chiqish;

oliy ta'limga muassasalari professor-o'qituvchilar, ilmiy izlanuvchilar, doktorantlari, bakalavriat va magistratura talabalarining yuqori impakt-faktorga ega nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etishi, maqolalarga iqtiboslik ko'rsatkichlari oshishi, shuningdek, respublika ilmiy jurnallarini xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasiga bosqichma-bosqich kiritilishini ta'minlash;

O'zbekiston oliy ta'limga tizimini Markaziy Osiyoda xalqaro ta'limga dasturlarini amalga oshiruvchi "xab"ga aylantirish;

oliy ta'larning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xorijiy ta'limga ilm-fan texnologiyalarini jalb etish;

talaba-yoshlar ta'limga-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyatga tatbiq etish;

oliy ta'limga muassasalarining infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasini, shu jumladan, xalqaro moliya institutlarining imtiyozli mablag'larini keng jalb qilish hisobiga yaxshilash, ularni bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash;

ta'larning ishlab chiqarish korxonalari va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan o'zaro manfaatli hamkorligini yo'lga qo'yish;

aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, shu jumladan, imkoniyati cheklangan shaxslarning oliy ta'limga bilan qamrov darajasini oshirish, ular uchun infratuzilmaga oid sharoitlarni yaxshilash.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sodan Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limga tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan vazifalar ijrosini izchil ta'minlash, shuningdek, oliy ta'limga muassasalarining mustaqilligini kengaytirish, ular faoliyatida davlat ma'muriy boshqaruvini keskin kamaytirish hamda shu orqali o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga javob bera oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlovchi davlat oliy ta'limga muassasalarini shakllantirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.12.2021 y. PQ-60-sodan "Davlat oliy ta'limga muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilingan.

2022/2023 o‘quv yilidan boshlab moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta’lim muassasalariga quyidagi qo‘srimcha vakolatlar berilsin:

a) akademik mustaqillik sohasida:

o‘quv rejalari, o‘quv dasturlari, malaka talablarini kasbiy standartlar asosida tasdiqlash, ta’lim tilini hamda ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari xususiyatlarini inobatga olgan holda ta’lim olish shaklini belgilash;

bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun o‘qish davomiyligi muddatlarini belgilash;

doktoranturada to‘lov-kontrakt asosida o‘qish qiymatini belgilash, budgetdan tashqari mablag‘lar hisobidan grant ajratish orqali doktoranturaga tanlov asosida kvotaga qo‘srimcha ravishda qabul qilish;

doktorant va mustaqil izlanuvchilarga ilmiy rahbarlik qilish tartibini tasdiqlash;

magistratura bosqichida ta’limning sirtqi, masofaviy va kechki shakllarini joriy etish, ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklar bo‘yicha qo‘s sh malakalar, shu jumladan amaliy malakalar berish tizimini joriy qilish;

o‘zaro kelishuvlar asosida oliy ta’lim muassasalari bilan akademik mobililikni amalga oshirish;

oliy ta’lim muassasasi va uning tuzilmasidagi ta’lim muassasalari uchun o‘z grifi asosida darsliklar hamda boshqa o‘quv va ilmiy adabiyotlarni yaratish va nashr etish;

ta’lim sifatini ichki nazorat qilish mexanizmlarini belgilash va joriy etish;

b) tashkiliy-boshqaruvdagi mustaqillik sohasida:

faoliyatining asosiy yo‘nalishi ta’lim, ilm-fan, uning natijalarini joriy etish hamda tijoratlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan, davlat budgeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilmaydigan tarkibiy tuzilmalar, tijorat va notijorat tashkilotlarni tashkil etish;

oliy ta’lim muassasalari uchun belgilangan normativlardan qat’i nazar muassasaning tuzilmasini tasdiqlash va shtat birliklari sonini belgilash;

mehnat bozoridagi ehtiyojdan kelib chiqib, yangi ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarni ochish, amaldagi ta’lim yo‘nalishlari hamda mutaxassisliklarni tugatish;

pedagog va boshqa xodimlarni ishga qabul qilish, ishdan ozod etish va ichki rotatsiyasiga oid tartibni belgilash;

xorijiy davlat fuqarolarini to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul qilish va

masofaviy ta’lim olish shaklida o‘qitishni tashkil etish.

Nazarda tutilgan vakolatlar oliy ta’lim muassasalari tomonidan qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o‘tkazish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2012-yil 24-iyuldagagi PF-4456-son Farmoniga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimida magistratura faoliyatini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2007-yil 10-sentabrdagi 190-son qaroriga muvofiq hamda oliy ta’lim muassasalarida magistrlar tayyorlash samaradorligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.03.2015 y. 36-son “Magistratura to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori qabul qilingan.

Magistratura faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish, kadrlar tayyorlash sifati va ularning raqobatbardoshligini kuchaytirish maqsadida ishlab chiqilgan hamda oliy ta’lim muassasalarida magistrlar tayyorlashning asosiy qoidalari va tartibini, umumqabul qilingan xalqaro standartlarga binoan magistrlik dissertatsiyasi mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan mezonlar va talablarni belgilaydi.

Magistratura to‘g‘risidagi nizomning amal qilishi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabiga;

O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘z faoliyatini yuritayotgan, o‘rnatilgan tartibda faoliyati xususiyatlari inobatga olinib, magistrlar tayyorlashni amalga oshirayotgan xalqaro va xorijiy oliy ta’lim muassasalariga tatbiq etilmaydi.

Toshkent davlat yuridik universitetining magistrurasiga qabul qilish va o‘qitish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bilan kelishilgan holda Toshkent davlat yuridik universiteti tomonidan belgilanadi

“Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan vazifalar hamda ta’lim tizimida amalga oshirayotgan islohotlarga muvofiq oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish, talabalar o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish tartibi va qoidalarni takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.06.2017 y. 393-son “Oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish, talabalar o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash

haqida”gi Qarori qabul qilingan.

Unga ko‘ra, Oliy ta’lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida nizom;

Oliy ta’lim muassasalarining magistraturasiga o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida nizom;

Oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish tartibi to‘g‘risida nizomlar tasdiqlangan.

Oliy ta’lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida nizom oliy harbiy hamda harbiylashtirilgan ta’lim muassasalariga va O‘zbekistonda faoliyat olib borayotgan xorijiy oliy ta’lim muassasalari hamda ularning filiallariga tatbiq etilmaydi.

Oliy ta’lim muassasalari qabulni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan tasdiqlangan davlat grantlari va to‘lov-kontrakt asosida qabul kvotalariga muvofiq amalga oshiradilar.

Oliy ta’lim muassasalarining kunduzgi, sirtqi, maxsus sirtqi va kechki (smenali) ta’lim shakllariga talabalarni qabul qilish O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha Davlat komissiyasi (keyingi o‘rinlarda Davlat komissiyasi deb ataladi) tomonidan kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon) natijalariga ko‘ra to‘plangan ballarning reyting tizimi bo‘yicha amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan tasdiqlangan to‘lov-kontrakt asosida qabul kvotalari doirasida hamda qabul kvotalaridan tashqari abituriyentlarni o‘qishga qabul qilish Davlat komissiyasi tomonidan mazkur Nizomda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Oliy ta’lim muassasalariga qabul barcha uchun (ham grantlar, ham to‘lov-kontrakt bo‘yicha) teng huquqlilik, yagona qabul qoidalari va yagona tanlov asosida amalga oshirilib, test sinovlarida eng yuqori ball to‘plagan abituriyentlarning davlat grantlari bo‘yicha birinchi navbatda qabul qilinish huquqi ta’milnadi. Qolgan abituriyentlar test ballari reytingi asosida belgilangan to‘lov-kontrakt kvotalari doirasida qabul qilinish huquqiga egadir.

Tanlov har bir oliy ta’lim muassasasi bo‘yicha ta’lim yo‘nalishlari, o‘qitish tillari va shakllariga ko‘ra alohida o‘tkaziladi. Ayrim yo‘nalishlar bo‘yicha hududlar kesimida maqsadli qabul kvotalari tasdiqlangan taqdirda, tanlov har bir hudud bo‘yicha alohida o‘tkaziladi.

Abituriyentlarga oliy ta’lim muassasalarining uchtagacha bakalavriat ta’lim yo‘nalishida tanlovda ishtirok etish huquqi beriladi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar alohida ajratilgan kvotalar doirasida, tanlangan

bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha tanlovda ishtirok etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o‘tab, harbiy qism qo‘mondonligining tavsiyanomalariga ega bo‘lgan abituriyentlar, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi vazirliklar va idoralarning xizmatdagi ofitserlari, kontrakt bo‘yicha xizmat qilayotgan serjantlar va oddiy askarlar tarkibidagi harbiy xizmatchilarining hamda Milliy gvardiyaning xizmatdagi xodimlarining farzandlari ular uchun alohida ajratilgan kvotalar doirasida tanlovda qatnashib, yetarli ball to‘plagan taqdirda tanlangan birinchi bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga tavsiya etiladi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o‘tab, harbiy qism qo‘mondonligining tavsiyanomalariga ega bo‘lganlar va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi vazirliklar va idoralarning xizmatdagi ofitserlari, kontrakt bo‘yicha serjantlar va oddiy askarlar tarkibidagi harbiy xizmatchilarining hamda Milliy gvardiyaning xizmatdagi xodimlarining farzandlari, maqsadli qabul bo‘yicha tanlovda ishtirok etish istagini bildirganlar ular uchun alohida ajratilgan kvotalar doirasida tanlovda qatnashib, o‘qishga tavsiya etilmagan taqdirda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tish jarayonida tanlangan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarida umumiy tartibda to‘plagan ballari bilan tanlovda ishtirok etadi.

Test sinovlarini o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi (keyingi o‘rinlarda Davlat test markazi deb ataladi) tomonidan amalga oshiriladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hamda oliy ta’lim muassasalari rektorlari (filial direktorlari) joylarda kirish imtihonlarini (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon) o‘tkazish uchun zarur sharoitlarni ta’minlaydilar.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 10.02.2006 y. 20-son “Oliy ta’lim muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2006 y., 2-son, 8-modda) bilan tasdiqlangan Oliy ta’lim muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi Nizomga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritildi(Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 25-avgustdagisi 246-son qarori). Unga ko‘ra Kafedra mudiri lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi ilmiy darajasiga, professor yoki dotsent ilmiy unvoniga, shuningdek tegishli mutaxassislik bo‘yicha xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (Ph.D) ilmiy darajasiga yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo‘lgan shaxs ishtirok etishi mumkin.

Dotsent (fan nomzodi, tegishli mutaxassislik bo‘yicha xorijiy mamlakatlarning

falsafa doktori (Ph.D) yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalari) kafedra mudiri lavozimini egallahsga bir besh yillik muddatga qo‘yiladi.

Bir muddat tamom bo‘lgandan keyin kafedra mudiri lavozimini egallab turgan va fan doktori ilmiy darajasini olmagan dotsent (fan nomzodi, tegishli mutaxassislik bo‘yicha xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (Ph.D) yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalari) faqat istisno hollarda oliy ta’lim muassasasi rektorining taqdimnomasiga binoan va bo‘ysunishi bo‘yicha tegishli vazirlik yoki idoraning ruxsati bilan kafedra mudiri lavozimini egallah uchun tanlovda yana ishtirok etishi mumkin.

Fan nomzodi, tegishli mutaxassislik bo‘yicha xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (Ph.D) yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo‘lgan aynan bir shaxsning kafedra mudiri lavozimiga tanlovda ketma-ket uchinchi muddatga ishtirok etishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Tillar, jismoniy tarbiya va sport, grafika va chizmachilik, madaniyat va san’at yo‘nalishlari kafedrasi mudiri lavozimini egallah uchun tanlovda ishtirok etishga dotsent ilmiy unvoniga (fan nomzodi, tegishli mutaxassislik bo‘yicha xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (Ph.D) yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga) ega bo‘lmagan, biroq kamida 5 yil metodik, ilmiy-pedagogik, ijodiy va tashkiliy faoliyat tajribasiga ega bo‘lgan shaxs qo‘yilishi mumkin.

Professor lavozimini egallah uchun tanlovda, qoidaga ko‘ra, professor ilmiy unvoniga yoki fan doktori yoki fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga, shuningdek tegishli mutaxassislik bo‘yicha xorijiy mamlakatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo‘lgan shaxs ishtirok etishi mumkin.

Professor lavozimini egallah uchun tanlovda fan nomzodi, falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga yoki tegishli mutaxassislik bo‘yicha xorijiy mamlakatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo‘lgan shaxs kamida 5 yil ilmiy-pedagogik ish stajiga ega bo‘lish, ushbu kafedraning ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari muallifi bo‘lish sharti bilan bir muddatga ishtirok etishi mumkin.

MUSTAQIL TAYYORLANISH UCHUN MASALALAR:

1-masala

Toshkent shaxrida joylashgan oliy ta’lim muassasasining Xorijiy filologiya fakulteti “Fransuz filologiyasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi Gulnoza Axmedova 2016 yilning sentabr oyida farzandi tug‘ilganligi munosabati bilan OTM rektori buyrug‘iga asosan farzandini 3 yoshgacha parvarishlash ta’tili (dekreти)ga chiqdi. 2016-yilning sentabr oyida Gulnoza Axmedova dekret ta’tilidan qaytish uchun OTM ma’muriyatiga murojaat etganda OTM kadrlar bo‘limi boshlig‘i uning familyiyasi shtatlar jadvalida yo‘qligi uchun OTM ma’muriyati uni ish bilan ta’minlay olmasligi

to‘g‘risida ogoxlantirdi?

Yuqorida berilgan masalalarni tahlil qilishingiz va huquqiy manbalarga asoslangan holda o‘z fikringizni bayon etishingiz lozim.

2-masala

SIZGA QO‘YIDAGI MASALALARGA OYDINLIK KIRITISH UCHUN VAZIFA BERILDI.

- 1) Agar talaba shartnoma pulini to‘lashga qiyalsa, Oliy ta’lim muassasasi tomonidan imtiyoz berish nazarda tutiladimi?
- 2) Talabalarni turar joylarga joylashtirish qay tarzda amalga oshiriladi?
- 3) Taklif (tashabbus) asosida bajariladigan doktorlik dissertatsiyasi mavzui bo‘yicha oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasi kengashi qarori va muvofiqlashtiruvchi kengash hulosasi bir-biridan jiddiy farq qilsa, u holda qanday harakat qilinadi?
- 4) Oliy ta’lim muassasasi bakalavriati yoki magistraturasini davlat grantlari asosida tamomlagan bakalavr yoki magistrning yo‘llanma asosida ishlab berish muddati necha yilni tashkil qiladi?

Yuqorida berilgan masalalarni hal qilishingiz va huquqiy manbalarga asoslangan holda o‘z fikringizni bayon etishingiz lozim.

2-AMALIY MASHG‘ULOT

MAVZU: OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGINING BUYRUQLARI. (2 SOAT)

Amaliy mashg‘ulot maqsadi:

Tinglovchilarda o‘quv jarayonining o‘quv-meyoriy hujjatlari ta’minti, jumladan Ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari, o‘quv reja va fanlarning o‘quv dasturlarini ishlab chiqish tartibi hamda uni takomillashtirish mexanizmlari haqida tushuncha va ko‘nikmalarini shakllantirish.

Amaliy mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:

Mashg‘ulot rejasni bo‘yicha materiallar tahlil qilinib, kichik guruhlar yoki juftliklarda yangi pedagogik texnologiyalar yoki interaktiv usullardan foydalangan holda berilgan topshiriqlar bajariladi.

Amaliy mashg‘ulot bo‘yicha materiallar:

Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligining 259 son buyrug‘ining mazmun mohiyati. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 9-iyundagi “Oliy ta’limning meyoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 259-sun buyrug‘i O‘zbekiston

Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalgalashirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 21-dekabrdagi PF-269-son farmonidan kelib chiqadigan vazifalarni bajarish, O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq oliy ta’limning meyoriy-uslubiy va normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish maqsadida qabul qilingan.

Mazkur buyruq bilan 26 ta oliy ta’lim muassasalari huzurida Muvoqqlashtiruvchi soha kengashlari faoliyati yo‘lga qo‘yilib, ular faoliyati yo‘nalishlari va tartibini belgilovchi namunaviy nizom tasdiqlangan.

Muvofiqlashtiruvchi kengashlar oldiga 2023/2024 o‘quv yili boshlanguniga qadar ta’lim jarayonining meyoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish tizimini yanada takomillashtirish, o‘quv mashg‘ulotlari talab etiladigan kasbiykompetensiyalar bilan uzviy bog‘langan xolda har bir ta’lim yo‘nalishi va mutaxassisligi bo‘yicha yagona mukammal o‘quv rejalar asosida joriy etilishi, talabalar tomonidan bilim, ko‘nikma va malakalarni samarali o‘zlashtirilishi hamda akademik mobillikni yuqori darajada ta’minlash maqsadida Nizom asosida faoliyat yuritish vazifasi yuklangan.

Ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari.

O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining «Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar» O‘zbekiston Respublikasining davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida 2021-yil 19-oktabrdagi 35-2021-son buyrug‘i. (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 27 oktabrda hisobga olingan, hisob raqami 43) (O‘z DSt 3556:2021)

malaka talablari — oliy ta’lim tegishli bosqichi bitiruvchisining bilim, ko‘nikma va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.

O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining «Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar» O‘zbekiston Respublikasining davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida 2021-yil 19-oktabrdagi 35-2021-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasining davlat standarti Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar” ning

5-Bitiruvchilarning tayyorgarligiga nisbatan qo‘yiladigan malaka talablarining asosiy qoidalari bandiga muvofiq Oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari tayyorgarligiga nisbatan qo‘yiladigan talablar bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablarida bayon etiladi. (5.1.)

«Ta’limning xalqaro standart klassifikatsiyasi» (TXSK 2011)ga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimida bakalavriat 6-malaka darajasiga, magistratura 7-malaka darajasiga mansubdir.

Bakalavrning tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan malaka talablari ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil samarali mehnat faoliyatini yuritishini ta'minlashi hamda tegishli mutaxassislik bo'yicha magistraturada oliy ta'limni davom ettirish imkonini berishi lozim.

Magistrning tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan malaka talablari mutaxassislik bo'yicha magistr akademik darajali shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil ilmiy-tadqiqot, ilmiy-pedagogik va kasbga doir boshqaruv faoliyati bilan samarali shug'ullanishini ta'minlashi, tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'limda (tayanch doktorantura, mustaqil izlanuvchi) tahsil olish imkonini berishi lozim.

Bakalavr va magistrlarni tayyorlash oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturi asosida kunduzgi, kechki (smenali), sirtqi (maxsus sirtqi) va zarur hollarda masofaviy ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Ta'lim jarayoni kredit-modul tizimi asosida amalga oshiriladi. Ayrim (zarur) hollarda ta'lim jarayoni reyting (baholash) tizimi asosida amalga oshirilishi mumkin. (5.2.)

O'quv dasturlarining nazariy va amaliy mashg'ulotlarini to'liq o'zlashtirgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan bakalavriat ta'lim oluvchilariga «bakalavr» akademik darjasи, magistrlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan magistratura ta'lim oluvchilariga «magistr» akademik darjasи hamda oliy ma'lumot to'g'risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjatlar beriladi.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlar («Double degree») asosida ham amalga oshiriladi. Bunda ta'lim jarayoni davlat ta'lim standartlariga tayangan holda mahalliy yoki mahalliy va xorijiy oliy ta'lim muassasalari o'rtaida tuzilgan kelishuv (shartnoma)da belgilangan talablar asosida tuziladigan hamda belgilangan tartibda tasdiqlangan o'quv reja va o'quv dasturlariga muvofiq amalga oshiriladi.

5.3. bandda Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisligi bitiruvchilarining ta'limni davom ettirish imkoniyatlari berilgan. Jumladan:

bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining bitiruvchilari magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'qishni davom ettirish huquqiga ega. Muayyan bakalavriat yo'nalishlari uchun o'qishni davom ettirish bo'yicha magistratura mutaxassisliklarining ro'yxatini oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi belgilaydi;

magistratura mutaxassisliklarining bitiruvchilari tayanch doktorantura, doktorantura yoki mustaqil izlanuvchilik institutlarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini belgilangan tartibda amalga oshirishi mumkin.

Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha malaka talablarini ishlab chiqish va tatbiq etish tartibi

Malaka talablarining asosiy maqsadi va vazifasi milliy malaka ramkasi, kasb standartlari, kadrlar buyurtmachilari, ish beruvchi korxona, tashkilot va muassasalarning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, oliy ta’lim bakalavriat va magistratura bitiruvchilarining bilim, uquv, ko‘nikma va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablarni belgilash hisoblanadi.

Malaka talablari bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining har biri bo‘yicha mazkur davlat standarti, «Oliy ta’limning Davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori», milliy malaka ramkasi, kasb standartlari, kadrlar buyurtmachilari, ish beruvchi korxona, tashkilot va muassasalarning talab va ehtiyojlariga muvofiq ishlab chiqiladi.

Malaka talablari quyidagi bo‘limlardan iborat bo‘ladi:

zarvaraqd (titul varag‘i) O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining nomi, o‘rta qismida ta’lim yo‘nalishi yoki mutaxassislik nomi ko‘rsatiladi;

zarvaraq sirtida malaka talablari kim tomonidan ishlab chiqilgani va kiritilganligi, tasdiqlangani va joriy etilgani hamda hujjat maqomi ko‘rsatiladi.

Mundarijada malaka talablarining asosiy boblari ko‘rsatiladi.

Ta’lim yo‘nalishi yoki mutaxassisligining umumiy tavsifi bobida malaka talabining qo‘llanish sohasi, asosiy foydalanuvchilari, kasbiy faoliyatlarining tavsifi, bakalavr yoki magistr kasbiy faoliyatining sohalari, obyektlari, turlari hamda kasbiy vazifalari keltiriladi;

Ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha bakalavrning yoki mutaxassisligi bo‘yicha magistrning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar bobida bakalavriat yoki magistratura bitiruvchisi ega bo‘lishi zarur bo‘lgan umumiy kompetensiyalar hamda kasbiy kompetensiyalar aniq ko‘rsatiladi.

Bibliografik ma’lumotlar belgilangan tartibda keltiriladi.

Kelishuv varag‘ida malaka talabini ishlab chiqqan tayanch oliy ta’lim muassasasi rektori imzosi hamda uni kelishuv jarayonidan o‘tkazgan oliy ta’lim muassasalari va tashkilotlar rahbarlarining imzolari qo‘yiladi.

O'quv rejalar. Oliy ta'limning muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o'rganishning izchilligi, soatlar va kreditlardagi hajmini ta'lim davrining to'liq muddati uchun belgilaydigan hujjat.

O'quv rejalarini ishlab chiqish va tatbiq etish tartibi.

O'quv rejalarining asosiy maqsadi va vazifasi:

o'quv rejasining asosiy maqsadi — davlat ta'lim standartlari va malaka talablarida bakalavr va magistrlarning malakalariga qo'yilgan talablarga muvofiq yetuk va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklariga oid o'quv fanlar, ularning hajmi, mashg'ulotlar turlari, o'quv jarayonining mazmuni, tarkibi, muddatlari va o'qitishning mantiqiy ketma-ketligini belgilash hamda tartibga solish;

o'quv rejasining asosiy vazifasi — muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisligi bo'yicha ta'lim jarayoni davomida o'quv fanlarini semestrlar va o'quv yillar tarkibida ta'lim oluvchilar tomonidan samarali o'zlashtirilishini ta'minlovchi mantiqiy ketma-ketlikda maqbul holatga keltirish, o'quv faoliyati davri, turlari, soatlar hajmi, kreditlar hamda yakuniy nazorat muddatlarini belgilash.

O'quv rejalarini ishlab chiqish, tasdiqlash va ta'lim jarayoniga joriy etish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

o'quv rejalar bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining har biri bo'yicha «Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori», bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablariga muvofiq ishlab chiqiladi;

o'quv rejalar ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarga oid majburiy va tanlov fanlari belgilangan holda, ularning mazmun va mohiyatidan kelib chiqib, auditoriya (ma'ruza, amaliy, seminar, laboratoriya va boshqa mashg'ulotlar) va mustaqil mashg'ulotlar, o'quv va ishlab chiqarish (klinik, ijodiy va boshqa) amaliyotlari, kurs loyihasi, kurs ishi, ijodiy va boshqa o'quv vazifalari shaklida mantiqiy ketma-ketlikda, fanlarga ajratilgan kreditlarga amal qilgan tartibda shakllantiriladi;

o'quv rejalariga davomiyligi kamida 15 o'quv haftasiga teng semestrlar, har bir semestrdan so'ng 2 — 4 haftalik attestatsiya sessiyalari, tegishli dovomiylidagi malaka amaliyotlari, ta'tillar va boshqa akademik jarayonlar kiritiladi;

O'quv rejalar:

reyting (baholash) tizimi uchun jadval shaklida A-4 formatli standart varaqlarining «kitob ko'rinishida ikki tarafiga «Times New Romaii» shriftining maqbul o'lchamida bostirib chiqariladi;

kredit-modul tizimi uchun jadval shaklida A-4 formatli standart varaqlarining «albom ko‘rinishida bir tarafiga «Times New Roman» shriftining maqbul o‘lchamida bostirib chiqariladi va birlashtirib tikiladi;

zarur hollarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan kelishilgan tartibda o‘quv rejalar boshqa shaklda ishlab chiqilishiga yo‘l qo‘yiladi;

o‘quv rejalar oliy ta’lim muassasalari tomonidan tayyorlanadi va tasdiqlanadi;

tasdiqlangan o‘quv rejalar belgilangan tartibda ikki nusxada rasmiylashtiriladi, ularning birinchi nusxasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg‘or texnologiyalarni tatbiq etish markazida, ikkinchi nusxasi tegishli oliy ta’lim muassasasida saqlanadi;

zarur hollarda oliy ta’lim muassasalari tomonidan uquv rejalarga qushimcha ravishda fakultativ, maxsus kurs va boshqa turdagи mashg‘ulotlar kiritilishi mumkin;

ishlab chiqilgan va belgilangan tartibda tasdiqlangan o‘quv rejalar ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) ta’lim shaklining tayanch o‘quv rejalar hisoblanadi. Bular asosida ishlab chiqarishdan ajralmagan holda (kechki (smenali), sirtqi (maxsus sirtqi), masofaviy) ta’lim shakllari uchun belgilangan tartibda ishchi o‘quv rejalar ishlab chiqiladi va tegishli oliy ta’lim muassasalari tomonidan tasdiqlanadi.

Oliy ta’lim muassasalari tomonidan ixtiyoriy tarzda ishchi o‘quv rejalar quyidagi hollarda ham ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi mumkin:

muayyan ta’lim yo‘nalishlar tegishli turlari bo‘yicha ajratilishi nazarda tutilganida (masalan, sport turlari);

o‘quv rejalarda tanlov fanlarini dolzarbligiga qarab belgilash ehtiyoji mavjudligida.

Ishchi o‘quv rejalar belgilangan tartibda ikki nusxada rasmiylashtiriladi, ularning birinchi nusxasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg‘or texnologiyalarni tatbiq etish markazida, ikkinchi nusxasi tegishli oliy ta’lim muassasasida saqlanadi.

O‘quv dasturlari.

o‘quv fani — ta’lim jarayonida muayyan ta’lim yo‘nalishi va mutaxassisliklar bo‘yicha o‘zlashtirilishi zarur bo‘lgan tegishli ilmiy, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy sohalardan saralab olingan bilim va ko‘nikmalar tizimi.

o‘quv dasturi — ta’lim mazmunini belgilovchi o‘quv fanining asosiy mavzulari, mazmuni, o‘zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko‘rsatilgan hujjat

O‘quv dasturlarini ishlab chiqish va tatbiq etish tartibi.

O‘quv dasturlarining asosiy maqsadi va vazifasi:

O‘quv dasturining asosiy maqsadi — davlat ta’lim standartlari va malaka talablarida bakalavr va magistrning bilimi, uquvi, ko‘nikma va kompetensiyalariga qo‘yilgan talablarga muvofiq o‘quv rejaga kiritilgan muayyan fan tomonidan raqobatbardosh mutaxassislarni sifatli tayyorlash uchun shakllantirilishi zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar majmuini belgilash, fan mazmuni va tarkibiy qismlarini tartibga solishdir;

O‘quv dasturining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

o‘quv faniga oid ilm-fan, texnika, texnologiyalarning so‘nggi yutuqlarini, ilg‘or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda o‘quv mashg‘ulotlar mavzularini shakllantirish, ta’lim shakli va o‘quv fanga ajratilgan vaqtga muvofiq o‘quv materiallarni mavzular va o‘quv mashg‘ulotlar turlari bo‘yicha taqsimlash, maqbul holatga keltirish va optimallashtirish, ularning mantiqiy ketma-ketligini hamda boshqa fanlar bilan integratsiyasini ta’minlash;

uzluksiz ta’lim tizimining ta’lim turlari o‘rtasidagi uzviylik va uzluksizligini, shuningdek, fanning mazmun va mavzulari boshqa ta’lim turlaridagi hamda turdosh yo‘nalishlardagi fanlarning mazmun va mavzulari bilan takrorlanmasligini ta’minlash;

fanni o‘zlashtirish, ta’lim oluvchilarda fanga oid kompetensiyalarni, kasbiy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish uchun zarur o‘quv-uslubiy shartlar, o‘quv adabiyotlar, didaktik materiallarni hamda baholash vositalari va usullari yordamida ta’lim oluvchilar bilimini nazorat qilish shakllarini belgilash.

O‘quv dasturda o‘quv materiallar ma’ruza, seminar, kollokvium, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari, o‘quv va ishlab chiqarish (klinik, ijodiy va boshqa) amaliyotlari shaklida mantiqiy ketma-ketlikda belgilanadi, shuningdek, o‘quv fanining maqsadi va vazifasiga muvofiq kurs loyihasi, kurs ishi, mustaqil ish, chizma-hisob, ijodiy, laboratoriya va boshqa ishlar ajratilgan vaqt meyorlariga muvofiq o‘quv dasturga kiritiladi.

O‘quv dasturi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘lishi lozim:

muqovada oliy ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi nomi, oliy ta’lim muassasasi nomi, «Oliy ta’limning Davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori»ga muvofiq tegishli bilim, ta’lim sohalari va ta’lim yo‘nalishi (mutaxassislik)larining kodi va nomlari, harakatdagi o‘quv rejasiga muvofiq fanning to‘liq nomi, tasdiqlangan sanalari va belgilari ko‘rsatiladi;

O‘quv dasturining birinchi betida uning asosiy parametrlari (fan kodi, qaysi o‘quv yildan joriy etilganligi, semestr, fanga ajratilgan kreditlar (soatlar), fan turi

(majburiy, tanlov), ta’lim tili, haftadagi dars soatlari, fanning nomi, auditoriya va mustaqil mashg‘ulotlar hajmi, jami yuklama jadval shaklida belgilanadi;

«Faning mazmuni» o‘quv fanining maqsadi va uning asosiy vazifalari tegishli yo‘nalish bo‘yicha mutaxassis tayyorlash vazifalariga bog‘langan holda bayon etiladi;

«Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)» o‘quv fanining mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi, har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va qisqa ifodalar orqali ta’lim oluvchilarga davlat ta’lim standarti va malaka talablari asosida yetkazilishi zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar qamrab olingan holda ifodalab beriladi. Asosiy nazariy qism modullar shaklida berilishi mumkin;

«Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar» o‘quv fanining mohiyati va nazariy mavzulariga mos ravishda amaliy, seminar va laboratoriya mashg‘ulotlarining mavzulari, ushbu mashg‘ulotlarni o‘tkazish shakllari, unda qo‘llanishi tavsiya etiladigan texnologiyalar, usullar, vositalar zarur hollarda muhokama etiladigan mavzular, masalalar, laboratoriya ishlarining mazmuni, maqsadi hamda fan mohiyatidan kelib chiqadigan boshqa ma’lumotlar yoritiladi. Shuningdek, kurs loyihasi va kurs ishlari, ijodiy ishlar mohiyati, mazmuni, maqsadi, mavzulari ularni bajarish shakllari hamda fan mohiyatidan kelib chiqadigan boshqa ma’lumotlar yoritiladi. Shu bilan birga ushbu qismda o‘quv va ishlab chiqarish amaliyotlarining maqsadi, vazifasi, shakli, mazmuni, amaliyot jarayonida ta’lim oluvchilar tomonidan tayyorlanishi zarur bo‘lgan yakuniy ishlar shakli yuzasidan qisqa uslubiy ko‘rsatmalar beriladi;

«Mustaqil ta’lim va mustaqil mashg‘ulotlar» qismida mustaqil ta’limning shakli va mazmuni, mustaqil ishga mo‘ljallangan mavzular va topshiriqlar, mustaqil mashg‘ulotlar jarayonida ta’lim oluvchilar tomonidan tayyorlanishi zarur bo‘lgan ishlar referat, esse, mustaqil (ijodiy) ish, muammoli ma’ruza va boshqalar keltiriladi;

«Fanni o‘qitish natijalari va shakllanadigan kasbiy kompetensiyalar» qismida ta’lim yo‘nalishi (mutaxassislik)ga muvofiq muayyan fan bo‘yicha ta’lim oluvchi egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar bayon qilinadi;

«Talabalar kreditlarni olish tartibi» kredit-modul tizimida fan bo‘yicha talabalar bilimini nazorat qilish (baholash) va kreditlarni olishga oid talablar o‘rnatilgan tartibda belgilanadi;

Reyting (baholash) tizimi asosida ta’lim jarayonini amalga oshirayotgan oliy ta’lim muassasalari uchun — «Talabalar reytingini belgilash tartibi» reyting tizimida fan bo‘yicha talabalar bilimini nazorat qilish (baholash) tartibi belgilanadi;

«Asosiy va qo‘srimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbalari» o‘quv faniga oid asosiy darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va qo‘srimcha adabiyotlar, Internet

jahon axborot tarmog‘i resurslari, dissertatsiya, monografiya hamda boshqa tavsiya etilgan o‘quv, ilmiy va uslubiy ma’lumotlar manbalari keltiriladi;

O‘quv dasturning oxirgi betida uni ishlab chiqqan oliy ta’lim muassasasi nomi, tuzuvchilar ismi, familiyasi, lavozimi, ilmiy daraja va unvonlari, taqrizchilar ismi, familiyasi, ish joyi, lavozimi, ilmiy daraja va unvonlari, o‘quv dastur ko‘rib chiqilgan oliy ta’lim muassasasi kengashi bayonining raqami keltiriladi.

O‘quv dasturlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va ta’lim jarayoniga joriy etish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

o‘quv dasturlar o‘quv rejalarida belgilangan har bir o‘quv fani bo‘yicha mazkur davlat standarti, «Oliy ta’limning Davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori», bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari hamda o‘quv rejalariga muvofiq davlat oliy ta’lim muassasalari tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi;

o‘quv dasturlar ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklar maqsadi, vazifasi, mazmuni va mohiyatidan kelib chiqib, fan mavzulari va mazmunini belgilangan tartibda mantiqiy ketma-ketlikda, o‘quv faniga ajratilgan vaqt meyoriga amal qilgan holda shakllantiriladi. O‘quv dasturlar mazkur davlat standartida belgilangan talablarga javob bergen holda Sillabus shaklida ham ishlab chiqilishi mumkin;

o‘quv dasturning matni A-4 formatli standart varaqlarda, «Times New Roman» shriftining 14-o‘lchamida, 1,15 intervalda, chap va o‘ng tomonidan — 20, pastidan — 25, yuqoridan — 20 mm o‘lchamida hoshiyalangan, betlarini raqamlanishi varaqning pastki qismining markazida joylashtirilgan holatda bostirib chiqariladi;

o‘quv dasturlari tasdiqlanganidan so‘ng A-5 formatida broshura shaklida chiqariladi;

oliy ta’lim muassasalari tomonidan tayyorlangan o‘quv dasturlari oliy ta’limning davlat ta’lim standartlari, malaka talablari va o‘quv rejalariga muvofiqligi hamda sifati nuqtai nazaridan O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg‘or texnologiyalarni tatbiq etish markazi tomonidan tanlab monitoring va tahlil qilinadi. Monitoring va tahlil natijalari O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash muhokamasiga olib chiqiladi va ularga baho beriladi;

Tasdiqlangan o‘quv dasturlar belgilangan tartibda ikki nusxada rasmiylashtiriladi, ularning birinchi nusxasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg‘or

texnologiyalarni tatbiq etish markazida, ikkinchi nusxasi tegishli oliy ta’lim muassasasida saqlanadi;

Ishlab chiqilgan va tasdiqlangan o‘quv dasturlar (sillabuslar) ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) ta’lim shaklining tayanch o‘quv dasturlari hisoblanadi. Bular asosida ishlab chiqarishdan ajralmagan holda (kechki (smenali), sirtqi (maxsus sirtqi), masofaviy) ta’lim shakllari uchun belgilangan tartibda ishchi o‘quv dasturlar ishlab chiqiladi va tegishli oliy ta’lim muassasalari tomonidan tasdiqlanadi.

3-AMALIY MASHG‘ULOT

MAVZU: TA’LIM YO‘NALISHLARI VA MAGISTRATURA MUTAXASSISLIKARINING MALAKA TALABLARI, O‘QUV REJALARI VA FAN DASTURLARINI ISHLAB CHIQISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI

Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti asosiy qoidalar O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2021-yil 19-oktabrdagi 35-2021-son bo‘yrug‘i bilan tasdiqlangan.

Mazkur davlat standarti O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa qonunchilik hujjatlari, shuningdek YUNESKO (UNESCO) tomonidan joriy qilingan “Ta’limning xalqaro standart klassifikatsiyasi” (TXSK 2011) va “TXSK: Ta’lim va kasbiy tayyorlash sohalari”ga (TXSK-S 2013) muvofiq ishlab chiqilgan.

Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti:

-kadrlar tayyorlash sifatiga, ta’lim mazmuniga qo‘yiladigan umumiy talablarni;

-ta’lim oluvchilar tayyorlarligining zarur va yetarli bilim darajasi hamda oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilariga qo‘yiladigan umumiy malakaviy talablarni;

-o‘quv yuklamasining hajmini;

-ta’lim muassasalari faoliyati va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartibotlari hamda mexanizmini belgilaydi.

Davlat ta’lim standartlari o‘quv jarayonini, ta’lim muassasalari faoliyatini, kadrlar, darslik va o‘quv qo‘llanmalari tayyorlash sifatini baholashni tartibga soluvchi tegishli hujjatlarni (bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun malaka talablari, o‘quv rejalar, o‘quv dasturlari va boshqalar) ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

Davlat ta’lim standartlari oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlashda idoraviy bo‘ysunuv va mulkchilik shakllaridan qat’iy nazar, O‘zbekiston Respublikasining

davlat ta'lim standartlari asosida kadrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

Nodavlat ta'lim tashkilotlari mustaqil ishlab chiqilgan va litsenziyada ko'rsatilgan o'quv dasturlari asosida ta'lim faoliyatini amalga oshirishlari mumkin.

Standartlar toifalari.

-Oliy ta'lim standartlari quyidagi toifalarga bo'linadi:

-O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan oliy ta'lim standartlari:

-Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar;

-Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori.

-Oliy ta'lim bakalavriat yo'nalishlarining o'quv rejalarini va o'quv dasturlarini umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional ta'lim bilan uzviylik va uzlusizligi ta'minlangan holda, oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari, bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining malaka talablari asosida ishlab chiqiladi. O'quv rejalar tarkibiga o'zlashtirilishi majburiy bo'lgan fanlar (majburiy fanlar) bloki va tanlab o'zlashtiriladigan fanlar (tanlov fanlari) bloki kiradi.

Ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari hamda tegishli sohalarning o'ziga xos xususiyatlari muvofiq o'quv rejalaridagi bloklar tarkibi o'zgartirilishi mumkin.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalarini va o'quv dasturlarini o'zlashtirishda ta'lim oluvchilar auditoriya mashg'ulotlari bilan bir qatorda o'quv fanlari bo'yicha mustaqil mashg'ulotlarni bajarishi va mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi lozim.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining ta'lim jarayoni o'quv rejalariga muvofiq yakuniy davlat attestatsiyasi bilan tugallanadi.

O'quv rejalar va o'quv dasturlar kredit-modul tizimi asosida ishlab chiqiladi. Ayrim (zarur) hollarda o'quv rejalar va o'quv dasturlar reyting (baholash) tizimi asosida ishlab chiqilishi mumkin.

O'quv fanlari bloklari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar:

majburiy fanlar bloki fanlarni chuqur o'zlashtirilishini taqozo etadi va ta'lim oluvchilarning intellektual salohiyatini boyitish, ta'lim yo'nalishi va sohaga oid zarur fundamental bilimlar, kasbiy ko'nikma, uquv va kompetensiyalarni shakllantirishi, bitiruvchiga tanlangan yo'nalish va mutaxassislik bo'yicha kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish hamda muayyan magistratura mutaxassisligi bo'yicha kelgusida ta'limni davom ettirishga zamin yaratishi lozim.

Tanlov fanlari bloki bakalavriat yo'nalishi bo'yicha ta'lim oluvchilar qo'shimcha chuqur nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishini, innovatsion usullar va sohaning hududiy omillarini hisobga olgan holda kasbiy kompetensiyalari kengayishini ta'minlashi, ta'lim trayektoriyalariga muvofiq kasbiy bilim va malakalarni o'zlashtirishga imkon yaratishi lozim.

Bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari malaka amaliyotlariga qo‘yiladigan umumiy talablar.

Ta’lim oluvchilar kasbiy ko‘nikmalarni mukammal egallashi uchun o‘quv rejalar va muayyan fanlarning o‘quv dasturlarida o‘quv (tanishuv), ishlab chiqarish (klinik, ijodiy va boshqa) va bitiruv oldi malaka amaliyotlari nazarda tutilishi shart.

Amaliyotlar bakalavriat ta’lim jarayonining majburiy qismi bo‘lib, talabalarning kasbiy tayyorgarligi, amaliy ko‘nikmalari va kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltiriladi.

Bakalavrular tayyorlashda malaka amaliyotlari:

o‘quv (tanishuv) amaliyoti — iqtisodiyot tarmoqlari, tegishli tashkilot, muassasa va korxonalar bilan tanishtirish, tabiiy-ilmiy va umumkasbiy fanlar bo‘yicha nazariy bilimlarini mustahkamlashga qaratiladi;

ishlab chiqarish amaliyoti — umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

bitiruv oldi amaliyoti — ishlab chiqarishda (tegishli soha korxona, tashkilot va muassasalarida) kasbiy ko‘nikmalarni yanada mustahkamlash, kasbiy faoliyatga moslashish, bitiruv malakaviy ishni tayyorlash uchun ma’lumot to‘plash va tizimlashtirishga qaratiladi;

pedagogik amaliyot — kasb ta’limi yo‘nalishlari uchun qo‘llaniladi va pedagogik mahoratini oshirishga qaratiladi.

Ta’lim yo‘nalishlarining o‘ziga xos xususiyatlariga muvofiq malaka amaliyotlarining boshqa turlari ham qo‘llanilishi mumkin.

Har bir amaliyot turi o‘quv reja va o‘quv dasturiga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlari va real sektorning tegishli ilg‘or korxona, tashkilot va muassasalari, xorijiy va qo‘shma korxonalar, ilmiy tashkilotlar, ta’lim, tibbiyot, madaniyat va boshqa muassasalarida, dala sharoitlarida, maxsus tajriba (poligon) obyektlarida va boshqalarda o‘tkaziladi.

Amaliyotlarni tashkil qilish, o‘tkazish va talabalarni baholash mezonlarini belgilash oliy ta’lim muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

Magistratura mutaxassisliklarining o‘quv rejalarini va o‘quv dasturlarini mazmuni oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashning birlamchi va boshlang‘ich bosqichi sifatida mutaxassislik bo‘yicha chuqur fundamental va amaliy bilimlar berishni nazarda tutgan holda shakllantiriladi.

Oliy ta’lim magistratura mutaxassisliklarining o‘quv rejalarini va o‘quv dasturlarini bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarining o‘quv rejalarini va o‘quv dasturlarini bilan uzviylik va uzuksizligini ta’minlagan holda oliy ta’limning davlat ta’lim standartlari, magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari asosida ishlab

chiqiladi. O‘quv rejalar tarkibiga o‘zlashtirilishi majburiy bo‘lgan fanlar (majburiy fanlar) bloki, tanlab o‘zlashtiriladigan fanlar (tanlov fanlari) bloki va ilmiy faoliyat bloki kiradi.

Ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari hamda tegishli sohalarning o‘ziga xos xususiyatlariga muvofiq o‘quv rejalaridagi bloklar tarkibi o‘zgartirilishi mumkin.

Magistratura mutaxassisliklarining o‘quv rejalari va o‘quv dasturlarini o‘zlashtirishda ta’lim oluvchilar auditoriya mashg‘ulotlari bilan bir qatorda o‘quv fanlari bo‘yicha mustaqil mashg‘ulotlarni bajarishi va mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi lozim.

Magistratura mutaxassisliklarining o‘quv jarayoni o‘quv rejalariga muvofiq yakuniy davlat attestatsiyasi (magistrlik dissertatsiyasining himoyasi) bilan tugallanadi.

O‘quv rejaning o‘quv fanlari bloklari mazmuniga qo‘yiladigan minimal talablar:

majburiy fanlar bloki ilmiy tadqiqot metodologiyasi, ilmiy izlanish va tahlil, empirik va nazariy tadqiqot usullari, maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi, pedagogik texnologiyalar, ta’limning zamonaviy usullari, mutaxassislikka doir dolzarb va chuqur ilmiy, metodologik, ilmiy-texnik, texnologik bilim, uquv, ko‘nikma va kompetensiyalarini ta’lim oluvchilarda shakllantirishi hamda muayyan doktorantura mutaxassisligi bo‘yicha kelgusida ta’limni davom ettirishga zamin yaratishi lozim.

tanlov fanlari bloki mutaxassislik bo‘yicha ta’lim oluvchilar qo‘srimcha chuqur nazariy va amaliy bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishini, innovatsion usullar va sohaning hududiy omillarini hisobga olgan holda ilmiy, pedagogik va kasbiy kompetensiyalarini kengayishini ta’minlashi, ta’lim trayektoriyalariga muvofiq magistr darajasidagi kasbiy bilim va malakalarni o‘zlashtirishga imkon yaratishi lozim.

ilmiy faoliyat bloki ilmiy-tadqiqotlar nazariyasi va amaliyoti o‘zlashtirishini, ta’lim oluvchilar tomonidan ixtisoslashgan ilmiy va ta’lim muassasalarida muayyan ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar bajarilishini nazarda tutishi lozim.

Bunda:

ilmiy-tadqiqot amaliyoti ta’lim oluvchilar mustaqil tadqiqotchilik faoliyatining amaliy ko‘nikmalarini hosil qilishi, ilmiy-tadqiqotlar o‘tkazish, ularning natijalarini tahlil qilish va aks ettirish, zamonaviy axborot bazalarini qo’llash, ilmiy maqolalar va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlashga doir bilim, uquv va ko‘nikmalarni shakllantirishi lozim;

ilmiy-pedagogik amaliyoti zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o‘quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullaridan foydalangan holda pedagogik faoliyat mahorati va ko‘nikmalarini shakllantirishi, o‘quv

jarayonini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlashni tashkil etishga doir kompetensiya va ko'nikmalarni hosil qilishi lozim.

Ilmiy-tadqiqot amaliyoti taqozo etganda yakka tartibda ilmiy izlanish va tajriba-sinovlarni o'tkazish maqsadida tajriba orttirish jarayoni tashkil etiladi. Bunda tajriba orttirish jarayoniga yo'llangan ta'lim oluvchi o'quv jarayoni jadvalini yakka tartibdagi ish rejasi asosida bajarishi ko'zda tutiladi.

tajriba orttirish ta'lim oluvchilarining ilmiy-tadqiqot olib borishi, nazariy va amaliy bilimlarini chuqurlashtirish, muayyan soha va tarmoqdagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishishi, amaliy kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllanishi, kasbga samarali moslashuvini ta'minlashi lozim.

Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv rejalar ta'lim davrining to'liq meyoriy muddati uchun (birinchi kursdan yakuniy kursgacha) ishlab chiqiladi va bu davrda ularga o'zgartirish kiritish, ularni bekor qilish, o'rniغا boshqa o'quv reja ishlab chiqib tatbiq etishga yo'l qo'yilmaydi.

Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan talablar bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablarida bayon etiladi.

Bakalavrning tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan malaka talablari ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil samarali mehnat faoliyatini yuritishini ta'minlashi hamda tegishli mutaxassislik bo'yicha magistraturada oliy ta'limni davom ettirish imkonini berishi lozim.

Magistrning tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan malaka talablari mutaxassislik bo'yicha magistr akademik darajali shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil ilmiy-tadqiqot, ilmiy-pedagogik va kasbga doir boshqaruva faoliyati bilan samarali shug'ullanishini ta'minlashi, tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'limda (tayanch doktorantura, mustaqil izlanuvchi) tahlil olish imkonini berishi lozim.

Bakalavr va magistrlarni tayyorlash oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturi asosida kunduzgi, kechki (smenali), sirtqi (maxsus sirtqi) va zarur hollarda masofaviy ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Ta'lim jarayoni kredit-modul tizimi asosida amalga oshiriladi. Ayrim (zarur) hollarda ta'lim jarayoni reyting (baholash) tizimi asosida amalga oshirilishi mumkin.

O'quv dasturlarining nazariy va amaliy mashg'ulotlarini to'liq o'zlashtirgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan bakalavriat ta'lim oluvchilariga «bakalavr» akademik darajasi, magistrlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan magistratura ta'lim oluvchilariga «magistr» akademik darajasi hamda oliy ma'lumot to'g'risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjatlar beriladi.

Bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha qo‘shma ta’lim dasturlar («Double degree») asosida ham amalga oshiriladi. Bunda ta’lim jarayoni davlat ta’lim standartlariga tayangan holda mahalliy yoki mahalliy va xorijiy oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida tuzilgan kelishuv (shartnoma)da belgilangan talablar asosida tuziladigan hamda belgilangan tartibda tasdiqlangan o‘quv reja va o‘quv dasturlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisligi bitiruvchilarining ta’limni davom ettirish imkoniyatlari:

bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarining bitiruvchilari magistratura mutaxassisligi bo‘yicha o‘qishni davom ettirish huquqiga ega. Muayyan bakalavriat yo‘nalishlari uchun o‘qishni davom ettirish bo‘yicha magistratura mutaxassisliklarining ro‘yxatini oliy ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi belgilaydi;

magistratura mutaxassisliklarining bitiruvchilari tayanch doktorantura, doktorantura yoki mustaqil izlanuvchilik institutlarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini belgilangan tartibda amalga oshirishi mumkin.

O‘quv yuklamasining hajmi, Bakalavriat - barcha turdag'i auditoriya va auditoriyadan tashqari o‘quv ishlarini o‘z ichiga olgan o‘quv yuklamasining hajmi bir o‘quv yili uchun 60 kredit, bir semestr uchun 30 kredit qilib belgilanadi. 1 kredit 30 akademik soat o‘quv yuklamasiga tengdir.

Reyting (baholash) tizimi asosida ta’lim jarayonini amalga oshirayotgan oliy ta’lim muassasalari uchun barcha turdag'i auditoriya va auditoriyadan tashqari o‘quv ishlarini o‘z ichiga olgan o‘quv yuklamasining eng yuqori hajmi haftasiga 54 akademik soat qilib belgilanadi.

Ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) o‘qish shakli uchun auditoriya mashg‘ulotlarining hajmi haftasiga:

kredit-modul tizimi asosida ta’lim jarayoni amalga oshirilayotganda 22 — 32 akademik soat oraligida;

reyting (baholash) tizimi asosida ta’lim jarayoni amalga oshirilayotganda 22 — 36 akademik soat oraligida belgilanadi.

Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda (kechki) o‘qish shakli uchun bir haftada odatda besh kun, auditoriya mashg‘ulotlarining eng yuqori hajmi haftasiga 20 soat qilib belgilanadi.

Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda (sirtqi, maxsus sirtqi) o‘qish shakli uchun auditoriya mashg‘ulotlarining hajmi ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) o‘qish shaklining kamida 30% etib belgilanadi.

Ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) o'qish shakli uchun o'qishning meyoriy muddati quyidagicha taqsimlanadi:

O'qish muddati*	Haftalar soni	Kreditlar miqdori	Akademik soatlar miqdori
3 yil	152	180	5 400
4 yil	204	240	7 200
5 yil	256	300	9 000
6 yil	308	360	10 800

Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda (kechki, sirtqi, maxsus sirtqi) o'qish shakli uchun kreditlar miqdori kunduzgi o'qish shakli kreditlariga mos qilib olinadi.

O'quv davrining umumiy hajmi quyidagicha taqsimlanadi:

O'quv davrlari	Sog'lijni saqlash ta'lim sohasidan tashqari barcha ta'lim sohalari uchun, % hisobida*	Sog'lijni saqlash ta'lim sohasi uchun, % hisobida
Nazariy va amaliy ta'lim	40 — 65	50 — 70
Shu jumladan, auditoriya (kontaktli) va mustaqil ta'limning nisbati	40/60 foiz nisbatidan 50/50 foiz nisbatigacha	
Attestatsiya	6 — 15	8 — 15
Ta'til**	8 — 21	10 — 18
Malaka amaliyoti	6 — 25	6 — 20
Bitiruv malakaviy ishi***	2 — 7	2 — 5

* Ayrim yo'nalishlarning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, ta'lim jarayoni zaruratiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan holda ular uchun mazkur foizlarga o'zgartirish kiritishga yo'l qo'yiladi.

** Qishki ta'til ikki haftadan oshmasligi maqsadga muvofiq.

*** Bitiruv malakaviy ishi tarkibiga uni himoya qilish bo'yicha Davlat attestatsiyalari ham kiradi.

Barcha ta'lim sohalari uchun nazariy va amaliy ta'lim hajmining kamida 85 % umumkasbiy va ixtisoslik (maxsus) fanlaridan tashkil topgan majburiy va tanlov fanlari bloklaridan iborat bo'lishi lozim.

O'quv rejalaridagi majburiy va tanlov fanlari bloklarining hajmini ta'lim yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, o'quv rejani ishlab chiqaruvchi oliy ta'lim muassasasi belgilaydi.

Bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari ta’lim oluvchilarining malaka amaliyotini o‘tash tartibi va bitiruv malakaviy ishini bajarish tartibi oliy ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat boshqaruv organi tomonidan belgilanadi.

Kredit tizimi xalqaro tamoyillariga asoslanib fanlar katalogini tizimlashtirish va maqbullashtirish maqsadida o‘quv rejalarda kreditlar kurs va semestrlar bo‘yicha taqsimotini quyidagicha belgilash tavsiya etiladi:

O‘quv faniga ajratilgan soat*	Fanning bir va ikki semestr davomida o‘tilishiga qarab ajratiladigan kreditlar	
	1-semestr	2-semestr
120	4	-
180	6	-
240	4	4
300	4	6
360	6	6

* Ushbu taqsimot magistraturaga ham taalluqli.

Magistratura-barcha turdagи auditoriya va auditoriyadan tashqari o‘quv ishlarini o‘z ichiga olgan o‘quv yuklamasining hajmi bir o‘quv yili uchun 60 kredit, bir semestr uchun 30 kredit qilib belgilanadi. 1 kredit 30 akademik soat o‘quv yuklamasiga tengdir.

Reyting (baholash) tizimi asosida ta’lim jarayonini amalga oshirayotgan oliy ta’lim muassasalari uchun barcha turdagи auditoriya va auditoriyadan tashqari o‘quv ishlarini o‘z ichiga olgan o‘quv yuklamasining eng yuqori hajmi haftasiga 54 akademik soat qilib belgilanadi.

Ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) o‘qish shakli uchun auditoriya mashg‘ulotlari va ilmiy faoliyatning eng yuqori hajmi haftasiga 36 akademik soat qilib belgilanishi lozim.

O‘qishning meyoriy muddati quyidagicha taqsimlanadi:

O‘qishning meyoriy muddati*	Haftalar soni	Kreditlar miqdori	Akademik soatlar miqdori
1 yil	50	60	1800
2 yil	100	120	3600
3 yil	152	180	5400

* Kunduzgi o‘qish shakli tayanch sifatida olinadi.

O'qish davrining umumiy hajmi quyidagicha taqsimlanadi:

O'qish davrining tarkibiy qismlari	Sog'lijni saqlash ta'lism sohasidan tashqari barcha ta'lism sohalari uchun, % hisobida*	Sog'lijni saqlash ta'lism sohasi uchun, % hisobida	
	Davolash faoliyati bilan tutashgan mutaxassisliklar	Davolash faoliyati bilan tutash bo'lmagan mutaxassisliklar	
Nazariy va amaliy ta'lism	30 — 55	45 — 55	30 — 55
Shu jumladan, auditoriya (kontaktli) va mustaqil ta'limga nisbati	30/70 foiz nisbatidan 50/50 foiz nisbatigacha		
Attestatsiya	4 — 18	4 — 10	4 — 10
Ta'tillar**	6 — 21	10 — 20	10 — 20

Ilmiy faoliyat magistratura ta'lism oluvchilarining yakka tartibdagi taqvimiyligi rejasiga asosida amalga oshiriladi va quyidagilarga bo'linadi:

ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash — 60 — 75 %;
ilmiy-pedagogik ish va malaka amaliyoti — 25 — 40 %.

Barcha ta'lism sohalari uchun nazariy va amaliy ta'lism hajmining kamida 95 % umummetodologik va mutaxassislik fanlaridan tashkil topgan majburiy va tanlov fanlari bloklaridan iborat bo'lishi lozim.

Magistratura mutaxassisliklari talabalarining ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash tartibi va malaka amaliyoti (tajriba orttirish)ni o'tash tartibi oliy ta'limga boshqarish bo'yicha vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi.

Kadrlar tayyorlash sifati va oliy ta'lism muassasalari faoliyatini baholash-bakalavriat ta'lism yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari professor-o'qituvchilari tarkibiga qo'yiladigan umumiy talablar.

Bakalavriat o'quv rejasi va o'quv dasturini amalga oshirishda o'qitilayotgan fan bo'yicha tayanch ma'lumotga, bilimga, malaka va ko'nikmaga ega bo'lgan malakali o'qituvchilar (magistr yoki diplomli mutaxassislar), fan nomzodlari, falsafa doktori (PhD), dotsentlar, fan doktori (DSc), professorlar, ilmiy, pedagogik va ijodiy unvonlarga ega bo'lgan shaxslar, shuningdek tajribaga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassis va amaliyotchilar jalb etilishi lozim.

Magistratura o'quv rejasi va o'quv dasturini amalga oshirishda o'qitilayotgan fan bo'yicha fan nomzodlari, falsafa doktori (PhD), dotsentlar, fan doktori (DSc) va professorlar, ilmiy, pedagogik va ijodiy unvonlarga (darajalarga) ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassis va amaliyotchilar jalb etilishi lozim.

Kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish.

Bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish quyidagilardan iborat:

ichki nazorat oliy ta’lim muassasasi tomonidan amalga oshiriladi. Ichki nazorat oliy ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan tegishli ravishda belgilangan reyting (baholash) tizimi hamda kredit-modul tizimi mezonlarga muvofiq o‘rnatilgan tartibda o‘tkaziladi;

bitiruvchilarning yakuniy nazorati oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarining o‘quv rejalariga muvofiq bakalavriatda o‘quv fanlari bo‘yicha yakuniy davlat attestatsiyasi va (yoki) bitiruv malakaviy ishi himoyasi, shuningdek magistraturada magistrlik dissertatsiyasining himoyasi shaklida amalga oshiriladi;

davlat-jamoatchilik nazorati oliy ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat boshqaruvi organi, jamoat tashkilotlari va kadrlar buyurtmachilari tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi;

tashqi nazorat belgilangan tartibda oliy ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan amalga oshiriladi.

4-AMALIY MASHG‘ULOT:

MAVZU: OLIY TA’LIMDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH ICHKI TIZIMINING HUQUQIY ASOSLARI HAMDA KORRUPSIYAVIY XAVF- XATARLAR DARAJASINI PASAYTIRISHNING CHORA-TADBIRLARI. (2 SOAT).

Mavzuning maqsadi: Korrupsiyaga qarshi kurash borasida institutsional, tashkiliy-huquqiy va idoraviy tizimlar rivojlanishi to‘g‘risida bilimlarga ega bo‘lish

Mavzudan kutilayotgan natijalar:

Mavzuni o‘zlashtirganidan so‘ng tinglovchi quyidagi bilimlarga ega bo‘ladi:

Korrupsiyaga qarshi kurash borasida nazorat tizimlari shakllanishi.

Parlament nazorati va uning sub’ektlari, Parlament nazorati shakllari

Prokuratura organlari faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish tartibi.

Jamoatchilik nazorati va uning sub’ektlari, asosiy prinsiplari, jamoatchilik nazoratining shakllari.

Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida prokuror, davlat moliyaviy, ma’muriy, tadbirkorlik sub’ektlarini himoya etish sohasida nazorat tizimlari.

O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida bilimlarga ega bo‘ladi.

Mavzuni o‘zlashtirganidan so‘ng tinglovchi quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi:

“Parlament nazorati to‘g‘risida”gi 2016-yil 11-apreldagi Qonuni,

“Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi 2018-yil 12-apreldagi Qonuni,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5843-son Farmoni,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2020-yil 29-iyundagi Farmoni PF-6013-son Farmoni talablari va b. xujjatlari talablarini qo‘llash.

Ma’ruza matni

Korrupsiya-bu jamiyatni turli yo‘llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to‘sinqlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi.

Ta’kidlab o‘tish o‘rinlikni, ushbu zararli hodisa katta va kichik, badavlat va kambag‘al bo‘lishidan qat’iy nazar, barcha mamlakatlarda uchraydi. Ushbu zararli illatni bartaraf etish bo‘yicha jahon hamjamiyati tomonidan bir qator samarali ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsada, hanuzgacha u bartaraf etilmayapti.

Shundan kelib chiqib O‘zbekiston Prezidenti 2020-yil 24-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojooatnomasida korrupsiyaga qarshi kurashish butun jamiyat ishi ekanini ta’kidladi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev qonun ustuvorligini ta’minalash va korrupsiyaga qarshi qat’iy kurashish bo‘yicha muhim takliflarni ilgari surdi:

Islohotlarimiz samarasini ko‘p jihatdan 4 ta muhim omilga, ya’ni

qonun ustuvorligini ta’minalash;

korrupsiyaga qarshi qat’iy kurashish;

institutsional salohiyatni yuksaltirish va

kuchli demokratik institutlarni shakllantirishga bog‘liq.

Prezident ta’kidlaganidek qonun ustuvorligi va sud-huquq sohasidagi asosiy vazifalar avvalo, sud mustaqilligini to‘liq ta’minalash – eng muhim vazifalarimizdan biri bo‘lishi zarur.

Qonunchilikni yangilashdan maqsad faqat qonun qabul qilish emas, aksincha, yangi qonunlar ertaga odamlarga qanday amaliy naf berishi, ularning hayotini qanday yengillashtirishi haqida bosh qotirishdan iborat bo‘lmog‘i lozim.

Afsuski, jamiyatimizda korrupsiya illati o‘zining turli ko‘rinishlari bilan taraqqiyotimizga g‘ov bo‘lmoqda.

Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo‘lmaydi, umuman jamiyatning birorta tarmog‘i rivojlanmaydi.

Tadbirkorlar hanuzgacha yer ajratish, kadastr, qurilish, litsenziya, bojaxona, bank, davlat xaridlari kabi sohalarda korrupsiyaga duch kelayotgani, Prezident

nomiga kelib tushayotgan ko‘plab murojaatlar ham, matbuot va ijtimoiy tarmoqlardagi chiqishlar ham yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalg qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a’zolari, ta’bir joiz bo‘lsa, “halollik vaksinasi” bilan emlanmas ekan, o‘z oldimizga qo‘ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz.

Biz korrupsianing oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o’tishimiz kerak.

Ushbu vazifalar ijrosini tizimli tashkil etish maqsadida parlament va Prezidentga hisob beradigan, **korrupsiyaga qarshi kurashishga mas’ul bo‘ladigan alohida organ tashkil etish taklif** etildi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda korrupsianing oldini olish va unga qarshi kurashish, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida korrupsionen omillarga chek qo‘yishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda.

Davlat organlari zimmasidagi vazifa va funksiyalarni bajarishda yuzaga keladigan korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholash tizimini takomillashtirish hamda davlat xizmatiga halollik standartlarini joriy etish bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatda byurokratik to‘sqliarni bartaraf etish va «yashirin iqtisodiyot»ni qisqartirish chorralari ko‘rilmoxda hamda «Korrupsiyasiz soha» loyihalari amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini tubdan oshirish bo‘yicha belgilangan vazifalar korrupsiya holatlarining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, ularni bartaraf etishning ta’sirchan tizimini yaratishni taqozo etmoqda. Ushbu ishlarga fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat sektorning boshqa vakillarini ham keng jalg etish zarurati tug‘ilmoqda.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturini izchil ro‘yobga chiqarish, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsianing oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan davlat siyosatining samaradorligini oshirish maqsadida **2020-yil 29-iyun kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-6013-sod Farmoni** qabul qilindi. Farmon asosida O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi.

Agentlik asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari etib

korrupsianing oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa nodavlat sektor vakillarining birgalikdagi

samarali faoliyatini ta'minlash, shuningdek, mazkur sohadagi xalqaro hamkorlik uchun mas'ul bo'lgan maxsus vakolatli davlat organi sifatida belgilandi. Agentlikning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib belgilansin:

mamlakatda korrupsiya holatini tizimli tahlil qilishni ta'minlash, shuningdek, korrupsiyaga oid xavf-xatarlar yuqori bo'lgan sohalar hamda korrupsiyaga oid huquqbazarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash;

korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbazarliklarning tizimli sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish;

fugorolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan kompleks dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish masalalariga oid axborotlarni tarqatish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitishni tashkil etish orqali jamiyatda korrupsiyaning barcha ko'rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish;

vazirlik va idoralarning korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish, davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa nodavlat sektor vakillarining ushbu masalalar bo'yicha birgalikdagi samarali faoliyatini tashkil etish;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalari va ustav kapitalida davlat ulushi bo'lgan korxonalar, shu jumladan banklarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi («komplaens-nazorat») hamda korrupsiyaga qarshi kurashishning boshqa xalqaro vositalarini joriy etish va samarali faoliyat ko'rsatishini tashkillashtirish, zamonaviy usullar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida korrupsiyaga qarshi monitoring olib borish, shuningdek, ularning mazkur sohadagi faoliyati bo'yicha reytingini tuzish;

normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizasi samaradorligini ta'minlash, shuningdek, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish, xalqaro standartlarni va ilg'or xorijiy amaliyotni joriy etish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

davlat xizmatchilarining daromad va mol-mulkini deklaratsiya qilish tizimi joriy etilishi va samarali faoliyat ko'rsatishini hamda deklaratsiyalarning haqqoniyligi tekshirilishini tashkil etish, shuningdek, ushbu jarayonda aniqlangan korrupsiya holatlariga o'z vaqtida ta'sir choralarini ko'rilishini ta'minlash;

davlat xizmatiga halollik standarti («halollik vaksinasi») va manfaatlar to'qnashuvini hal etish standartlarini joriy etishda ko'maklashish bo'yicha ta'sirchan choralarini ko'rish, shuningdek, ularga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

udget mablag'lari, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlarning qarzlaridan foydalanish, davlat aktivlarini realizatsiya qilish va davlat xaridlari sohasida korrupsiyaga qarshi nazorat tizimining samaradorligini tahlil qilish, shuningdek, uni takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish;

Korruksiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda mamlakatning imidjini mustahkamlash va uning xalqaro reytinglardagi o'rnini oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Korruksiyaning holati, tendensiyalari va sabablari hamda korruksiyaga qarshi choralar ko'rishning samaradorligi yuzasidan sotsiologik, ilmiy va boshqa tadqiqotlarni tashkil etish, korruksiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishning ta'sirchanligini oshirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish;

Korruksiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, shu maqsadda ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat sektorning boshqa vakillari bilan samarali hamkorlikni amalga oshirish belgilandi.

Korruksiyaga oid asosiy iboralar

Korruksiyaga qarshi kurashish borasida bir nechta asosiy iboralar mavjud.

Korruksiya (lot. *Corrumpere — buzmoq*) termini odatda mansabdor shaxslar tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlardan o'zlarining shaxsiy manfaatlarini ko'zlab qonunchilik va ahloq qoidalariga zid ravishda foydalanishini anglatadi.

Ko'p hollarda bu atama siyosiy elitadagi byurokratik apparatga qarata ishlatiladi. Korruksiya ko'plab davlatlarning jinoyat va ma'muriy qonunchiligi bilan huquqqa qarshi harakat sifatida ta'qib qilinadi.

Islom dinida korruksiya so'zining arab tilidagi lug'aviy shakli "شوه" (Shuh) "ساد" (Sadd) bo'ladi. Bu so'zlar korruksiya ma'nosiga qo'shimcha ravishda buzilish, nizom-tartib buzilishi va aynish kabi ma'nolarni ham anglatadi. Korruksiyaning istilohiy ma'nosi "Haqli bo'limgan holda biror narsa yoki ishni o'z foydasiga hal qilishga urinish" dan iboratdir. Ma'lumki, har bir atamaning lug'aviy va istilohiy mazmuni orasida o'zaro bog'liqlik bo'ladi. Darhaqiqat, bu so'zlarning lug'aviy va istilohiy ma'nolarida o'zaro bog'liqlik mujassam: u shundan iboratki, bu ishga faqat va faqat fitrati-sog'lom insoniy tabiatи buzilgan, tabiatida aynish-evrilish paydo bo'lgan kishilargina qo'l uradilar!..

Afsuski, ba'zi kimsalar bu razil ishning nomini "o'zbekchilik" deb atab, o'zining bu bepisand ta'biri bilan butun O'zbek millati nomiga o'chmas dog' tushirayotganini, nahotki anglamayotirlar?!

Bu illatning boisi nafsi badini qondirish uchun "samimi tanish-bilish va aka-ukachilik"ka qo'l urishdan o'zga narsa emasligi hammaga ma'lum... bu narsa har

qachon adolat mezoni oyog‘iga bolta urgan, jamiyatda tengsizlik urchishiga asosiy qo‘shtirnoq ichidagi “omil” bo‘lgani sir emas.

Taniqli hanafiy olimi va faqih Zayn al-obidin (Zayniddin) Ibn Nujaym al-Misriy al-Hanafiy (1519-1563) o‘zining "ar-Rasoil az-zayniyya fiy fiqh al-hanafiyya" nomli risolalar to‘plamida “Pora va uning turlari” qismida poraning ikki xil ma’nosini borligini aytadi.

Uning lug‘aviy va istilohiy ma’nolari bor. Lug‘atda poraning ma’nosini shirinkoma – haq, mukofot.

"al-Qomus"da "rishvat" ("pora")ning misoli shirinkoma ekanı aytilgan. "Rashaahu" deyilsa, unga biror narsa berilganini aytiladi.

"Irtashaa" esa o‘sha narsani olganni aytiladi. "Istarshaa" esa biror narsa talab qilganni aytiladi.

"al-Misbob"da "rishvat" "ro"ning kasrasi bilan biror shaxsning uning foydasiga hukm qilishi yoki uning istaganini amalga oshirishi uchun hokimga yoki boshqa birovga biror narsani bergeniga aytiladi, deyilgan.

Ushbu so‘zning ko‘pligi "rushaa" ham deyiladi, "qatala" bobidandir. Unga rishvat bergandim, u oldi, demoqchi bo‘lsa, "irtashaa" fe’li qo‘llanadi. Rishvat so‘zining asli "rashaa"dan bo‘lib, jo‘ja onasi og‘ziga biror narsa solishi uchun bo‘ynini – boshini cho‘zganiga aytiladi.

"al-Mug‘rib"da "rishvat" va "rushvat" deb ham aytilishi mumkinligi, ko‘pligi "ar-rushaa" kelishi zikr qilingan. "Rashaahu" deyilsa, pora berganni aytiladi, "irtashaa minhu" deyilsa,

uni olganni aytiladi.

Bugungi kunda makroiqtisodiy va siyosiy-iqtisodiy tadbiqotlar, korrupsiya — davlatlarning iqtisodiy o‘sishi va rivojlanishiga ulkan to‘siq ekanligini ko‘rsatdi.

Jahon bankining hozirgi dunyoda davlatning roliga bag‘ishlangan hisobotida ham korrupsiyaga shu kabi ta’rif berilgan: “Korrupsiya –shaxsiy manfaat uchun davlat hokimiyatini suiiste’mol qilish”.

BMTning Korrupsiyaga qarshi kurashga oid Konvensiyasida Korrupsiya tushunchasi berilmagan.

O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi **“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni.**

Qonunning maqsadi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnomada qoidalari qo‘llaniladi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlar – davlat hokimiyati organlari faoliyat olib borishi, davlat xizmatchilarining faoliyati jarayonida yuzaga keladigan, korrupsiyaga

oid huquqbazarlikni sodir etish vaziyatini yaratadigan hamda ular natijasida noxush oqibatlar keltirib chiqaradigan holatlar, omillar va harakatlar.

Korrupsiya xavf-xatarlarini idoraviy xaritasi – davlat organi, uning hududiy tuzilmalarida va idoraviy mansub tashkilotlarda korrupsiya xavf-xatarlarini baholash natijasiga koʼra tuziladigan hamda davlat xizmatchilarining soha faoliyati, lavozimlari va ularning korrupsiya xavf-xatarlariga koʼproq moyil boʼlgan funksiya (vakolat)larining umumiy roʼyxati, shuningdek ular boʼyicha minimallashtirish boʼyicha choralarini oʼz ichiga oladigan hujjat.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarini baholash – davlat organining amalga oshirayotgan funksiyalari (vakolatlari)ni tahlil qilish va korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etilishiga sharoit yaratishi mumkin boʼlgan korrupsiya xavf-xatarlarini aniqlash hamda ularni minimallashtirishga qaratilgan samarali va natijali chora-tadbirlarni ishlab chiqish boʼyicha faoliyat.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yoʼnalishlari - aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish; davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish; korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni oʼz vaqtida aniqlash, ularga chek qoʼyish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini taʼminlash.

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari - korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar toʼqnashuviga yoʼl qoʼymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish choralarini koʼrish uchun masʼul boʼlgan muassasalar hisoblanadi. Ular Oʼzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qoʼshimcha chora-tadbirlar toʼgʼrisida”gi PQ–5177-son qaroriga asosan joriy etilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tarixi

Korrupsiya tarixi insoniyat tarixi kabi koʼhnadir. Qadimgi Misrda korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari qonunchilikda oʼz aksini topgan. Arxeologik tadqiqotlar jarayonida topilgan hujjatlar miloddan avvalgi 597-538 yillarda, yahudiylar **Bobil podshosi tomonidan asirga olinganidan keyingi davrda, Quddusda korrupsiya ayniqsa avj olganidan dalolat beradi.**

Korrupsiya haqidagi eng qadimgi qaydlardan biriga qadimgi Bobilning mixxatda yozilgan bitiklarida duch kelingan. Miloddan avvalgi uchinchi ming yillikning oʼrtalariga taalluqli boʼlgan matnlarda aytishicha, shumer podshosi Urukagin oʼsha zamonlardayoq qonunga xilof haq olishga ruju qoʼygan sudyalar va amaldorlarning qonunbazarliklariga chek qoʼyish muammosini yechish yoʼllarini izlagan.

Qadimgi yunon faylasufi Arastu shunday degan edi: “Har qanday davlat tuzumida eng muhimi – bu qonunlar va tartib-qoidalar vositasida ishni shunday tashkil etishki, mansabdor shaxslar qing‘ir yo‘l bilan boylik orttira olmasin”.

Pora olish va berish Qadimgi Rimda amal qilgan 12 jadval qonunlarida tilga olingan. Ibtidoiy va ilk sinfiy jamiyatlarda kohinga, qabila oqsoqoliga yoki harbiy boshliqqa muayyan imtiyozni qo‘lga kiritish uchun haq to‘lash tabiiy bir hol sifatida qaralgan.

Davlat apparatining murakkablashuvi va professionallashuviga qarab vaziyat o‘zgarib borgan. Oliy martabali amaldorlar quyi turuvchi “xizmatchilar” faqat tayinlangan maosh bilan qanoatlanishlarini talab qilganlar. Quyi daraja amaldorlar esa, aksincha, o‘z xizmat vazifalarini bajarganlik uchun arzgo‘ylardan yashirinchha qo‘sishma haq olishni (yoki talab qilishni) ma’qul ko‘rganlar.

Professional davlat amaldorlari hali mavjud bo‘lmagan antik jamiyatlar tarixining ilk bosqichlarida (qadimgi yunon shahar-davlatlari, respublika Rimi) korrupsiya deyarli bo‘lmagan. Bu hodisa antik davr tanazzulga yuz tutgan bosqichdagina vujudga kelgan. Bu davrda korrupsiya domiga ilingan davlat amaldorlari haqida: “U boy viloyatga kambag‘al bo‘lib kelib, kambag‘al viloyatdan boy bo‘lib ketdi”, deyishgan. Ayni shu davrda rim huquqida "corruptive" degan maxsus atama paydo bo‘lgan, u “buzish”, “pora evaziga og‘dirish” iboralarining sinonimi hisoblangan va mansab mavqeini suiiste’mol qilishning har qanday ko‘rinishlarini ifodalashga xizmat qilgan.

O‘sha davrlarda boshqa davlatlarda ham pora olish jinoyat sifatida tan olingan. Chunonchi, Rim huquqida deliktlar XII jadval qonunlariga borib taqaladi. Jadvallarda «davlatga qarshi jinoyat» tushunchasi ham bo‘lgan, sudyalarning poraho‘rligi aynan «davlatga qarshi jinoyat» kabi baholanib, uni sodir etganlik uchun o‘lim jazosi berilishi xakida yozilgan.

Markaziy hukumat hokimiyati zaif bo‘lgan joylarda (masalan, ilk o‘rta asr davrida Yevropada) xizmat mavqeidan aholidan o‘z cho‘ntagiga haq undirish uchun foydalanish aksariyat hollarda umum e’tirof etilgan me’yorga aylangan.

Davlat markazlashgani sari u fuqarolarning mustaqilligini qattiqroq cheklagan va shu tariqa quyi va oliy bo‘g‘in amaldorlariga qattiq nazoratdan qutulishni istagan fuqarolar foydasiga qonunni xufyona buzishga turtki bergen. Korrupsiya domiga ilingan amaldorlarni boshqalarga dars bo‘lsin uchun olomon ko‘z o‘ngida jazolashlar odatda hech qanday samara bermagan, chunki amaldan chetlatilganlar (lavozimidan olinganlar yoki qatl etilganlar) o‘rnini yangi poraxo‘rlar egallagan. Markaziy hokimiyat amaldorlar faoliyati ustidan yalpi nazorat o‘rnatisht uchun odatda zarur kuch va vositalarga ega bo‘lmagani bois, u korruptsianing o‘ta xavfli ko‘rinishlarinigina jazolash bilan kifoyalangan.

O‘sha davrda O‘zbekiston hududidagi feodal jamiyatlarda hozirgi talqindagi korrupsiya uchun javobgarlik nazarda tutilmagan. Shunga qaramay, O‘zbekiston

Rossiya tomonidan istilo qilingan davrgacha korrupsiya qonuniylashtirilgan institutsional shakllarda namoyon boʼlgan, xususan hukmron davralarning vakillariga u yoki bu tarzda haq berish feudal majburiyat xususiyatini kasb etgan. Masalan, oddiy dehqonlardan xonlar, sultonlar, biylar va zodagonlarning boshqa vakillari foydasiga muntazam ravishda “ushur” soligʼi – hosilning oʼndan bir qismi undirilgan. Chorvadorlar “zakot” soligʼi toʼlaganlar – bu soliq miqdori u yoki bu turdagи chorva molining muayyan boshiga teng boʼlgan. Bundan tashqari, zodagonlarning vakillariga va oqsoqollariga har xil turdagи sovgʼa-salomlar berilishi lozim boʼlgan.

Hokimiyat markazlashtirilmagani, yagona davlat amaldorlari apparati mavjud emasligi, davlat boshqaruvi feudal hokimiyat organlari tomonidan amalga oshirilishi jamuljam holda Oʼzbekiston hududida joylashgan davlatlar huquqida poraxoʼrlik, xizmat mavqeini suiisteʼmol qilish va hokazolar, yaʼni korrupsiya uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi meʼyorlar hech boʼlmasa rasman paydo boʼlishi imkoniyatini ham istisno etgan.

Bizgacha yetib kelgan manbalarning guvoxlik berishicha, kadimgi davrlarda Oʼzbekiston hududida mavjud boʼlgan davlatlarda poraxoʼrlik ogʼir jinoyat sanalib, jinoyatchilarga nisbatan oʼlim, tan (jismoniy jazo), mol-mulkini musodara qilish, pul jarimasi, qamok jazosi qoʼllanilgan.

1922 va 1926 yillardagi Jinoyat kodekslarida nazarda tutilgan mansabdorlik uchun javobgarlik toʼgʼrisidagi jinoiy-huquqiy normalarning taxliliqa xulosa qilib shuni taʼkidlash joizki, qonun chiqaruvchi ushbu kodekslarda 1917-yilga qadar boʼlgan davrda ushbu jinoyatlar haqida chor Rossiyasida mavjud boʼlgan jinoiy-huquqiy koidalarni deyarli qayta joriy etgan.

Oʼzbekistonning 1959-yil 21-mayda qabul qilgan Jinoyat kodeksida xam mansabdor shaxsning oʼz xizmat mansabidan foydalanib qilishi lozim boʼlgan yoki mumkin boʼlgan biror-bir harakatni pora beruvchi shaxs manfaatini koʼzlab bajarganligi yoki bajarmaganligi evaziga pora olganlik uchun javobgarlikni belgilovchi norma mavjud boʼlgan. Mazkur kodeks qabul qilinishi bilan «mansabdor shaxs» tushunchasi xam aniq belgilab qoʼyildi. Natijada mansabdor shaxs boʼlмаган xizmatchilarning pora olganlik uchun javobgarligi dekriminalizatsiya kilindi. 1959 yilgi Jinoyat kodeksi 148-moddasi 2-qismining «Mansabdorlik jinoyati va mansabdor shaxs tushunchasi»da korxona, muassasa va tashkilotda doimiy yoki vaqtincha, pullik yoki pulsiz, tayinlangan, saylangan xolda yoxud ayrim topshiriqlar yuzasidan davlat hokimiyati aktlarini amalga oshirish bilan bogʼliq boʼlgan vazifalarni yoxud maʼmuriy-boshqaruvchilik va tashkiliy-xoʼjalik xususiyatidagi harakatlarni bajaruvchi shaxs mansabdor shaxs deb hisoblanishi belgilangan.

Oʼzbekistonning 1959-yilda qabul qilgan Jinoyat kodeksining poraxoʼrlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan 152-154-moddalari 1995-yilning 1-apreliga kadar amal kildi.

Korrupsiya miqyosini belgilovchi omillar va uning kelib chiqish sabablari

Korrupsiya – mansab mavqeidan shaxsiy maqsadlarda foydalanish bilan bogʼliq boʼlgan jinoyat. Korrupsiya faoliyati xufyona iqtisodiyotning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Aksariyat hollarda korrupsiya deganda davlat amaldorlari tomonidan shaxsiy maffatlarni koʼzlab, boylik orttirish maqsadida fuqarolardan pora olish, qonunga xilof pul daromadlarini qoʼlga kiritish tushuniladi. Ammo, umuman olganda, davlat amaldorlarigina emas, balki, masalan, firmalarning menejerlari ham korrupsiyaga doir munosabatlarning ishtirokchilari boʼlishi; pora pul bilan emas, balki boshqa shaklda berilishi mumkin; korrupsiyaga doir munosabatlarning tashabbuschilari baʼzan davlat amaldorlari emas, balki tadbirkorlar hisoblanadi.

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib korrupsiya xalqaro muammoga aylandi. Ayniqsa, globallashuv jarayonlari natijasida bir mamlakatdagi korrupsiya boshqa mamlakatlar rivojlanishiga salbiy taʼsir koʼrsata boshladi. 1994-yilning 31-dekabrida «Finansial Times» gazetasi 1995-yilni «Korrupsiya yili» deb eʼlon qilganligi koʼpchilikka maʼlum. Birlashgan Millatlar Tashkiloti esa korrupsiyaga oid savodxonlikni tashviqot qilish uchun 9 dekabrni «Korrupsiyaga qarshi kurash xalqaro kuni» deb taʼsis etdi va ushbu kun 2004-yildan boshlab nishonlanib kelinadi.

Hokimiyat (ijroiya, vakillik va sud) organlaridagi korrupsiya hozirgi vaqtida jahoning deyarli barcha mamlakatlari, shu jumladan Oʼzbekistondagi muhim muammolardan biri hisoblanadi. Bu turdagि korrupsiya jinoyatlarining oʼziga xos xususiyati shundan iboratki, ularni oʼzlari qonunga rioya etishlari va uni muhofaza qilishlari lozim boʼlgan kishilar sodir etadilar. Aksariyat mamlakatlarda bu jinoyatlar keng tarqalganligi, davlat apparati xodimlari korrupsiya domiga ilinganligi mazkur mamlakatlarning qonunchilarini poraxoʼrlik, mansab mavqeini suiisteʼmol qilish va boshqa xavfli mansabdorlik jinoyatlariga qarshi qatʼiy choralar koʼrishga va, aksincha, amaldorlarning uncha xavfli boʼlmagan va koʼproq darajada tarqalgan jinoyatlariga jiddiy eʼtibor bermaslikka (masalan, uncha qimmat turmaydigan sovgʼa olish jinoyat hisoblanmaydi) majbur qilayotir.

Korrupsiyaning oʼta avj olishiga quyidagi xavfli ijtimoiy hodislari ham sabab boʼlmoqda. Oʼtgan asrning oxirlari va XXI asrga kelib Gʼarb mamlakatlarida moddiyotga berilish, nafsnı qondirish, buyumparastlik kabi illatlarning singdirilishi iqtisodiy jarayonlarni jadallashtirdi. «Barcha narsa sotish va sotib olish mumkin boʼlgan tovarga aylantiriladi» degan tushuncha insonlar ruhiyatiga singdirila boshlandi. Tovar (buyum)ga sigʼinish kuchaydi. Globallashuvning xususiyati madaniyatlarning «duragaylashuvi»ga olib keldi. Fikr va buyumlarning, inson tanasi va ruhiyatining, tabiat va madaniyatning tovarga aylantirilishi bugungi kunning asosiy xususiyati boʼlib qolmoqda.

Jamiyat hayotining barcha sohalarida savdo-sotiqlar munosabatlari ustuvor boʼlmoqda «yemak va tomoshalar» shiori ostida insonlarda isteʼmolchilik kayfiyati

avj oldirildi. «Insoning hamyonи qaerda bo'lsa, uning qalbi ham o'sha yerda» degan halokatli g'oya singdirilmoqda.

Molparastlik va xudbinlikning shu tariqa hammabop qadriyat sifatida tiqishtirilishi inson ma'naviy olamiga jiddiy tahdid solmoqda.

Korrupsiyaviy jinoyatlarning sodir etilishiga sharoit yaratuvchi omillardan biri sifatida bu illat ustidan tashkiliy-boshqaruv va ijtimoiy nazorat yetarli emasligi ko'rsatilib, ularga:

rejalashtirishdagi kamchiliklar, shartnoma talablarini ishtirokchilar tomonidan buzilishi, xizmat faoliyatini tashkil etishdagi nuqsonlar (majburiyatlarni taqsimlash, vakolatni belgilash, ish xajmining ko'pligi va h.k.);

kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishdagi kamchiliklar (bilimsiz va tajribasi yo'q yoki ishonchsiz shaxslarni qarindosh urug'chilik, tanishbilishchilik asosida ishga qabul qilish va shunga o'xshash holatlar);

hisob-kitob va nazoratning sustligi;

xo'jasizlik va ortiqcha sarf-xarajatga yo'l qo'yib berish (energiya manbalaridan, moddiy va odam resurslaridan tejamkorliksiz foydalanish), tarbiyaviy ishlardagi nuqsonlar;

huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari faoliyatidagi mansabdor shaxslar, xizmatchilarining foydasi va sarf-harajatlari va ular tomonidan xizmat vazifalarini bajarishi ustidan nazoratni yo'qligi, shuningdek, korrupsiyaviy holatlarga e'tiborsizliklarni keltirib o'tsak bo'ladi.

Ko'pgina davlatlarda korrupsiyaviy jinoyatlarni oshib ketishiga sabab, davlat organlari mansabdor shaxslari va xizmatchilarining salbiy jihatlariga e'tibor qaratmaslik, ularning sonini juda oshib ketishiga olib kelmoqda. Bunday jihatlarga masalan, ko'rolmaslik, g'arazgo'ylik, karerizm, moddiy foyda olish yo'lida qonun va manaviy talablar hamda kasb obro'sini qurban qilishga tayyorlik kabi bir qator negativ holatlar kiradi. Mansabdor shaxs va davlat xizmatchilarini xulq-atvorida bunday salbiy jihatlarni ildiz otishiga, u ishlayotgan jamoadagi nosog'lom muhit katta ta'sir o'tkazadi. Xususan, xizmatchilar tomonidan oldindan xizmatdan shaxsiy manfaatlari yo'lida foydalanib kelganligi, ularning ichida kriminal faoliyat orqasidan boyib, o'z moddiy tomonini juda yaxshilab olgan xodimlarning mavjudligi, xodimlar o'rtasida boylik darajasiga qarab manfaatlар o'rnatilganligi kabi salbiy holatlar.

Shu sababli, korrupsiyaviy jinoyatlarga oid qonunchilikni yanada takomillashtirish masalalari nafaqat bizning respublikamiz qonunchiligi uchun, balkim aksariyat xorijiy davlatlarning bu boradagi qonunchiligi uchun ham nihoyatda dolzarb bo'lib turibdi. Ko'pgina umumiy savollar, aniqrog'i "pora olish", "pora berish", "pora olish va berishda vositachilik qilish" masalalari turli davlatlar qonunchiligidagi hozirgacha ham o'z yechimini topmagan, ayrim holatlarda esa ular

bir biri bilan qarama-qarshi ko‘rinishga ega. Davlat mansabdor shaxslari va xizmatchilari o‘rtasida korrupsiyaviy jinoyatlarni oldini olish choralarini kuchaytirish maqsadida ko‘pgina davlatlar qonunchilikni takomillashtirish va samardorligini oshirish orqali bu dalzARB masalani hal etishga urinishmoqda. Shu bois, xorijiy davlatlar jinoyat huquqining poraxo‘rlik va mansabni suiste’mol qilishga oid jinoiy-huquqiy normalarini chuqur tahlil qilish va ularning ijobiy tajribasini umumlashtirish va qonunchilikka kiritish masalalari ham nazariy, ham amaliy jihatdan muhim ahamiyatga egadir.

Mansabdor shaxslar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, mazkur shaxslarning asosiy vazifasi qonunlarga eng avvolo o‘zları amal qilishlari va boshqa shaxslarni amal qilishini nazorat qilishlari lozim.

G‘arb davlatlarida mansab bilan bog‘liq jinoyatlarni keng tarqalganligi, davlat tizimida ishlaydigan mansabdor shaxslarni korrupsiyaviy jinoyatlarni sodir etib borishi, shuningdek, keyingi yillarda nufuzli xalqaro tashkilotlarning mas’ul raxbarlarini turli moliyaviy o‘yinlarda ishtirok etib qolishi (masalan, Xalqaro valyuta jamg‘armasi sobiq rahbari Stross Kan, Xalqaro valyuta fondi sobiq rahbari Jozef Blatter, Panamageyt deb nomlanmish ko‘pgina davlatlar rahbarlarini offshor mintaqadalardagi yashirin jamg‘armalari va boshqalar) mazkur davlatlarning qonun chiqaruvchi organlarini mansab bilan bog‘liq bo‘lgan xizmat vazifasini suist’emol qilish, poraxo‘rlik va boshqa mansabdorlik jinoyatlari uchun javobgarlikni kuchaytirish va shu bilan bir vaqtida ommaviy xavflilik darajasi kam bo‘lgan mansab bilan bog‘liq jinoyatlar uchun javobgarlikni yengilashtirish yo‘lidan borishga majbur qilmoqda. Masalan, ko‘pgina g‘arb davlatlari qonunchiligida mansabdor shaxs tomonidan ma’lum miqdorgacha sovg‘a olishi jinoyat hisoblanmaydi.

Shu bois, ko‘pgina davlatlarining ko‘p yillik qonunchilik tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, bu davlatlarda mansabdor shaxslar faoliyati bilan bog‘liq jinoyatlar aks etgan qonunchilikning ideal ko‘rinishi izlash jarayonlari hamon davom etib kelmoqda. Boshqaruva tartibiga qarshi korrupsiya jinoyatlarida harakat aynan g‘ayriqonuniy bo‘lishi kerak va bu xizmat vazifalarining bajarilishi bilan aloqador bo‘lishi lozim. Aksariyat hollarda mansabni suiiste’mol qilinganida uning huquqqa xiloflik xususiyati yaqqol namoyon bo‘ladi, sababi bu harakatlar ayrim qonun normalarning buzilishi bilan sodir etiladi. Masalan, nazorat yoki taftish organlari xodimlari talon-torojni ataylab yashiradilar, aniqlangan kamomadni taftish aktlarida ko‘rsatmaydilar, korxona rahbarlari g‘araz maqsadlarda moliyaviy yoki shtat intizomini buzadilar; pora evaziga sud ijrochilar mol-mulkni ro‘yxatga olish aktlarini yo‘q qilib yuboradilar va h.k.lar. Boshqaruva tartibiga qarshi korrupsiya jinoyatlari ichida, davlat yoki jamoat mulklarini vaqtinchalik foydalanishga berib turish, g‘ayriqonuniy ravishda moddiy boyliklarni sarflab yuborish yoki keraksiz

yo‘nalishga sarflash, poraxo‘rlik kabilar ko‘proq uchraydi. Bunday harakatlar korxona yoki tashkilotlar moddiy boyliklarining kamayishiga sabab bo‘ladi.

Mansabdar shaxslar huquqka xilof harakatlarini shuningdek, korxona yoki tashkilot uchun harid qilinadigan vositalarga ortiqcha sarflab yuborish orqali ham sodir etadilar. Masalan, qonunga xilof ravishda davolanish yoki dam olish uylariga imtiyozli yo‘llanmalar sotib olish, xodimlar uchun qonunga xilof ravishda uy-joy sotib olish, dala hovlilari uchun joylar olish, xodimlarning farzandlari o‘qishlari uchun shartnoma pullari to‘lab berish va h.k.

Olib borilgan ilmiy izlanishlarga qaraganda, korrupsiya rivojlangan jamiyatlarda uning quyidagi turlari tez-tez uchraydi:

– *Maishiy korrupsiya, asosan mansabdar shaxslar va davlat xizmatchilarining kundalik ish faoliyatida fuqarolar bilan munosabatlarida manfaatlar to‘qnashadi;*

– *Ishbilarmonlik korrupsiyasi, bu hokimiyat vakillarining tadbirkorlik sub’ekt (biznesmen)lari bilan munosabatlarida uchraydi;*

– *Oliy hokimiyat organlari korrupsiyasi, bu demokratik jamiyatlarda siyosiy hukmron doiralar hamda odil sudlov tizimi faoliyatida ko‘zga tashlanadi.*

Korrupsiyaning jamiyatda yuqori ekani bir qancha ob’ektiv sabablar bilan bog‘liq, masalan:

mamlakat iqtisodiyoti davlat tomonidan boshqarilishi;

muayyan xizmat turlarida davlat monopoliyasi (yakka hukmronlik) o‘rnatilgani;

byurokratiya (davlat boshqaruvi organlari)ning xalq bilan aloqalari uzilib qolganligi;

iqtisodiy barqarorlikning mavjud emasligi, inflyatsiya;

iqtisodiy rivojlanish (YaIMning aholi jon boshiga o‘sishi) sur’atlari pastligi;

jamiyatning huquqiy madaniyati pastligi;

ikki xil talqin etiladigan qonun normalarining mavjudligi;

davlat sektorida oylik maoshlarning xususiy sektorga qaraganda ancha pastligi;

fuqarolarning davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati sustligi;

jamiyat va davlat boshqaruvida siyosiy homiylik, mahalliliychilik, qarindoshurug‘ va “oshna-og‘aynigarchilik” munosabatlarining yuqoriligi singari illatlar.

Shuningdek, tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, korrupsiya mamlakatda quyidagi fojiali oqibatlarni keltirib chiqaradi:

davlat resurslari va manbalarining samarasiz isrof etilishi;

soliq ma’murchiligining susayishi, soliqlarning davlat budgetiga tushish miqdori kamayishi;

davlat apparatining ish samaradorligi keskin tushib ketishi;

xususiy tadbirkorlarning tez-tez “sinib” ketishlari;

malakali mutaxassislarning horijga ommaviy ravishda chiqib ketishlari;

ishlab chiqarishda investisyaning kamayib ketishi, iqtisodiy o'sishning to'xtab qolishi;

jamoat xizmatlari sifatining yomonlashuvi;

xalqaro tashkilotlarning rivojlanayotgan davlatlarga ko'rsatayotgan moliyaviy yordamlaridan maqsadsiz foydalanish;

jamiyatda ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi;

uyushgan jinoyatchilikning avj olishi – yirik mafiya guruhlari paydo bo'lishi;

siyosiy hokimiyatning qonuniyligiga putur yetishi;

jamiyatdagi ma'naviy muhitning buzilishi va h.a.

Tarqatma materiallar

O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvarda qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyundagi PF-6257-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2021-2022 yillarda Korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

I. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O’zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘ limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘ taramiz. 1-jild. – T.: “O’zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O’zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ ladi. 3-jild.– T.: “O’zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O’zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.:O’zbekiston, 2023.
2. O’zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida” O’RQ-637-sonli Qonuni.
3. O’zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida” Qonuni.
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydag‘i “O’zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5729-son Farmoni.
5. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlucksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” PF-5789-sonli Farmoni.
6. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-sonli Farmoni.
7. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.
8. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 60-son farmoni. (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son; 10.02.2023 y., 06/23/21/0085-son).
9. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.12.2021 yildagi “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 60-son Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2021 yil 25 dekabr.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.12. 2021 yildagi “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 61-son qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2021 yil 25 dekabr.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21 iyundagi “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-228-son Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

12. Oliy ta’limning meyoriy - huquqiy xujjatlari to‘plami. -T., 2013.

13. B.I.Ismailov, I.I.Nasriyev Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoraviy chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish masalalari//O‘quv-uslubiy qo‘llanma. - T.:O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi Akademiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi. Sudyalar oliy maktabi, 2020.-272 b.

14. Юсуфжанов О., Усманова С. Зарубежный опыт противодействия коррупции. // -Т.: Адвокат, 2016. №5 - 59-62 б.

15. The European Higher Education Area. - Joint Declaration of the Ministers of Education. - Bologna, 1999, 19 June.

16. Shaping our Own Future in the European Higher Education Area // Convention of European Higher Education Institutions. - Salamanca, 2001, 29-30 march.

IV. Internet saytlar

17. <http://edu.uz>

18. <http://lex.uz>

19. <http://bimm.uz>

20. <http://ziyonet.uz>

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Pedagog
kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq
markazining "Oliy ta'limning normativ-huquqiy asoslari hamda tizimda
korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish" fan dasturi va o'quv-
uslubiy majmuasiga

TAQRIZ

Oliy ta'lim muassasalari tomonidan strategik rivojlantirishning asosiy
yo'nalişlarini aniq belgilab olish, strategik ahamiyatga ega bo'lgan normativ-
huquqiy va meyoriy-uslubiy xujjalarni takomillashtirish, ta'lim tashkilotlarini
rivojlantirishning uzoq muddatli dastur va konsepsiyalarni ishlab chiqish va oliy
ta'lim tizimida o'z yechimini kutayotgan muammolarni bartaraf etish masalasini kun
tartibiga qo'ymoqda.

Mazkur dastur Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va
malaka oshirish kursi tinglovchilarini oliy ta'limning normativ-huquqiy hamda
korruksiyani oldini olish va unga qarshi kurashishning huquqiy va ma'naviy-
ma'rifiy asoslari bo'yicha bilimlarini takomillashtirish, normativ-huquqiy
hujjatlarni qo'llashdagi muammolarni aniqlash, tahlil etish, shuningdek, ularda oliy
ta'limning normativ-huquqiy xujjalari to'g'risida ko'nikma va malakalarni
yangilashga hizmat qiladi.

Belgilangan mavzular O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 8-
oktabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim
tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi" ga muvofiq mamlakatimizning
oliy ta'lim sohasida islohotlarni amalga oshirish, insonlarning dunyoqarashini
o'zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni
tayyorlash, ta'lim va tarbiya berish bilan chambarchas bog'langani muhim ahamiyat
kasb etadi.

Dastur doirasida tinglovchi oliy ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-
huquqiy hujjatlar, ijtimoiy soha ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda fan, ta'lim va
ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini
yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni
samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish sohalariga mos
qonunchilikda qabul qilingan, umummajburiy davlat ko'rsatmalarini, huquqiy
normalarni, rasmiy hujjatlar yig'indisini o'rganib boradi. Mazkur dastur va o'quv-
uslubiy majmua davlat talablari asosida, fan me'yorlaridan kelib chiqib tuzilgan.

